

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI
VAZIRLIGI
MUQIMIY NOMIDAGI QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

BOSHLANG‘ICH TA’LIM METODIKASI KAFEDRASI

**5141600 – Boshlang‘ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish
ta’lim yo‘nalishi IV “C” kurs talabasi
Isaqova Muattarxonning**

**“Ona tili darslarida so‘z tarkibining imloviy va ilmiy
xususiyatlari” mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar – f.f.n. Isaqova Z.

Qo‘qon – 2013

REJA:

I. KIRISH.

Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'lim sohasining mazmuni va tarkibiy qismlari.

II. ASOSIY QISM.

I BOB:

1. Boshlang'ich ta'lim tizimida morfemik tahlilning nazariy asoslari
2. Boshlang'ich ta'limda morfemik tahlilning psixologik va metodik asoslari

II BOB.

1. Morfemik tahlilni amalga oshirishdagi lingvistik va psixologik xususiyatlar
2. Morfemik tahlilga oid uslubiy ishlar tizimi

III BOB.

1. Darsliklarda berilgan morfemik tahlilga oid mashqlar.
2. Morfemik tahlilni amalga oshirishda didaktik o'yinlar.

III. UMUMIY XULOSALAR.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

M U N D A R I J A

I. KIRISH.

Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'lim sohasining mazmuni va tarkibiy qismlari.

II. ASOSIY QISM.

I BOB:

1. Boshlang'ich ta'lim tizimida morfemik tahlilning nazariy asoslari
2. Boshlang'ich ta'limda morfemik tahlilning psixologik va metodik asoslari

II BOB.

1. Morfemik tahlilni amalga oshirishdagi lingvistik va psixologik xususiyatlar
2. Morfemik tahlilga oid uslubiy ishlar tizimi

III BOB.

1. Morfemik tahlilga oid mashqlar.
2. Morfemik tahlilni amalga oshirishda didaktik o'yinlar.

III. UMUMIY XULOSALAR.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

Mavzuning dolzarbligi. Prezidentimiz I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so'zlagan nutqida quyidagi fikrlarni aytib o'tgan edilar:

«Faqatgina chinakkam ma'rifatli odam inson qadrini, millat qadriyatlarini, bir so'z bilan aytganda, o'zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib, obro'li o'rin egallashi uchun faollik bilan kurashishi mumkin.

Sir emas, har qaysi davlat, har qaysi millat o'zining yer osti va yer usti tabiiy boyliklari, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki birinchi navbatda o'zining yuksak madaniyati va ma'naviyati bilan kuchlidir. Bunday boyliklarni ahamiyatini anglash uchun Chor Rossiyasining Turkiston o'lkasidagi general – gubernatori M.Skobelov: «Millatni yo'q qilish uchun uni qirish shart emas, balki uning madaniyatini, san'atini, tilini yo'q qilsang bas, tez orada o'zi tanazzulga uchraydi», deb aytgan.

Bunday yovuz qarashlarga qo'shimcha izoh berishga hojat yo'q, kerakli xulosa – saboq chiqarishga bugun ham kech emas.

Chunki uzoq yillar davomida biz maktabda o'rganilgan barcha fanlar qatori ona tilidan ham mutloq dastur va darsliklarga, uni tubdan yangilash, o'zgartirishlarga qaratilgan fikrlarning qoralab kelinganini yaxshi bilamiz.

Mustaqillik sharofati bilan mamlakatimizda amalga oshirilgan muhim ijobiy ishlardan biri «Ta'lim to'g'risida»gi va «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi Qonunlarning qabul qilinishi hamda boshlang'ich ta'limning ham shaklan, ham mazmunan o'zgarishi bo'ldi.

Boshlang'ich ta'lim 1992–1993 o'quv yilidan 4 yillik ta'limga o'tdi. Barcha boshlang'ich sinflarining darsliklari ishlab chiqildi. 1994–1995 yili ishlab chiqilgan dastur, darslik, metodik qo'llanmalar, ko'rgazma qurollar, tarqatma materiallar ishlab chiqildi va 1995–1996 yilda «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek imlo qoidasi» ishlab chiqilib yangi alifboga o'girildi.

Maktablarda ona tilining o'qitilishini talab darajasiga chiqarish maqsadiga mazkur fanning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda uning mazmuni va tarkibiy qismlari ishlab chiqildi. O'zbekiston Respublikasining IX sessiyasida hayotimizning hal etuvchi muhim masalalaridan ta'lim–tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish, uni yangi zamon talabi darajasiga ko'tarish, barkamol avlodimiz kelajagiga daxldor loyihalar ishlab chiqildi.

Bu to'g'rida prezidentimiz I.Karimov «Kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatimizdir.

Bu fikrdan kelib chiqqan holda shunday xulosaga kelishimiz mumkin.

Demak, bu zaminda yashayotgan har bir inson o'z farzandini har tomonlama kamol yetuk inson bo'lib yetishishida, bor kuchini, mehnatini ayamasdan o'rgatmog'i lozimdir.

Har qaysi davlatni, millatni o'zini yer osti va yer usti tabiiy boyliklari bilan, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati, balki birinchi navbatda o'zining yuksak madaniyati va ma'naviyati bilan kuchlidir. Bunday boyliklarni ahamiyatini anglash uchun Chor Rossiyasining Turkiston o'lkasidagi general – gubernatori M.Skobelov: «Millatni yo'q qilish uchun uni qirish shart emas, balki uning madaniyatini, san'atini, tilini yo'q qilsang bas, tez orada o'zi tanazzulga uchraydi», deb aytgan.

Bunday yovuz qarashlarga qo'shimcha izoh berishga hojat yo'q, kerakli xulosa – saboq chiqarishga bugun ham kech emas», – degan edi prezidentimiz.

Shu bois mamlakatimizning istiqloq yo'lidagi birinchi qadamlaridanoq, byuuk ma'anviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim–tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga ko'tarishga katta ahamiyat bermoqda.

Bu jarayonda quyidagi ishlarni misol qilishimiz mumkin. O'zbek tiliga davlat maqomi berilishi, «Ta'lim to'g'risida»gi va «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi Qonunlarning qabul qilinishi kabi muhim ishlar amalga oshirildi.

1996–1997 o'quv yilidan boshlab maktablarida o'qish yangi alifboda olib borildi.

Yangi alifboda o'qitish uchun yangi imlo, dastur, qo'llanma va dasrliklar yaratilishi kerak bo'lib qoldi.

Bu o'zgarishlar ta'lim sohasini ham tubdan yangilash zaruratini vujudga keltiradi.

Boshlang'ich sinflarda ta'limning mazmuni, shakli, metodlari, umuminsoniy qadriyatlari, xalqimizning an'analari, madaniyati va fan bobidagi ko'p asrlik tajribalarini o'rgatishni ko'zlab tashkil etildi. Uni amalga oshirish esa muhim hujjatlar asosida ishlab chiqildi.

1. Umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich bosqichi uchun nizom.

2. Umumiy o'rta ta'limning 1–4–sinflarida o'qitiladigan har bir o'quv predmeti bo'yicha konsepsiyalar.

3. Boshlang'ich sinflar uchun davlat ta'lim standarti.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarilishini nazorat qilish ta'lim standarti orqali amalga oshiriladi.

Ta'lim sohalar bo'yicha standart ko'rsatkichlari 7(6)–11 yoshdagi bolalarning rivojlanish darajasi, ehtiyoj va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ijtimoiy talab taqozo qilgan ta'lim mazmunini minimal asosda belgilab beradi.

Mavzuning o'rganilishi. Boshlang'ich sinf ta'limi jarayonida davlat ta'lim standartlarida belgilangan minimal majburiy talablarga tayanish lozim. Davlat ta'lim standartlarida «Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning ona tili va o'qish bo'yicha o'qish hamda yozish malakasi bilan birgalikda matn mazmunini, o'zgalar fikrini anglash, o'z fikrini yozma va okzaki bayon etish malakasiga ham ega bo'lishlari, nutqi tushunarli, ta'sirchan, ravon, mantiqiy jihatdan bog'liq, grammatik jihatdan to'g'ri va izchillikda ifodalanishi muhim»ligi uqtirilgan. Ta'limda faqat bilimlarni tarkib toptirishga e'tiborni qaratish ta'lim samaradorligining past bo'lishiga olib keladi. Vaholanki, og'zaki nutqni rivojlantiriydigan o'quvchigipa bilimlarni mustahkam o'zlashtiradi.

V. Okon va R. Ibragimovlarning ilmiy tadqiqotida ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish va shu asosda o'quvchilar o'quv-biluv faoliyati samaradorligini oshirish yo'llari tadqiq qilingan.

N. Sattorova, S. Matchonov, Mirjalolova, Sh. Yusupovalarning tadqiqotlarida adabiyot va o'qishdarslarida mustaqil ishlardan foydalanish yo'llari o'rganilgan.

O'quvchilar tafakkurini o'stirish, o'quv-biluv jarayonini ijodiy tashkil etish va faollashtirish muammosi M. Haqberdisv, S. Yaminova, M. Saidov, B. Adizov va Ya. Raxmonovlarning ilmiy ishlarida atroflicha yoritib berilgan.

Ta'lim jarayonini o'yinlar asosida tashkil etish muammosini F. Qodirova va A. Bobomurodovanning tadqiqotlarida ko'rish mumkin.

Tadqiqotning maqsadi: Ўзбек орфографияси ва унинг бошланғич таълим дастури ҳамда дарсликларда акс этишига оид ishlar tizimini ochib berish, boshlang'ich sinf o'qituvchilariga darslarini tashkil etishda uslubiy yordam berish.

Tadqiqot vazifalari. Tadqiqot vazifalari quyidagilqrdan iborat:

- O'qituvchi imloviy malakaning psixologik tabiatidan kelib chiqib, kichik yoshdagi o'quvchilarda imloga oid malakani shakllantirish ustida ishlash metodikasini belgilash;
- To'g'ri yozuv malakasining shakllanishi uchun o'quvchining fikrlash faoliyatini rivojlantiruvchi mashqlar ishlab chiqish;
- O'quvchilarning analitik-sintetik faoliyatini asta takomillashtira borish usullarini ko'rsatish.

KIRISH.

Ona tili dastur va darsliklarida berilgan til materiallari ustida ishlash jarayonida o'quvchilarning keng qamrovli ijodiy faoliyat yuritishiga yo'l ochib beriladi. O'quvchilar til hodisalarini kuzatish, o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash, ma'lum guruhlariga birlashtirish, o'zaro qiyoslash, umumiy jihatlarni topish, muhim xulosalar chiqarish singari faoliyat usullari orqali qo'yilgan muammoning yechimini topadilar.

Ma'lumki, har qanday ta'lim jarayoni o'qituvchi va o'quvchi faoliyati orqali amalga oshadi. Ona tili o'qitishda ham o'quvchi va o'qituvchi faoliyati ustivor o'rin tutadi. Bunda o'quvchi ko'proq faol shaxs sifatida harakat qiladi. Zero, u ta'lim jarayonining subyektidir. O'qituvchi esa, o'quvchi faoliyatini asosiy maqsad sari yo'naltiruvchi, ularning yutuq hamda kamchiliklarini aniqlab boruvchi shaxsdir.

Maktabda ona tili o'qitish o'zining ko'p qirrali maqsad va vazifalari bilan ajralib turadi. Bu fanni o'qitishdan asosiy maqsad o'quvchilarda og'zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirishdir. Davlat ta'lim standartida: "Ona tili ta'limi oldiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtma o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga va shu fikr mahsulini og'zaki va yozma shaklda savodli bayon qila olishga, ya'ni kommunikativ savodxonlikni rivojlantirishga o'rgatishdan iborat. SHundan kelib chiqqan holda ona tili ta'limi oldiga ijtimoiy jihatdan mukammal shakllangan, mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqot madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish maqsadi qo'yiladi" – deb qayd qilinadi. Ona tili ta'limi oldidagi bu yuksak maqsadni amalga oshiruvchi shaxs o'qituvchidir. SHunday ekan O'TO'M fani bo'lg'usi ona tili o'qituvchilarini ana shu maqsadni amalga oshirishga tayyor qilib tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

O'TO'M kursi oldiga bir qator vazifalar ham turadiki, buni talabalar yaxshi bilishlari darkor.

1. O'TO'M ning shakllanish tarixi, hozirgi ahvoli, soha bo'yicha amalga oshirilayotgan ilmiy – tadqiqot ishlari bilan talabalar ushbu fanni o'rganish jarayonida tanishadilar.

2. Maktab tizimida o'qitiladigan ona tili fanining o'qitilish tarixi, ona tili ta'limidagi o'zgarishlar haqida qisqacha ma'lumot beriladi.

3. O'quvchilarning mustaqil faoliyat yuritish yo'llari haqida bahs yuritiladi.

4. O'TO'M fani oldiga turgan muhim vazifalardan biri ona tilini boshqa fanlar bilan bog'lab o'rganish yo'llarini bilish, uni o'zlashtirishdir. Bo'lg'usi ona tili o'qituvchisi o'quvchilar boshqa fanlarni yaxshi o'zlashtirishda o'z fanining o'rni beqiyosligini anglab etmog'i darkor.

5. O'TO'M fanini o'rganish jarayonida talaba maktab dastur va darsliklari bilan yaqindan tanishadi. Ona tili o'qitishning nazariy asoslarini o'zlashtiradi. Amaliyot davrida esa uni qo'llashga harakat qiladi.

6. O'TO'M fani ilg'or o'qituvchilarning ish tajribasi bilan ham talabalarni xabardor etib boradi.

O'TO'M – pedagogik fanlardan biri

O'TO'M o'quvchilarni ona tilidan bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish yo'llarini talabalarga o'rsatadigan fandır. SHu jihatdan bu fan bir tomondan pedagogika fanlari sirasiga kiradi. Ikkinchi tomondan esa O'TO'M o'zining tekshirish ob'ektiga ega bo'lgan mustaqil fan sanaladi. O'TO'M didaktika bilan uzviy bog'langan bo'lib, talaba ta'limning umumdidaktik asoslaridan xabardor bo'lsagina bu fanni yaxshi o'zlashtira oladi.

Ona tili ta'limining samaradorligini oshirish o'quvchilarni ta'lim jarayonining sub'ektiga aylantirish, o'qitishning qulay yo'llarini aniqlash, uni amaliyotga joriy etish, ona tilidan sinfdan tashqari ishlarni samarali tashkil etish singari bir qator masalalar O'TO'M fanining ilmiy tekshirish ob'ekti hisoblanadi. Demak, O'TO'M talabalar o'zlashtirishi zarur bo'lgan fanlar qatorida turadi.

O'TO'M ning fan sifatida shakllanishi va hozirgi holati

Boshqa xalqlarda bo'lgani singari, o'zbek xalqi hayotida ham ta'lim va tarbiya ishlari

uzoq kechmishga ega. Dastlab oilada, urug' va jamoada shakllangan tarbiyaviy – ta'limiy ishlar keyinchalik yozma manbalarga ko'chgan. Xalqimizning uzoq kechmishiga nazar tashlansa, Abu Nasr Forobiy, Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ibn Sino, Alisher Navoiy va boshqa allomalar tomonidan meros bo'lib qolgan yozma manbalarda ta'lim – tarbiyaga oid qimmatli fikrlarga duch kelish mumkin. Masalan, Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida ta'lim – tarbiyaga oid ibratli dalillar ko'p. Allomaning bilishning ikki bosqichi – hissiy va idrokiy bilish haqidagi qarashlarida o'quvchining bilim olishi va uni ko'nikma hamda malakaga aylantirishi xususida muhim xulosalar chiqarish mumkin. Yoki Alisher Navoiyning "Muhokamatul lug'atayn" asarida talaffuz va imlo, so'z qudrati va nutq madaniyati xususidagi zukko qarashlarini eslaylik. Olim o'z qarashlari orqali turkiy xalqlarning o'qitish, tarbiyalash tizimi haqida ham bizni boxabar etmaydimi!? Bu faktlar O'TO'M fanining paydo bo'lishi va shakllanishi uzoq tarixga egaligidan dalolat beradi.

O'rta Osiyo xalqlarining pedagogik – metodik qarashlari XIX asrga kelib o'zining yangi bosqichiga ko'tarildi. Bu asrning ikkinchi choragida Saidrasul Saidazizov, Ishoqxon Ibrat, Abduqodir Shakuriy, Saidahmad Siddiqiy, Ismatulla Rahmatullayev singari bir qator ma'rifatparvar ziyolilar yangi usuldagi maktablarda faoliyat ko'rsatdilar. Ularning ko'pchiligini o'quvchilar o'qitish bilan birga darslik va qo'llanmalar ham yaratishdi. XX asr boshlarida M. Behbudiy, A. Avloniy, Hamza yaratgan darslik – qo'llanmalar shular jumlasidandir. 1918 yilda V – VII sinflar uchun ona tili va adabiyot fanlaridan dastur yaratilishi bu fanlarni o'qitishni ma'lum izga solishga, yangi darslik hamda qo'llanmalar yaratishga keng yo'l ochdi. 1922 yilda bilim yurtlari uchun dastur tuzildi. 1924 yilda Munavvar Qori, Qayum Ramazon, Shorasul Zunnunlarning ona tilidan "Til saboqlig'i" qo'llanmasi chop etilgan bo'lsa, keyinchalik Fitrat, SHorasul Zunnunlarning ancha mukammallashgan darsliklari paydo bo'ldi.

Yangi dastur va darsliklarning paydo bo'lishi o'qituvchi kadrlarning bilim darajasini oshirishni, ularni o'qitishning samarali usullaridan xabardor etishni taqozo etardi. Buning uchun esa metodik qo'llanmalarga ehtiyoj tug'ildi. Shu tariqa O'TO'M fani yuzaga keldi. S. A. Fessalonskiy 1940 yilda "Ona tili metodikasi" nomli birinchi o'quv qo'llanmasini yaratdi. Qo'llanmada o'quvchilarning nutqini o'stirish masalalariga alohida e'tibor berilgani ko'zga tashlanadi. 50 – yillardan keyin bu sohadagi izlanishlar samarasi o'laroq bir qator yangi darslik va qo'llanmalar yaratildi. Murod Shamsning "O'zbek tili o'qituv metodikasi" (1950), Faxri Kamolning "O'zbek tili o'qitish metodikasi" (1952), Hasan Rustamovning "Sintaksis va punktuatsiya o'qitish metodikasi" (1969), Y. G'ulomov, I. Rasulov, H. Rustamov, B. Mirzaahmedovlarning "O'zbek tili o'qitish metodikasi" (1975) singari darsliklarning yaratilishi ona tili fani bo'yicha yetuk o'qituvchi kadrlar tayyorlashda qo'l keldi.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng ona tili ta'limining mazmunini yangilash bo'yicha bir qator xayrli ishlarga qo'l urildi. Shu masala bo'yicha har ikki yilda bir marta o'tadigan o'zbek tili doimiy anjumani tashkil etildi. Anjuman yig'inlarida ona tili o'qitishning bir qator muhim masalalari muhokama etildi. Maktab ona tili darsliklari yangilandi. Fan bo'yicha davlat ta'lim standartlari qabul qilindi. Bu o'zgarishlar O'TO'M fanini ham yangilashni talab etardi. Ushbu fan qo'lga kiritgan keyingi yutuqlar ham ilmiy muomalaga kiritilishi kerak edi. Shuni e'tiborga olgan professor Asqar G'ulomov va dotsent Muhammadjon Qodirovlar 2001 yilda "Ona tili o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanmasini yaratdilar. O'quv qo'llanmada o'qitish metodikasidagi yangi talqinlar o'z aksini topgan. Ayni paytda mualliflar til sathlari bo'yicha tahlil metodikasini alohida bo'lim sifatida ajratdilar. Natijada til sathlarini o'qitish bilan bog'liq masalalardan uning tahlili ajralib qoldi.

Pedagogika universitetlari va institutlari uchun o'quv qo'llanma sifatida nashr etilgan B. To'xtayev, M. Shamsiyeva va T. Ziyodovalar tomonidan yozilgan "O'zbek tili o'qitish metodikasi" ritobida ham ona tili ta'limining eng so'nggi yutuqlari qamrab olingan. Jumladan qo'llanma zamonaviy texnologiyalarga alohida ahamiyat qaratilgan. Mustaqillik davrida nashr etilgan har ikki qo'llanma ham mustaqillikning dastlabki yillarida amaliyotga tadbiiq etilgan

maktab darsliklari asosida yozilgan. Ayni paytda iste'molda bo'lgan darsliklar e'tibordan chetda qolgan.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI TA'LIM SOHASINING MAZMUNI VA TARKIBIY QISMLARI

Ta'lim mazmuni o'quv rejalari dasturi va darsliklar o'quv–metodik qo'llanmalarda o'z ifodasini topadi. Ona tili davlat ta'lim standarti, dasturi va darsliklari o'quvchilarning o'rganishlari uchun tanlangan va ularning o'zlashtirishlariga muvofiqlashtirilgan til materiallarini o'z ichiga oladi.

Ona tili ta'limi mazmuni tilshunoslikning uch asosiy qatlami – fonetika, leksika, grammatikaga (grammatikaning morfologiya va sintaksis qismlari) ajartilib o'rgatiladi.

Boshlang'ich ta'limda ona tili ta'lim mazmunining negizi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- nutq tovushlari (unli va undosh, jarangli va jarangsiz);
- bo'g'in (urg'uli va urg'usiz bo'g'inlar, ochiq va yopiq bo'g'inlar, fonetik tahlil);
- so'z (so'z ma'nolari, bir va ko'p ma'noli so'zlar, ma'nodosh so'zlar, qarama-qarshi ma'noli so'zlar, shevaga xos so'zlar, uyadosh so'zlar, kasb-hunarga xos so'zlar, lug'aviy tahlil);
- o'zak, negiz, qo'shimcha, old qo'shimcha, affiks, so'z tarkibining tahlili, so'z yasovchi qo'shimcha, predmet nomi qo'shimchasi, predmetning rang-tusini bildiruvchi so'zlar, predmetga, uning rang-tusi va miqdoriga ishorani ifodalovchi so'zlar, ish-harakatning nomini, tarzini, maqsad va holatini ifodalovchi so'zlar;
- ko'makchilar va bog'lovchilar;
- gap (darak ma'nosini ifodalovchi so'zlar, sroq ma'nosini ifodalovchi gaplar, his-hayajonni ifodalovchi gaplar);
- tinish belgilari (nuqta, so'roq, undov, vergul);
- matn (matnning tuzilishi, mavzu, asosiy fikr, sarlavha, reja, so'zboshi, taqqoslash, dialog, monolog, bayon, kichik insho, og'zaki va yozma ijodiyot);
- xat, xabar, tabriknoma, maqola, taklifnoma.

Ona tili o'qitishning mazmuni va metodlari o'quvchilarga dastur talab qilgan hajmda puxta bilim berish, ko'nikma va malakalarni hosil qilishga ko'maklashadi.

Ona tili ta'lim mazmuni to'rt tarkibiy qismdan iborat:

1.Ona tili ta'lim mazmunining birinchi muhim tarkibiy qismi o'quvchilar egallashi zarur bo'lgan bilimlar tizimidir. Ona tilidan bilimlar tizimi deganda bir–biriga uzviy bog'liq bo'lgan til faktlari, tushunchalar, qoidalar, ta'riflar tizimi tushuniladi.

Ma'lumki, asrlar davomida insoniyat tomonidan to'plangan barcha til ilmini maktab o'quvchisiga o'rgatishni iloji va zaruriyati yo'q. Demak, ona tilidan eng zarur bilimlarni tanlash asosiy masalalardan biri sanaladi.

Ona tilidan bilimlarni tanlashning bosh mezoni uning foydalilik va amalda qo'llana olish darajasidir. Biz ona tilidan foydali bilimlar deb bolalarning savodli yozish, ijodiy fikrlash, fikr mahsulotini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish uchun xizmat qiladigan, ularni yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash va rivojlantirishni ta'minlaydigan bilimlarni tushunamiz.

2.Ta'lim mazmunining ikkinchi muhim tarkibiy qismini tanlangan ilmiy – nazariy bilimlarga muvofiq keladigan amaliy ko'nikma va malakalar tizimi tashkil etadi.

Dastur va darsliklar faqat o'quvchilarni ona tilidan bilishlari lozim bo'lgan til hodisalarini emas, balki ularning bajarishi lozim bo'lgan amaliy ko'nikma va malakalarni ham o'z ichiga olishi kerak.

Ona tili darslarida tilning grammatik qurilishini o'rganishga qaratiladi, ularning so'zdan to'g'ri va o'rinli foydalanish, so'z boyligini oshirish, fikrni bayon qilish ko'nikmalari chetda

qoladi. Shuning uchun ona tili dasturi o'quvchilarni ko'proq ana shu foydali amaliy ko'nikmalar bilan qurollantirishga yo'naltirish zarur.


3. Ta'lim mazmuni uchinchi tarkibiy qismi o'quvchilarni ijodiy faoliyat usullariga o'rgatishdir. Faoliyat qayta xotirlash, qisman ijodiy va ijodiy darajada bo'lishi mumkin.

Bu faoliyat o'qituvchi tomonidan yoki darslikda berilgan namunaga qarab aynan bajarishga asoslangan faoliyatdir. Bu jarayonda o'quvchilar izlanishga ehtiyoj sezmaydi. Shuning uchun darslikda har xil metodlardan foydalanish lozim.

Faollikni amalga oshirish uchun darsda olgan bilimlarri, olgan bilimlari asosida mashqlar ustida ishlay olishi, olgan bilimlarni hech qanday tashqi yordamsiz ijodiy qo'llay olishlari zarur. Bolaning ijodiy faoliyatiga qanchalik ko'p asoslansak, ta'limning samaradorlik darajasi shuncha yuqori bo'ladi.

4. Ta'limning to'rtinchi muhim tarkibiy qismi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar tizimidir. Bu munosabatlar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro hamkorlikka asoslangan bo'lmog'i lozim. Darsni mazmuni ochib berish bilan cheklanmay, uni qanday yetkazish kerakligini bilish zarur. Shundagina maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ta'lim mazmunining yuqorida sanab o'tilgan tarkibiy qismloari bir-biriga shu darajada aloqadorki, ularning biri bo'lmasa ikkinchisi ko'zlagan natija bermaydi. Ko'nikma va malakalarni shakllantirish bilimlar tizimi bilan bog'liq, ijodiy tajriba esa bilim, ko'nikma, malakalar asosida yuzaga chiqadi.



Ona tili dastur va darsliklarida keltirilgan har bir mavzu yuqorida sanab o'tilgan tarkibiy qismlarning har to'rttalasini ham qamrab olmog'i shart.

3. Davlat ta'lim standarti asosida o'quvchilar orfografiyadan egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti o'quvchilar umumta'lim tayyorgarligiga, saviyasiga qo'yilgan majburiy minimal darajani belgilab berdi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar ona tili bo'yicha quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari shart:

O'quv yili davomida 1-sinf o'quvchilari quyidagilarni bilishlari lozim: o'zbek alifbosidagi harflar nomini, unli va undosh tovushlarning belgilarini, jarangli va jarangsiz undosh tovushlarni, bo'g'in ko'chirish qoidalarini.

O'quvchilar quyidagilarni uddalay olishi kerak: matnni sinf taxtasi va darslikdan orfografik hushyorlik qoidalariga rioya qilgan holda chiroyli, to'g'ri ko'chira olishni, talaffuzga mos bo'lgan 25-30 so'zli matnni harf va bo'g'inlarni tushirib qoldirmay, oshiqchasini qo'shmay, o'rin-tushuncha beriladi va bu haqdagi badiiy boshqa matnlarni o'qish tavsifa etiladi.

2-sinf o'quvchilari o'quv yili oxirida quyidagilarni bilishlari lozim:

–so'zlar yordamida gap tuzish va uni yozishni, berilgan mavzuga oid gap tuza olishni;

–unli va undosh tovushlarni farqlay olishni, so'zni bo'g'inlarga to'g'ri bo'lishni;

O'quvchilar quyidagilarni uddalay olishlari kerak:

–so'zni, gapni va matnni harflarni tushirib qoldirmay, ortiqchasini qo'shmay, o'rni almashtirmay, orfografik hushyorlik qoidalariga rioya qilgan holda ko'chirib va eshitib to'g'ri yozish;

–4-5 bo'g'inli so'zning bir yo'lga sig'may qolgan qismini keyingi yoo'lga bo'g'inlab ko'chirish;

–*kitob, maktab, oftob, obod, oxod* kabi so'zlar oxirida kelgan b va d jarangli undosh tovushlarning jarangsiz jufti p va t eshitilsa ham yozilishini;

–*farzand, xursand, baxt, do'st* kabi o'quvchilar nutqida ko'p uchraydigan so'zlar oxirida kelgan d va t undoshlari talaffuzda tushib qolsa ham yozilishini;

–yonma-yon kelgan bir xil undosh bilan yoziladigan soʻzlarni, dasturda berilgan imlosi qiyin boʻlgan soʻzlarni toʻgʻri yozilishini;

–soʻzlarga soʻroq bera olishni va shu soʻz nimani bildirishini;

–kishilarning ismi-sharifini, hayvonlarga, shahar, qishloq, koʻcha, daryolarga qoʻyilgan nomlarni bosh harf bilan boshlab yozishni;

–gapning mazmun bildirishini, gapnin oxiriga nuqta, soʻroq va undov belgisi qoʻya olishni;

–gap kim? (kimlar?), nima? (nimalar?) haqida aytilganini bildirgan soʻzni, u haqda nima deyilganini bildirgan soʻzni aniqlay olishni;

–30-45 soʻzli matn yuzasidan soʻroq gaplardan tuzilgan tayyor reja asosida bayon yoza olishni;

–maʼlum bir mavzuga oid ikki-uch gap tuza olish va uni yozishni;

–rasmlar yordamida besh-olti gapli bogʻlanishli nutq (hikoya-insho) tuza olishni va uni maʼlum tayyorgarlikdan soʻng yoza olishni.

3–sinf oʻquvchilari oʻquv yili oxirida quyidagilarni bilishlari zarur:

–tovushlar va harflarni, unli va undosh tovushlarni, jarangli va jarangsiz tovushlarni bilish;

–sh, ch, ng birikmalarini boʻgʻin koʻchira olish qoidalarini;

–gap, gapning maqsadiga koʻra turlarini aniqlay olishi;

–gap boʻlaklari, bosh va ikkinchi darajali boʻlaklarni gapdan anigʻqlay bilishlari;

–soʻzlarni tarkibiga koʻra tahlil qilishi, soʻzni oʻzagini soʻz yasovchi qoʻshimchani, soʻz oʻzgartiruvchi qoʻshimchani aniqlay olishi va belgilashi, oʻzakdosh soʻzlarni boshqa soʻzlardan farqlay olishi;

–soʻz turkumlarini gaplarda ajrata olishi;

–ot soʻz turkumi, soʻroqlari (kim? nima?)ni toʻgʻri bera olishi;

–son va sonni soʻroqlar yordamida gapda ajrata olishi;

–sifat soʻz turkumi, uni gaplarda ajrata olishi;

–feʼl, feʼl soʻz turkumini gaplarda aniqlay olishi;

–yil oxirida 65–70 soʻzli matn yuzasidan tuzilgan reja asosida bayon yoza olishi;

4–sinf oʻquvchilari oʻquv yili oxirida quyidagilarni bilishlari zarur:

–sanʼat, dala, daraxt, tong, jiyda, shuhrat, choynak, fijdon shaklidagi soʻzlarni fonetik tahlil qilishni;

–soʻzlarni tarkibiga koʻra tahlil qilishni (soʻzning oʻzagini, soʻz yasovchi qoʻshimchani, soʻz oʻzgartiruvchi qoʻshimchani aniqlay olish va belilashni, oʻzakdosh soʻzlarni soʻzning boshqa shakllaridan farqlay olishni, ularning maʼnosini izohlay bilishni);

–matndagi yoki gaplardagi soʻzlarni turkumlarga ajrata olishni, ularni tahlil qila bilishni, otning soʻroqlarni uning shakliga qarab toʻgʻri bera bilishni, koʻplik va birlikda qoʻllashni, otlarni kelishik qoʻshimchalari bilan turlashni;

–olmoshni kelishiklar bilan turlashni, feʼlni boʻlishli va boʻlishsiz shaklda qoʻllashni, shaxs-son qoʻshimchalari bilan turlashni, uch zamonda oʻzgartirishni;

–bir xil shaklda boshqa-boshqa maʼno ifodalovchi soʻzlarni, maʼnosi yaqin va qarama-qarshi maʼnoli soʻzlarni, oʻrganilayotgan soʻz, soʻz birikmalarini gap va matn ichidan ajrata olishni, shunday soʻzlarni gap mazmuniga mos holda tanlay olish va qoʻllashni, ortiqcha takrorlaga yoʻl qoʻymaslikni, koʻp maʼnoli soʻzlar bilan birikmalar tuza olishni, ohandosh soʻzlar, bir mavzudagi soʻzlar guruhini tuzishni bilishi;

–gapni elementar sintaktik tahlil qilishni, maqsadga koʻra turini ajratishni, bosh va ikkinchi darajali boʻlaklarni soʻroqlar yordamida ajratishni, ularning oʻzaro bogʻlanishni soʻroqlar yordamida belgilashni, 90-100 soʻzli matn yuzasidan tuzilgan reja asosida bayon yozishni, hayotda boʻlgan ayrim voqealar, hodisalar, sayohat va kuzatishlar haqida kichik ogʻzaki hikoya tuzish va yozishni, ularda tasvir va muhokama elementlaridan foydalana olishni;

–nutq madaniyati bo'yicha gap-so'zlarni o'zlashtirishni, fikr ifodalash jarayonida qo'llashni: iltimos, ruxsat, minnatdorchilik, kechirim, uzr, taklif kabi muomala madaniyatini amalda qo'llashni;

–e'lon, salom xat, tabriknoma, tilxat kabilarni yozishni bilishlari zarur.

I. KIRISH.

Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'lim sohasining mazmuni va tarkibiy qismlari.

II. ASOSIY QISM.

I BOB:

1. Boshlang'ich ta'lim tizimida morfemik tahlilning nazariy asoslari

2. Boshlang'ich ta'limda morfemik tahlilning psixologik va metodik asoslari

II BOB.

1. Morfemik tahlilni amalga oshirishdagi lingvistik va psixologik xususiyatlar

“Prinsip” so'zi lotincha bo'lib, asos, qoida va talab singari ma'nolarni anglatadi.

“O'qitish prinsipi” deganda esa ta'lim jarayonini tashkil etish hamda o'quv darslari samaradorligini oshirishga qo'yilgan talab va qoidalarga tushuniladi.

O'zbek tilini o'qitish ishiga bag'ishlangan metodik qo'llanmalarda o'qitish prinsiplari ikkiga ajratiladi:

a) o'zbek tili o'qitishning umumdidaktik prinsiplari; b) o'zbek tili o'qitishning o'ziga xos prinsiplari.

O'zbek tili o'qitishning umumdidaktik prinsiplari

O'qitishning umumdidaktik prinsiplari maktabda o'qitiladigan barcha fanlar uchun umumiy sanaladi. Lekin har bir fan o'z xususiyatidan kelib chiqib umumdidaktik prinsiplarga yondashadi. O'zbek tili o'qitishda qo'llaniladigan umumdidaktik prinsiplar quyidagilar:

- ta'lim, tarbiya va rivojlanishning uyg'unligi prinsipi;
- ilmiylik va tushunarliklik prinsipi;
- sistemalilik va izchillik prinsipi;
- nazariyani amaliyotga bog'lash prinsipi;
- ongliklik, faollik va mustaqillik prinsiplari;
- ko'rgazmalilik prinsipi;
- o'quvchilar yoshi va shaxsiy xususiyatlari hamda o'quv imkoniyatlarini hisobga olish prinsipi.

Ta'lim, tarbiya va rivojlanishning uyg'unligi prinsipi. Ta'lim, tarbiya va rivojlanish tushunchalari o'zaro aloqador, bir – birini taqozo etadi. Ona tili fani avvalo ta'limiy xarakterga ega. O'quvchilar bu fan orqali tilning fonetikasi, leksikasi va grammatikasidan zaruriy bilimlarni egallaydilar. Ayni paytda ona tili o'quvchilar shaxsini tarbiyalashda ham katta o'rin tutadi. O'quvchilar til hodisalarini o'zlashtirish ustida mustaqil faoliyat yuritir ekanlar, ma'lum qiyinchiliklarga ham duch keladilar, uni yengib o'tish yo'llarini izlaydilar. Demak, o'quvchining

bilim darajasi oshibgina qolmay, irodasi ham toblanib boradi. Ona tili darsliklarida kiritilgan ma'rifiy matnlar ham o'quvchilar tarbiyasiga samarali ta'sir etadi. Bolalarning shaxsiy qobiliyatini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Ona tili darslarining samaradorligini ta'minlash uchun bu prinsiplarning uyg'unligiga alohida e'tibor berish kerak bo'ladi.

Ilmiylik va tushunarliklik prinsipi. Bu ikki prinsip ham o'zaro bog'langan va bir – birini taqozo etadi. Ma'lumki, ona tili fani orqali o'quvchilarga ilmiy jihatdan asoslangan tushunchalar beriladi. O'zbek tilshunosligi fanining so'nggi yutuqlari maktab darsliklarida o'quvchilar qobiliyatiga mos holda aks eta boshladi. Ona tili fani o'qituvchisi darslikdagi ilmiy talqin va tushunchalarni o'quvchilar ongiga singdirishda ham ilmiylik prinsipiga tayanadi. Ushbu prinsip o'z vaqtida tushunarliklikni talab etadi. O'quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim darajasini e'tiborga olgan holda o'quv materialidagi ilmiy tushunchalar soddalashtirilgan holda o'rgatiladi.

Sistemalilik va izchillik prinsipi. Maktab ona tili darsligi tilning fonetika, leksika, morfologiya va sintaksis sathlarini o'z ichiga oladi. Tilning bu sathlari bir – biriga aloqador bo'lgan bir butun sistemadir. O'quvchi tovush va harfni, uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganmay turib, so'z haqidagi ta'limot (leksika)ni o'zlashtira olmaydi. Leksikani yaxshi o'zlashtirgan o'quvchi esa morfologiyani o'rganishda qiynalmaydi. Tilning morfologiya bo'limi sintaksis bilan chambarchas bog'langan.

Tilning sathlari bir sistema ekan, ular ma'lum izchillikda, ketma – ketlikda o'rganiladi. Zero ona tili dastur va darsliklarini yaratishda ham ketma – ketlikka amal qilinadi. O'qitishning izchillik prinsipi o'quvchilarning til hodisalarini ma'lum tartibda o'zlashtirishlariga imkoniyat yaratadi. O'quvchilarning til haqidagi bilim, ko'nikma va malakalari sinfma – sinf boyib, rivojlanib boradi.

Nazariyani amaliyot bilan bog'lash prinsipi. Tildan egallangan nazariy tushunchalar amaliyotga bog'lanmas ekan, hech qanday ijobiy natija bermaydi. Hozirgi kunda ona tili ta'limi oldida egallangan til hodisalarini o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini shakllantirish uchun xizmat qildirishdek muhim vazifa turibdi. Maktabni tugatgan har bir o'quvchi o'z fikrini to'g'ri va chiroyli ifodalab bera olish malakasiga ega bo'lishi kerak. Bu ish, shubhasiz, ona tili ta'limi orqali amalga oshadi.

Ona tili darslarida o'rganiladigan til hodisalarini hayotiy misollar bilan boyitib borish talab etiladi. Ayniqsa, o'quvchilar tomonidan yaratiladigan mustaqil matnlar, ona tili darslarida yoziladigan bayon va insholar nazariy bilimlarni amalda qo'llash imkonini beradi.

Onglilik, faollik va mustaqillik prinsiplari. Onglilik deganda o'rganiladigan til hodisasining mohiyatini chuqur anglab egallash tushuniladi. Ona tilidan o'rganiladigan o'quv materiallarini ongli o'zlashtirilishi uchun o'qituvchi va o'quvchi oldiga bir qator talablar qo'yildi:

- o'rganiladigan o'quv materialini bolalarning yosh xususiyati va bilim darajasiga mos bo'lishi;
- o'rganilayotgan o'quv materialini oldin o'rganilgan o'quv materialini to'ldirishi, ularning uzviy bog'liqligi;
- o'rganilayotgan til hodisasi bo'yicha hayotiy misollarga katta o'rin berish, ko'proq o'quvchilar topgan misollardan foydalanish;
- o'quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyat yuritishlariga qaratilgan mashqlar hamda matnlardan foydalanish;
- dars mashg'ulotlarini ma'lum izchillikda, sistemada olib borish;
- turli tarqatma materiallar, ko'rgazmali qurol va texnik vositalardan foydalanish.

Ma'lumki, onglilik faollikni talab etadi. O'quvchilar mustaqil ijodiy faoliyat yuritishiga o'quv materialini ongli o'zlashtira oladilar. Har bir darsda o'quvchining mustaqilijodiy faoliyat yuritishiga keng yo'l ochib berilsagina ta'limda muhim samaralarga erishish mumkin.

Ko'rgazmalilik prinsipi. Ona tili darslarini ko'rgazmali qurollarsiz tasavvur etish qiyin. Har qanday til hodisasini o'rganayotganda ko'rgazmalilikdan foydalanish mumkin. Ona tili kursining quyi bosqichlarida ko'rgazmali vositalardan ko'proq foydalaniladi.

Ona tili darslarida tabiiy yoki aniq buyumlar, grafik materiallar, tasviriy san'at, musiqa, kino, televidenie vositalari ko'rgazmali qurol vazifasini o'tay oladi. Xalqimizda "ming marta eshitgandan bir marta ko'rgan afzal" degan naql mavjud. O'quvchi o'z ko'zi bilan ko'rgan narsasini uzoq vaqt xotirasida saqlab qoladi. Ona tili darslarida esa ko'rib turgan narsasi bo'yicha ma'lum bir til hodisasi ustida ishlaydi.

Ko'rgazmali qurollardan barcha darslarda, darsning turli bosqichlarida foydalanish mumkin. Shunday ekan, ona tili kabinetlarida barcha turdagi ko'rgazmali qurollarning bo'lishiga erishish kerak bo'ladi.

O'quvchilarning yoshi va shaxsiy xususiyatlari hamda o'quv imkoniyatlarini hisobga olish prinsipi. Bu prinsip ham muhim umumdidaktik prinsiplar qatoriga kiradi. Unga amal qilinsagina o'quvchilarning til hodisalarini puxta va ongli o'zlashtirishlariga erishish mumkin.

Ma'lumki, ona tili darsliklari o'quvchilarning yoshi va shaxsiy xususiyatlari hamda o'quv imkoniyatlari hisobga olingan holda yaratilgan. Masalan, boshlang'ich sinflarning ona tili darsliklarida ko'proq sodda o'quv materiallari berilgan. Bundan tashqari bu yoshdagi o'quvchilardan ko'rgan va eshitganlari xususida fikr yuritish talab etiladi. O'quvchilarning yoshi ulg'ayib, yuqori sinflarga o'tgan sayin mavzular murakkablasha boradi. Bu murakkab o'quv materiallarini o'zlashtirish uchun o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari ham, o'quv imkoniyatlari ham etarli hisoblanadi. Shuning uchun 8 – 9 – sinf o'quvchilari eshitmagan va ko'rmagan voqea – hodisalar xususida ham fikr yuritiladi.

Ona tili darslarida bu prinsipga amal qilishda bir sinfdagi o'quvchilarning o'quv imkoniyati barobar emasligiga ham e'tibor berishga to'g'ri keladi. Umuman olganda, bu prinsipga qat'iy amal qilish bir qator afzalliklarga ham ega:

- o'qituvchi o'quv imkoniyatidan kelib chiqqan holda darslik va qo'shimcha o'quv materiallardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi;

- ona tili o'qitishning metod va usullarini, dars shakllarini to'g'ri tanlashga yordam beradi;

- o'quv imkoniyatini bilish tabaqalashtirilgan ta'limdan foydalanish uchun ham qo'l keladi.

O'zbek tili o'qitishning o'ziga xos prinsiplari

Maktabda ona tili o'qitishda umumdidaktik prinsiplarga amal qilish bilan birgalikda, fanning ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib, qo'llaniladigan prinsiplar ham mavjuddir. Bu prinsiplar o'zbek tili o'qitishning o'ziga xos prinsiplari deb yuritiladi va unga quyidagilar kiradi:

- o'quvchilar tafakkurining o'sishiga erishish prinsipi;

- ona tili kursi bo'limlari orasidagi bog'lanish hamda ona tilining boshqa fanlar bilan aloqasini ta'minlash prinsipi;

- o'quvchilarni til hodisalarini ajratishga o'rgatish prinsipi;

- mahalliy sheva sharoiti va ta'sirini nazarda tutish prinsipi.

O'quvchilar tafakkurining o'sishiga erishish prinsipi. Tafakkur voqelikning ongli aks etish jarayonidir. Ona tili darslarida til hodisalarini kuzatish, taqqoslash, tahlil etish, umumlashtirish va guruhlariga ajratish singari aqliy faoliyat usullari orqali o'quvchilar tafakkurini o'stirish mumkin bo'ladi.

O'quvchilar ijodiy izlanishi va mustaqil faoliyat yuritishiga qaratilgan har qanday topshiriq ular tafakkurining o'sishiga ko'maklashishi shubhasiz.

Ona tili kursi bo'limlari orasidagi bog'lanish hamda ona tilining boshqa fanlar bilan aloqasini ta'minlash prinsipi. O'quvchi ona tilini o'qish jarayonida tilning fonetika, leksika va grammatika bo'limlaridan zaruriy bilim, ko'nikma hamda malakalarga ega bo'ladi. Tilning bu bo'limlari esa o'zaro aloqador, bir – biri bilan uzviy bog'liqdir. Leksikologiya bo'limi mavzulari

o'rganilayotganda fonetikadan o'zlashtirilgan bilimlar qo'l keladi. Masalan, to'rt – tort so'zlarining shaklan va mazmunan farqlanishi ustida ishlayotganda so'z ma'nosi va shaklini farqlovchi hodisa "o'" va "o" unlilari ekanligini o'quvchi oson aniqlaydi. Yoki sintaksisda so'zlarning gap bo'lagi vazifasida kelishi ustida ishlayotganda leksikologiya va morfologiyada o'zlashtirilgan bilimlar qayta esga olinadi.

Ona tili darslarida yangi o'zlashtirilayotgan o'quv materialini o'tayotganda ham oldin o'tilgan mavzularga murojaat qilinadi. Metodik adabiyotlarda ona tili fani ichidagi bog'lanishni ikki turga bo'ladi:

1) Yuqoridan pastga qarab bog'lanish. Bunda o'rganilayotgan o'quv materialini avval o'rganilgan o'quv materialiga bog'lanadi.

2) Pastdan yuqoriga qarab bog'lanish. O'rganilayotgan o'quv materialini keyin o'rganiladigan o'quv materialiga bog'lanadi.

Ona tili fanini boshqa fanlar bilan aloqasini ta'minlash muhim metodik talab sanaladi. Zero, ona tili ko'plab fanlarni yaxshi o'zlashtirish uchun kalit vazifasini o'taydi. Til hodisalarini yaxshi o'zlashtirgan o'quvchi boshqa fanlardan ham puxta bilimga ega bo'ladi. Ona tili fani tarix, adabiyot, jug'rofiya va boshqa bir qator aniq fanlar bilan aloqadordir. Bu fanlarning bog'lanishi metodik adabiyotlarda uch guruhga ajratiladi:

a) genetik bog'lanish; b) qiyosiy bog'lanish; v) vazifaviy bog'lanish.

O'quvchilarni til hodisalarini ajratishga o'rgatish prinsipi. Bu prinsip ona tili o'qitishning o'ziga xos muhim prinsiplaridan sanalib, til hodisalarini ajrata bilmaslik o'quvchilarning xatoliklarga yo'l qo'yishiga olib keladi. Ma'lumki, tilda o'xshash va noo'xshash hodisalar mavjud. O'quvchilar ona tilini o'rganish jarayonida ularni farqlashga o'rgana boradi. Masalan, fonetikada unli va undosh, tovush va harf, jarangli undosh va jarangsiz undosh; morfologiyada turlanish va tuslanish, egalik va shaxs – son singari hodisalarni farqlamaslik natijasida o'quvchilar chalkash xulosalarga kelishi mumkin.

Til hodisalarining mohiyatini anglab etgan o'quvchigina ularni to'g'ri ajrata oladi. Shuning uchun ta'rif va qoidalar, atamalarning izohini to'g'ri o'zlashtirishga erishish kerak.

Mahalliy sheva sharoiti va ta'sirini nazarda tutish prinsipi. O'zbek tili ko'p shevali til bo'lib, shevaning ta'siri bolalar nutqida yaqqol ko'zga tashlanib turadi. O'zbek tili shevalarida ma'lum bir so'z fonetik, leksik va morfologik jihatdan farq qiladi. O'quvchilar so'zni orfografik qoidalar asosida yozishga ba'zan qiynalib qoladi. Shuning uchun ham ona tili mashg'ulotlarida mahalliy sheva sharoiti va ta'sirini hamisha e'tiborga olib borishga to'g'ri keladi.

O'quvchilarni mahalliy sheva ta'siridan qutqazish uchun ona tili darslarida qator ta'limiy ishlarni olib borish mumkin. So'zning dialektal shakli bilan adabiy shaklini o'zaro qiyoslash, dialektal lug'at tuzish, o'quvchilar nutqini magnitofon lentasiga yozib qayta eshittirish va tahlil etish singari ishlar shular jumlasidandir.

Xulosa qilib aytganda, ta'limning barcha prinsiplari o'zaro bog'liq bo'lib, ularga qat'iy amal qilish kerak.

2. Morfemik tahlilga oid uslubiy ishlar tizimi

"Metod" yunoncha so'z bo'lib, tadqiqot yoki bilish yo'li degan ma'nolarni anglatadi. Falsafa va pedagogika fanlarida bu atama keng qo'llanilib, boshqa – boshqa ma'nolarni bildiradi. Falsafada tabiat va jamiyat hodisalarini kuzatish hamda voqelikka ilmiy nuqtai nazardan yondashish metod deb yuritilsa, pedagogikada o'quvchilarni zarur bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish yo'l hamda usullari shu nom bilan yuritiladi.

O'qitish metodlarining umumdidaktik tasnifi. O'qitish metodlari masalasi bilan didakt olimlar ko'pdan buyon shug'ullanib keladilar. Jahon didaktlari orasida o'qitish metodlarining turlicha tasniflari uchraydi. Ular ichida quyidagi to'rt guruh olimlarining tasnifi alohida ajralib turadi.

S. I. Perovskiy va E. Y. Golant singari olimlar ta'lim metodlarini bilim olish manbaidan kelib chiqib tasnif etadilar. Ular tasnifiga ko'ra ta'lim metodlari og'zaki, ko'rsatmali va amaliy singari metodlarga ajraladi.

M. A. Danilov va B. P. Esipov singari didakt olimlar darslarda bajariladigan o'quv vazifasini mezon qilib oladilar va o'qitish metodlarini bilimlarni egallash, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, egallangan bilimlarni mustahkamlash, malaka va ko'nikmalarni tekshirish hamda baholash singari to'rt guruhga ajratadilar.

Mashhur didakt olim Y. K. Babinskiyning ta'lim metodlari tasnifiga bag'ishlangan ishlarida o'qitish metodlari uch katta guruhga ajratilganini ko'rish mumkin:

- a) o'quvchilarning o'quv – biluv faoliyatini tashkil etish metodlari;
- b) o'quvchilarning o'quv – biluv faoliyatini rag'atlantirish metodlari;
- e) o'quvchilarning o'quv – biluv faoliyatini nazorat qilish metodlari.

M. N. Skatkin va I. Y. Lernerlarning tasnifi yuqoridagi tasniflarga nisbatan eng mukammali deb baholanadi. Bu didakt olimlar o'qitish metodlarini bilish faoliyatining o'ziga xos jihatlaridan kelib chiqqan holda tasniflaydilar. Ular quyidagi besh ta'lim metodini ajratganlar:

- a) tushuntirish – namoyish etish metodi;
- b) qayta xotirlash metodi;
- e) muammoli bayon metodi;
- f) qisman izlanuvchanlik metodi;
- g) tadqiqot metodi.

O'qitish metodlarining bu tasnifida o'quvchilar faoliyatidagi izlanuvchanlik unsurlariga alohida e'tibor berilgan. Darsda muammo qo'yish va uning yechimini o'quvchilarning o'zi izlab topishi kerakligi inobatga olingan.

O'zbek tili o'qitish metodlari tasnifi. Maktabda ona tilini qanday yo'l hamda usullar bilan o'qitish masalasi hali etralicha ishlab chiqilmagan. Shunday bo'lsa – da, bu sohada amalga oshirilgan ayrim ishlarni ta'kidlab o'tish o'rinlidir. 1975 yilda chop etilgan "O'zbek tili o'qitish metodikasi" qo'llanmasida ona tili o'qitishning quyidagi metodlari qayd etilgan: a) o'qituvchining bayoni; b) suhbat; d) til hodisalarini kuzatish va tahlil etish; e) grammatik tahlil; f) mashq; h) darslik ustida ishlash; i) ko'rgazmali qurollardan foydalanish; k) sayohat.

Keyingi yillarda ona tili o'qitish metodikasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasi o'laroq ta'lim metodlariga ham boshqacha yondashishlar ro'y berdi. Professor Asqar G'ulomovning shu sohaga bag'ishlangan ishlarida ona tili o'qitish metodlari tasnifi uchun rus metodist – olimasi T. V. Napalnovaning ishlari maqbul deb qaralgani ta'kidlanadi. Bu olimasi ona tili o'qitish metodlarini dastlab ikki katta guruhga ajratadi: a) o'quvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar; b) o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar.

Ko'rinadiki, olimasi dars jarayoni o'qituvchi va o'quvchi faoliyati bilan bog'liq ikki tomonlama jarayon ekanligiga diqqat qildi, ta'lim metodlarini belgilashda bunga e'tibor berish lozimligini anglab yetdi.

Professor A. G'ulomov olimaning tasnifidan o'zbek tilini o'qitishda ham foydalanish mumkinligini yozadi. Shundan kelib chiqib, o'zbek tili o'qitishda qo'llaniladigan metodlar ikki guruhga ajratildi: a) o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar; b) o'quvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar.

O'qituvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar. O'qituvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar o'z navbatida quyidagi ikki turga bo'linadi: a) bilimlarni tayyor holda bayon qilish metodi; b) bilimlarni muammoli yo'l bilan bayon qilish metodi.

Bilimlarni tayyor holda bayon qilish metodi ona tili darslarida keng qo'llanilib kelingan metodlardan sanaladi. Bu metodda o'rganilayotgan o'quv materiali o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi. Murakkab mavzularni o'rganishda bunday metoddan foydalanish samarali bo'lishi aniq. Bu metodning ijobiy va salbiy jihatlar mavjud. Ijobiy tomoni shundaki, bu metod

qo'llangan darslarda vaqt tejiladi. Qisqa vaqtda katta hajmdagi o'quv materiali bilan tanishish imkoniyati bor. Salbiy tomoni esa o'quvchilarning passiv tinglovchiga aylanib qolishidir, chunki bu metodda o'quvchilarning fikrlash faoliyati chegaralanadi. Ilg'or o'qituvchilar bayon metodida o'tilgan darslarni ham samarali tashkil etish tadbirlarini ko'radilar. O'qituvchi o'z nutqini sodda, mazmunli, ifodali va izchil bo'lishi uchun kurashadi. O'quv materiallarini reja asosida o'tishga harakat qiladi. O'quvchilarning diqqatini jalb etish, hushyorligini oshirish, til hodisalarini oson o'zlashtirishga erishish maqsadida aytilayotgan fikr hamda xulosalar misollar asosida dalillanadi. Bunda hayotiy misollarga e'tibor berish yanada yaxshiroq samara beradi.

Bilimlarni muammoli yo'l bilan bayon qilish metodida o'quvchi qo'yilgan muammoning yechimini topish yo'lida mustaqil izlanadilar. Mustaqil faoliyat orqali o'zlashtirilgan bilim esa o'chmasdir.

Muammoli ta'lim didakt olimlar ishlarida o'z aksini topganini yuqorida ko'rdik. SHarq ta'lim tizimida esa uning tarixi uzoqlarga borib taqaladi. Abu Ali ibn Sinoning "Donishnoma" asarida qiyinchiliklarni engish orqali bilimlarni egallashning afzalliklari haqida fikr yuritilsa, Umar Xayyomning "Matematik traktatlar" asarida esa bilish uchun fikrlash kerakligi haqida so'z yuritiladi. Rossiyada bunday g'oyalar XIX asrning 70 – yillaridagina paydo bo'lgan edi.

Professor A. G'ulomovning ishlarida muammoli vaziyat yaratishning bir qator usullari borligi va ulardan ona tili darslarida samarali foydalanish mumkinligi haqida gap boradi. Quyida olim tavsiya etgan ayrim usullar haqida fikr yuritamiz.

Tilga oid dalillarni tahlil qilish asosida muammoli vaziyat yaratish. Tilga oid dalillarni tahlil qilishdan oldin u o'quvchi tomonidan kuzatilishi darkor. Masalan, 5 – sinfda "Paronimlar" mavzusi o'rganilayotganda berilgan so'z juftlarining farqini, bu farqni hosil qiluvchi vositani topish muammosi qo'yiladi.

O'quvchilar afzal – abzal, fol – pol, bob – bop, tub – tup singari so'zlarni berilgan topshiriq asosida tahlil etadilar. O'quvchi bu so'zlarning bir so'z emasligini isbotlash uchun ularning har biriga ma'nodosh yoki uyadoshlar topishi, ularga misollar keltirishi ham mumkin.

Til hodisalarini qarama – qarshi qo'yish va taqqoslash asosida muammoli vaziyat yaratish. O'xshash va farqli til hodisalarini ajratishda bu usul qo'l keladi. "So'z birikmasi" mavzusi o'rganilayotganda berilgan juftliklar o'zaro taqqoslanishi va farqlanishi talab etiladi: Oqsaroy – oq saroy, paxtaguli – paxtaning guli, moychiroq – chiroq moyi, gulko'rpa – ko'rpaning guli.

O'quvchilar til birliklarini qiyoslar ekanlar juftlikdagi qaysi birlik so'z birikmasi ekanligini aniqlaydi. O'z juftidan qanday farqlanishini aytadi.

Til hodisalarini umumlashtirish orqali muammoli vaziyat yaratish. Induktiv usuldagi ta'limda til hodisalarini o'zlashtirish kuzatish, tahlil, taqqoslash, guruhlash va umumlashtirish singari aqliy faoliyat orqali amalga oshiriladi. O'quvchi uchun noma'lum bo'lgan til hodisasi bo'yicha avval kuzatish va tahlillar uchun berilgan matn ustida ish olib boriladi. Ba'zan bir matn bo'yicha ikki yoki uch bosqichli amaliy ishlar olib borilishi mumkin. Amaliy ishlar so'nggida o'quvchi xulosaga keladi.

O'quvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar

Ushbu metod uch guruhga ajratiladi:

- qayta xotirlashga asoslangan metodlar;
- qisman izlanuvchanlik metodlari;
- izlanishga asoslangan metodlar.

Qayta xotirlashga asoslangan metod o'quvchi oldida muayyan qiyinchilik tug'dirmaydi, chunki o'rganilayotgan o'quv materiali o'quvchiga tanish bo'ladi. Ona tili darslarida bajarilayotgan ko'chirib yozish, izohli yozuv, saylanma diktant, grammatik tahlillar, she'riy matnni nasriy matnga aylantirish singari ishlar o'quvchilarda o'zlashtirilgan bilimlarni xotirada tiklashni talab etadi.

Qisman izlanuvchanlik metodida ham qayta xotirlash asosiy o'rin egallasa-da, shu

bilimlarga tayanib uni yangi sharoitlarda qo'llash talab etiladi. Bu metod quyidagi o'quv topshiriqlari bo'lgan darslarda keng qo'llaniladi. Nuqtalar o'rniga kerakli harflar yoki qo'shimchalar qo'yib yozish; matndagi so'zni uning uyadoshi, ma'nodoshi bilan almashtirish; gap yoki matnning mazmunini saqlagan holda shaklini o'zgartirish; tayanch so'zlar vositasida so'z birikmasi va gap tuzish kabi.

Izlanishga asoslangan metodda o'quvchi mustaqil izlanadi, ijodiy faoliyat yuritadi. Insho, badiiy asarga taqriz yozish, maqola, referat va ilmiy ma'ruzalar yozishda bu metoddan keng foydalaniladi.

B. To'xliyev, M. Shamsharovalarning "O'zbek tili o'qitish metodikasi" (2006) o'quv qo'llanmasida esa ona tili o'qitish metodlari quyidagicha belgilanadi:

1. Tayyor bilimlar bilan qurollantirish metodi.

2. Yo'naltiruvchi ta'lim metodi.

3. Muammoli ta'lim metodi.

4. Ongli – verbal – kognitiv ta'lim metodi. Ushbu ta'lim metodi kashfiyot ta'lim metodi deb ham yuritiladi.

III BOB.

1. Morfemik tahlilga oid mashqlar.

nm Maktab grammatikasida so'z tarkibi asos va qo'shimchalar, qo'shimchalarning tasnifi singari masalalar morfologiya tarkibida o'rganiladi. O'quvchilar so'z tarkibi haqidagi mavzuni o'rganishdan oldin morfologiyaga kirish mavzusini o'rganish jarayonida so'zning grammatik ma'nosi nima ekanligini yaxshi o'zlashtirganlar. Shu tufayli ular kuzatishda berilgan ishni, ishchi, ishla, ishsiz, ishga so'zlarini ma'noli qismlarga ajratish, so'zlar uchun umumiy bo'lgan qismni topish bo'yicha amaliy ishni bajaradilar. O'quvchilar bu amaliy ish natijasida so'zlar uchun asos bo'lgan qism – ish so'zi ekanligini anglab yetsalar, keyingi amaliy ish tahlili natijasida esa (suvchi, ishchi, omborchi, traktorchi, kombaynchi) so'zlarni qo'shimchasi bir xil (-chi) ekanligini aniqlaydilar.

Mavzu bo'yicha berilgan mashqlarda so'zlarning tarkibini aniqlash, nuqtalar o'rniga kerakli qo'shimchalarni qo'yib, so'zlar ma'nosida bo'layotgan o'zgarishlarni izohlash, ikki guruhga bo'lingan holda "Kim eng ko'p so'z topa oladi?" musobaqasini (44 - mashq) o'tkazish bo'yicha musobalashish singari amaliy ishlarni bajaradilar.

Keyingi dars asos va qo'shimchalar mavzusiga bag'ishlangan. Ushbu mavzuni o'rganish uchun quyidagi tartibda amaliy ishlarni bajarish ko'zda tutiladi:

- berilgan so'zlarni ma'noli qismlarga ajratish asosida mustaqil qo'llash mumkin bo'lgan qismni aniqlash;

- ajratib ko'rsatilgan so'zlarni ma'noli qismlarga ajratish, asos va qo'shimchalarni aniqlash;

- so'zlarni ikki guruhga ajratish; birinchi guruhga yangi ma'no beruvchi, ikkinchi guruhga qo'shimcha ma'no yuklovchi qo'shimchali so'zlarni yozish;

- nuqtalar o'rniga zarur qo'shimchalardan mosini qo'yib yozish;

- asos va qo'shimchalarning qoidasini chiqarish.

"Qo'shimchalar tasnifi" mavzusi o'rganilayotganda asosiy e'tibor so'z yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalarni to'g'ri ajrata olishga qaratiladi. Shuning uchun ham mavzu yuzasidan berilgan mashqlar sirasiga ajratib ko'rsatilgan qo'shimchalarning turini aniqlash singari ishlar kiradi. O'quvchilar qo'shimchalarning so'z yasovchi, shakl yasovchi singari ikki guruhga bo'linishini yaxshi o'zlashtirib olgach, bu qo'shimchalar alohida mavzularda o'rganishga kirishiladi.

So'z yasovchi qo'shimchalar o'rganilayotganda:

- olcha, o'zbek, iroda singari so'zlarga –zor, - iston, - li singari qo'shimchalarni qo'shib yangi so'z yasash;

- matndan soʻz yasovchi qoʻshimchalarni topish;
- li, - siz, - dosh, - chi, - illa, - la qoʻshimchalari yordamida soʻzlar yasash, ular ishtirokida gap tuzish;
- soʻz yasovchi qoʻshimchalarni izohlash singari amaliy ishlarni bajarishlariga toʻgʻri keladi. Oʻquvchilar mustaqil amaliy ishlarni bajarar ekanlar, keyingi darsda oʻtiladigan tub va yasama soʻzlar mavzusini oʻzlashtirishda qiynalmaydilar. Bu mavzu oʻrganilayotganda oʻquvchilarga berilgan soʻzlardan tub va yasama soʻzlarni ajratish boʻyicha bir qator ishlar bajarilishi koʻzda tutilgan.

Oʻquvchilar egallashi kerak boʻlgan bilimlardan biri shakl yasovchi qoʻshimchalardir. Ushbu mavzu oʻrganilayotganda ham soʻzlarni maʼnoli qismlarga ajratish boʻyicha oldingi darslarda bajarilgan amaliy ishlar davom ettiriladi. Oʻquvchilar avvalgi darslarda asosga qoʻshilgan qoʻshimcha soʻzning maʼnosini tubdan oʻzgartirib, yangi maʼnoli soʻz hosil qilsa, soʻz yasovchi qoʻshimcha ekanligini bilib olganlar. Bu bilim shakl yasovchi qoʻshimchalarni soʻz yasovchi qoʻshimchalardan farqlashga qoʻl keladi. Tahlil uchun berilgan mashqlar boʻyicha bajariladigan ishlar soʻzlar tarkibidagi shakl yasovchi qoʻshimchalarni ajratishga qaratilgan boʻlib, oʻquvchilar bu topshiriqlarni bajara borib, asosga qoʻshilib, uning maʼnosiga qoʻshimcha maʼno yuklash yoki oʻzi qoʻshilayotgan soʻzni boshqa soʻzga bogʻlash vazifasini bajaruvchi qoʻshimchalar shakl yasovchi qoʻshimcha ekanligi haqidagi qatʼiy xulosaga keladilar.

Shakl yasovchi qoʻshimchalarning lugʻaviy shakl yasovchi hamda sintaktik shakl yasovchi singari ikki guruhga boʻlinishini oʻzlashtirish ham asosiy vazifalardan sanaladi. Oʻquvchilar asosga qoʻshilib, uning maʼnosiga qoʻshimcha maʼno yuklovchi qoʻshimchalar lugʻaviy shakl yasovchi qoʻshimchalar ekanligini, oʻzi qoʻshilayotgan soʻzni boshqasiga bogʻlash vazifasini bajaruvchi qoʻshimchalar sintaktik shakl yasovchi qoʻshimchalar yoki munosabat shakllari deyilishini yaxshi oʻzlashtirishlari kerak.

Ushbu mavzu yuzasidan oʻquvchilar matn tarkibidagi soʻzlardan lugʻaviy shakl yasovchi qoʻshimchali soʻzlarni aniqlash, nuqtalar oʻrniga mos qoʻshimchalarni qoʻyib gaplarni koʻchirib yozish, berilgan qoʻshimchalarni lugʻaviy va sintaktik shakl yasovchilar singari ikki guruhga ajratish kabi bir qator amaliy ishlarni bajaradilar.

Soʻz tarkibida tartib masalasi ham oʻquvchilar oʻzlashtirishlari kerak boʻlgan bilimlar sirasiga kiradi. Ushbu mavzu oʻquvchilarni asos, qoʻshimcha va ularning turlari boʻyicha egallagan bilimlarini sarhisob qilishga xizmat qiladi. Oʻquvchilar mavzuni oʻzlashtirishga kirishar ekanlar, kuzatishda berilgan yigitcha, siyohdoni, qalamcha, mashinasozlik, ipakchilikdan, bilimdonlar, zakovatli, kitobim singari soʻzlarni maʼnoli qismlarga ajratadilar va asos, soʻz yasovchi, lugʻaviy shakl yasovchi, sintaktik shakl yasovchi singari turlarga boʻladilar. Keyingi amaliy ishlar nuqtalar oʻrniga qoʻshimchalarning mosini qoʻyib yozish, ajratib koʻrsatilgan soʻzlarni asos va qoʻshimchalarga ajratish boʻyicha olib boriladi.

Bajarilgan ishlar natijasida soʻzning maʼnoli qismlari maʼlum tartibga ega ekanligi, ularning joylashuvi: asos + soʻz yasovchi + lugʻaviy shakl yasovchi + sintaktik shakl yasovchi tartibida ekanligi haqida xulosaga kelinadi.

2. Morfemik tahlilni amalga oshirishda didaktik oʻyinlar.

OʻTOʻM fani boʻyicha olib borilgan soʻnggi tadqiqotlar natijasida darslarning maqsadi va tuzilishiga asoslanib, ona tili darslarining ikki turi ajratib kelinmoqda:

- Taʼlimiy darslar;
- Nazorat darslari.

Ona tili darslarining bunday ikki turga ajratilishi nisbiy xarakterga ega. Zero, nazorat darslari ham taʼlimiy xarakterga ega boʻlib, faqat maqsadi nuqtai nazaridan farqlanishi mumkin.

Taʼlimiy darslar ona tili hodisalarini oʻquvchilar ongiga singdirish, ularning bilim, koʻnikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan boʻlib, bu dars turi quyidagi toʻrt turga boʻlinadi:

- Yangi bilim berish darslari.
- Ko'nikma va malakalarni shakllantirish darslari.
- O'rganilganlarni takrorlash darslari.
- Xatolar ustida ishlash darslari.

Yangi bilim berish darslarida o'quvchilarga yangi bilim berish ko'zda tutiladi. Bu dars turi bilimlarni tayyor holda bayon qilish emas, balki o'quvchilar o'rganilayotgan yangi til unsurlarini ijodiy yo'l bilan egallashlari shart qilib qo'yilgan dars turidir. Demak, ona tili o'qituvchisi yangi bilimlarni o'rganishni asosiy muammo tarzida qo'yadi. O'quvchilar muammoning yechimini topish yo'lida mustaqil ijodiy faoliyat yuritadilar.

Yangi bilim berish darslarida ham oldin o'rganilgan mavzu bo'yicha suhbat, uy vazifasini tekshirish, darsni xulosalash, yangi uy vazifasi berish singari jarayonlar mavjud bo'ladi. Dars uchun ajratilgan asosiy vaqt yangi bilim berishga ajratilishi talab etiladi.

Ona tili darslarida keng qo'llanilib kelinayotgan ta'limiy dars turlaridan yana biri ko'nikma va malakalarni shakllantirish darslaridir. Bunday darslar odatda hajm jihatdan katta mavzular o'rganib bo'lingach o'tkaziladi. O'quvchilarning qayta xotirlash va qisman izlanuvchanlik faoliyati bu darslarda asosiy o'rin tutadi.

Ona tili datur va darsliklarida takrorlash darslari uchun alohida soat ajratilgan. Bu dars turi o'quv yili boshida yoki oxirida, til bo'limlari yoki yirik mavzular o'rganib bo'lingach o'tkaziladi. Masalan, 5 – sinf ona tili darsligida o'quv yili boshida takrorlash uchun 10 soat vaqt ajratilgan bo'lib, boshlang'ich sinfda fonetika, leksikologiya va punktuatsiyadan egallangan bilimlarni qayta xotirlashga qaratilgan. O'quv yili oxirida esa yil davomida o'rganilgan o'quv materiallarini takrorlash uchun 13 ta mavzu (soat) berilgan. O'quv yili oxirida o'tkaziladigan takrorlash darslarini "Topqirlar bellashuvi" o'yin - musobaqasi asosida tashkil etish ham mumkin.

Takrorlash darslari faqat o'rganilgan bilimlarni sarhisob qilish, o'quvchilarning qanday o'zlashtirganini aniqlashdangina iborat bo'lib qolmay, o'quvchilarning bo'sh tomonlarini ham topishga yordam beradigan dars turidir.

O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqida yo'l qo'yayotgan xatolari ustida ishlash maqsadida xatolar ustida ishlash darslari tashkil etiladi. O'quvchilarning yozma nutqidagi xatolarini aniqlash uchun yozma ishning bir qator turlari – diktant, bayon, insholardan foydalaniladi. Olingan yozma ishlar o'qituvchi tomonidan tekshiriladi va baholanadi. Hozirgi kunda maktab amaliyotida o'qituvchilar xatolarni ko'rsatishning ikki usulidan foydalanib kelishmoqda. Ularning biri xatoni tuzatib ko'rsatish bo'lsa, ikkinchisi xato haqida xabar berishdir. Birinchi usulda xato yozilgan orfogramma qizil ruchka bilan chizilib ustiga to'g'rilangan harf yoziladi. Hoshiyada esa xatolar turi va soni qayd etiladi. Xatolarni tuzatishning ikkinchi yo'lidan tajribali o'qituvchilar foydalanadilar. Bunda "a'lo" baholarda o'qiydigan o'quvchilarning yozma ishida xato bor satr hoshiyasida maxsus belgi qo'yiladi. Bu belgi so'roq (?) yoki "x" (xato) belgilaridan biri bo'lishi mumkin. O'quvchi o'z xatosini o'zi topishi kerak. "O'rtacha" o'qiydigan bolalarning yozma ishlarida xato yozilgan so'z tagiga bir chiziq chiziladi. O'quvchining o'zi shu so'zda xato borligini anglaydi va tuzatadi. Past o'zlashtiruvchi o'quvchining yozma ishida xato yozilgan orfogrammaning ostiga chiziladi.

O'quvchilarning og'zaki nutqida yo'l qo'yadigan xatolari ustida ishlash ancha murakkab. Shunday bo'lsa-da, tashabbuskor o'qituvchilar o'quvchilar nutqini magnitofonga yozib, ularning xatosi ustida ishlash choralarini ko'radilar.

O'quvchilarning o'quv materialini qanday o'zlashtirganini aniqlash maqsadida ona tilidan nazorat darslari ham o'tkazilib turiladi. Nazorat darslari o'z navbatida quyidagi uch turga bo'linadi:

- Til hodisalarini o'zlashtirganlik darajasi ustidan nazorat.
- O'quvchilarning imloviy va punktuatsion savodxonligi ustidan nazorat.
- Nutqiy malakalarning egallaganlik darajasi ustidan nazorat.

Til hodisalarini o'zlashtirganlik darajasi ustidan nazorat darsida o'quvchilar berilgan tovush, so'z, gap, matnlarni tahlil etadilar. So'zlarni ma'lum xususiyatlariga ko'ra guruhlarga ajratadilar. Til hodisalarini qiyoslash asosida ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlaydilar. Bu dars turi til bo'limlari o'rganib bo'lingach yoki uch – to'rt soatda o'rganiladigan murakkab mavzulardan keyin o'tkazilishi mumkin.

Nazorat darsining ikkinchi turi, asosan yozma ish tarzida amalga oshiriladi. Nazorat diktanti yoki bayonlar orqali o'quvchilarning imloviy va punktuatsion savodxonligini tekshirish mumkin.

O'quvchilar nutqining rivojlanganlik darajasi ustidan nazorat darslarini og'zaki yoki yozma shaklda o'tkazish mumkin. Davlat ta'lim standartlaridagi parametrlar o'quvchilarning nutqiy savodxonligini nazorat etishning asosiy mezon bo'la oladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarini bitiradigan har bir o'quvchi bir daqiqada 120 – 130 so'zdan iborat notanish matnni ifodali o'qiy olish ko'nikmasiga ega bo'lishi darkor. O'n daqiqada esa 11 – 12 sahifalik matnning mazmunini to'g'ri, ravon va ta'sirchan qilib qayta hikoya qilib berishi, shuncha daqiqada 12 – 14 gapdan iborat tugal matn yaratib bera olishi ham davlat ta'lim standartlarida ko'rsatilgan.

O'quvchilar nutqining rivojlanganlik darajasini yozma ishning eng oliy shakli sanalgan insho orqali ham aniqlash mumkin.

Ona tili darslarining tarkibiy qismlari. Ma'lumki, dars 40 – 45 minutga mo'ljallangan va jadval asosida o'tiladigan mashg'ulotdir. Ana shu 40 – 45 minutda o'tiladigan bir soatlik dars ma'lum qismlardan tashkil topgan bo'ladi. Darsning qismlari ona tili o'qituvchisining bir soatlik darsi uchun yozgan ishlanmasi ham o'z aksini topadi. (3 – ilovaga qarang. – J.E.).

A. G'ulomov va M. Qodirovlar ona tili darslarining tarkibiy qismlarini quyidagicha belgilaydilar: takrorlash; yangi bilim berish; bilimlarni ko'nikma va malakaga aylantirish; o'rganilganlarni mustahkamlash va darsni xulosalash; uyga vazifa berish. Darsning bu qismlari muayyan bir vazifa bajaradi.

Har qanday dars boshlanishidan oldin o'quvchilarni darsga tayyorlash maqsadida tashkiliy qismda bajariladigan ishlar amalga oshiriladi. Darsning bu qismi uchun juda qisqa vaqt ajratilgan bo'lib, shu vaqt ichida o'qituvchi o'quvchilarning davomatini, uy vazifasini bajarganlik holatini, o'tilgan mavzuni o'zlashtirganlik darajasini, o'quv qurollarining tayyorligini aniqlaydi.

Uyga berilgan topshiriq ham qisqa vaqtda tekshirilishi kerak. Tajribali o'qituvchilar uy vazifasini tekshirishning turli usullaridan foydalanadilar. O'rganilgan mavzuni o'zlashtirganlik darajasini tekshirish jarayonida uy topshirig'i ko'rib chiqilishi mumkin. Ko'pincha ona tilidan aylanma daftarlar bo'lgani sababli uy topshirig'i alohida vaqtda, darsdan so'ng tekshiriladi. Bu usulning salbiy tomoni ham bor. O'quvchining ijodiy faoliyati mahsuli o'z vaqtida sarhisob qilinmasdan qoladi. Shu bois aylanma daftarlarni darsning o'zida tekshirishni o'ylab ko'rishga to'g'ri keladi.

Darsning takrorlash qismini o'tilgan mavzuni o'quvchidan so'rab, bilimni baholash deb tushunmaslik kerak. Takrorlash o'quvchilarni yangi o'zlashtiriladigan o'quv materialiga tayyorlash jarayoni hamdir.

Yangi bilim berish bir soatlik darsning asosiy qismini tashkil etadi. Darsning bu qismida o'quvchilar to'la mustaqil faoliyat yuritadi. Ular mavzuga aloqador bilimlarni xotirda tiklab, berilgan mashq, tavsiya etilgan matn ustida ish yuritadilar. Mashq va matn uchun tuzilgan topshiriqlar o'quvchilarni o'rganilayotgan til hodisasi bo'yicha qoida (xulosa) chiqarishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Darsning bilimlarni ko'nikma va malakaga aylantirish qismi qisman yangi bilim berishga bog'lanib ketsa-da, o'quvchilar yangi bilimlarni amaliyotga tadbiq etish bo'yicha ma'lum mashq yoki matn ustida ishlaydilar. O'quvchilar egallagan bilimlarini ko'nikma va malakaga aylantirish darsning mustahkamlash qismida ham davom ettiriladi. Darsni xulosalash jarayoni mas'uliyatli

bo'lib, bu qismda o'quvchilar o'rganilgan til materiali bo'yicha zaruriy xulosaga keladilar, ya'ni til hodisasiga ta'rif va qoida chiqariladi.

Uyga vazifa berish darsning muhim tarkibiy qismlaridan. Hech qachon uy vazifasini qo'ng'iroqdan oldin shoshma – shosharlik bilan bermaslik kerak. Buning uchun vaqt ajratilishi, o'quvchilarga ma'lum tushuncha berilishi shart.

Shuni unutmaslik kerakki, darsning barcha qismlarini to'g'ri taqsimlash talab etiladi. Aks holda dars samaradorligiga putur etadi.

Ona tilidan noan'anaviy dars shakllari

Ona tili ta'limida induktiv usulning kirib kelishi o'quvchini dars jarayonining sub'ektiga, ya'ni faol shaxsiga aylantirdi. Tashabbuskor ona tili fani o'qituvchilari bu jarayonni namunali tashkil etish yo'llarini qidirmoqdalar. Tinimsiz izlanishlar olib bormoqdalar. Bu izlanishlar samarasi o'laroq, ona tili o'qitishning noan'anaviy shakli paydo bo'ldi. Bugungi kunda noan'anaviy darslarning o'nlab shakllaridan foydalanib kelinmoqda. Bu shakllar kundalik matbuot orqali o'qituvchilar ommasiga havola etilayotir. O'rganilayotgan til hodisasini topqirlar bellashuvi, seminar, bahs – munozara, sayohat, yubiley, sud va boshqa shakllarda o'tkazish tajriba qilib ko'rilayotir.

Shuni unutmaslik kerakki, noan'anaviy darslarning har qanday shakli o'qituvchidan ham, o'quvchidan ham maxsus tayyorgarlikni, ma'lum vaqtni talab etadi. Noan'anaviy darslarni ko'proq tajribali, yangilikka intiluvchan o'qituvchilar tashkil etsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Quyida QarshiDU o'zbek filologiyasi fakultetining sobiq talabasi R. Xayrullayevaning "Olmosh so'z turkumi haqida ma'lumot" mavzusi bo'yicha tayyorlagan "Olmosh ota va uning yetti o'g'li haqida rivoyat" deb nomlangan she'riy ertak darsini hukmingizga havola etamiz.

Bu novan'anaviy darsni o'tish uchun sinfdagi o'quvchilar to'qqiztadan uch guruhga bo'linadilar. Har bir guruhdan bittadan o'quvchi boshlovchi – muallif, bittadan o'quvchi Olmosh ota, qolgan yettidan o'quvchi esa ko'rsatish, kishilik, o'zlik, so'roq, belgilash, gumon va bo'lishsizlik olmoshlari rolini bajaradilar. O'quvchilar o'n kun ichida tayyorgarlik ko'radi. Qaysi guruh tayyor deb topilsa, shu guruh noan'anaviy dars o'tish huquqini qo'lga kiritadi.

III. UMUMIY XULOSALAR.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

. 1-bob

БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ОРФОГРАФИЯ ЎҚИТИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Фанда орфографик малакаларни шакллантириш масалаларида психология, лингвистик ва методик асосларни кенг шархлаш, таълим жараёнидаги ХИЛМА-ХИЛ узгаришларни қиёслаш, системали утказилган тажрибалар давомида ўқувчилардаги индивидуал-психологик фарқлар ҳамда муайян кўрсаткичларни ўрганиш, шу соҳадаги статистик маълумотларни тизимга солиш ва, натижада, муқобил услубий хулосаларни чиқариш борасида катта мундарижадаги тадқиқотлар яратилган. Уларнинг айримларини

биз тадқиқ этилаётган масалаларимизга боғлиқ ҳолда шарҳлашга ҳаракат қилдик. Шунингдек, мазкур бобда узбек орфографиясининг бошланғич таълим она тили дастурлари ва дарсликлари-да акс этиш жиҳатлари ҳам назарий томондан таҳлил этилди.

БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМДА ОРФОГРАФИЯ ЎҚИТИШНИНГ ПСИХОЛОГИК ВА МЕТОДИК АСОСЛАРИ

Кичик ёшдаги унвчилар орфография феодиятидаги психологик шарт шароитлар туғрисида муҳим ва мукамал тадқиқот ишларини олиб борган олимлардан С.Ф.Луйков уз илмий қарашларида ҳозирги замон орфография ўқитиш методикаси учун қадрли фикрлар назариясини баён қилган. Олимнинг, айниқса, "Кичик ёшдаги мактаб ўқувчиларида орфографик фаолиятни шакллантириш" асарида ўқувчиларда орфографик малака шакллантиришдаги асосий психологик шартлар атрофлича кзохлаб берилган. Олим ўқувчиларда орфографик фаолиятни шакллантиришдаги муҳим омиллар: грамматик ва имло қоидалари, қоидаларни ўзлаштиришдаги операциялар, куникма ва малакалар фарқи масалаларини жиддий таҳлил қилган.

У ўз олдига орфографик фаолиятни ташкил этувчи ақлий жараён ва турли операциялар мазмунини ҳамда структурасини ёритиш, орфографик фаолият натижасидаги назорат усуллариини белгилаш, бу фаолиятнинг муваффақиятли шаклланиш вариантларини аниқлаш, кичик ёшдаги ўқувчиларда орфографик кўникма ва малакаларни онгли равишда юксалтиришдаги имкониятларни ёритиш вазифаларини қўйиб, мана шу асосдаги тажрибалар юзасидан ўз хулосаларини чиқаради. Олим хулосалари тизимидаги фактларни идрок этишнинг икки хил шакли: а) ноаниқ идрок этиш; б) аниқ идрок этиш шакллари, шунингдек, орфография фаолият таркиби *қокла характер ва* ёзув принципларига боғлиқлиги ҳақидаги фикрлар диққатга сазовордир. С.Ф.Куйков белгилайдики, ёзувдаги фонетик ҳолатни идрок этиш, товушнинг идрок этиш, шуни ифодалайдиган белги(ҳарф)ни идрок этиш (46, 42-б.) орфографик фаолият учун характерли ҳолатдир. Олиа хулосасига кўра, "орфографик малаканинг муваффақиятли шаклланиши орфограммаларнинг онгли равишда идрок этилишига боғлиқ" (46, 42-б.)дир. С.Ф.Жуйковнинг ўтказган тадқиқотлари, чиқарган хулосалари ва таълим учун тавсия қилинган методик йўл-йўриқлари уз моҳият эътибори билан биз олиб борган изланишлар учун маълум даражада асос бўлиб хизмат қилади. Орфографик малаканинг шаклланишдаги психологик жараёнларни таҳлил қилган психолог олим Д.Н. Богоявленскийнинг бир қатор тадқиқотлари, илмий асарларида кенг баён қилинган. Олимнинг айниқса, "Орфографияни ўзлаштириш психологияси" асари барча тил таълимида, жумладан, ўзбек тили таълимида ҳам муҳим аҳамиятга эга. Олим мазкур илмий асарида методикадаги орфография таълимига мансуб грамматик ва антиграмматик йўналишдаги қарашларнинг характерли белгиларини таҳлил қилиб берган. У орфография ўқитиш масалаларидаги тадқиқотларнинг методик ва психологик жиҳатларини изоҳлаб, Н.В.Уваков, Н.С.Рождественский каби олимларнинг ишларидаги диққатга сазовор фикрларни, шу жумладан, психологик томондан очиб берилмаган муаммоларни таъкидлаб ўтган. Олим, шунингдек, таниқли психолог - олимлар Д.Б. Эльконини ва Ц.В.Давидовларнинг ўқувчилар ёш хусусиятлари имкониятлари масалаларида олиб борган тажрибаларига юқори баҳо берган. Д.Н.Богоявленский юқорида номи келтирилган илмий асарида орфографик малаканинг умумий психологияси, ўзлаштиришнинг рус тили имлоси хусусиятларига боғлиқлиги, орфографияни ўзлаштиришда қоидалар, тид маънолари ва нутқ фаолияти роли, имло қоидаларини тушуниш, орфографик машқлар ва хатолар устида ишлаш каби масалаларнинг психологик асослари юзасидан олиб борилган тадқиқотлар натижаларини баён қилиб берган. Унинг таъкидлашича, "Орфографик малака - мураккаб малака. У ўз ичига ёзув, сўзнинг товуш томонини таҳлил қила олиш кўникмаси, грамматик билим асосида орфограммани таниш, унга керакли қоидаларни тадбиқ этиш ва, ниҳоят, бу орфограммани тўғри ёзишни олади".

Д.В.Богоявленский орфографик малака шаклланишидаги мураккаб психологик вазиятларни таҳлил қилиб, муайян тилнинг узига хос хусусиятларидан келиб чиқиб, жумладан, тўғри ёзувга асос бўладиган орфографик ассоциация структурасини белгилайди. Масалан, у орфограммани эшитиш ва артикуляция орқали идрок қилиш - кўриш тасавури - ёзув реакцияси, морфемаларни эшитиш ва артикуляция орқали идрок қилиш - маъноси ва грамматик моҳият - кўриш тасавури - ёзув реакцияси, сўзни эшитиш ва артикуляция орқали идрок қилиш - унинг маъноси ва кўриш орқали ҳосил бўлган тасаввур -ёзув реакцияси кабиларни фонетик, морфологик ва традицион ёзувга мос ҳолатлар, деб қайд қилади.

Орфография ўқитишда психологик асослар масаласига Л.В.Занков жиддий эътибор берган. У ўзининг экспериментал таълимида ўқувчиларнинг тўғри ёзувни эгаллашдаги индивидуал фарқларни ҳамда уларнинг умумий ривожланиш хусусиятларини ҳисобга олиш масаласини кўяди. Олим ўз асарларида ҳали ўрганилмаган имло қоидаларига оид орфограммани матнларни ёздириш натижасида ўқувчиларнинг шахсий индивидуал хусусиятларини таҳлил қилиб, таълимда боланинг умумий ривожланишини ҳисобга олиш тенденцияларини баён этади. Унинг бундай фикрларини Р.Я Луравяева ҳам тасдиқлаб, орфографияни ўзлаштириш тил хусусиятлари ва ўқувчининг умумий ривожланишига боғлиқ эканлигини уз тажрибалари асосида изоҳлаб беради.

Бошланғич таълимда орфография ўқитиш соҳасида диққатга сазовор илмий тадқиқотларни олиб борган олимлардан Н.С.Рожественский ўзига хос мактабни яратган . У рус имлоси хусусиятларини орфография ўқитишдаги асос деб ҳисоблаб, орфографик малака-ни ўзлаштириш жараёни, бу малакани такомиллаштиришдаги умумий шартлар, орфографияни ўқитишда қўйиладиган асосий метод ва усуллар, айниқса, имло қоидалари ва орфографик машқлар устида ишлаш, имло дарсларининг қурилиши, шунингдек, ИМЛОВИЙ хатоларни ўрганиш ва уларни бартараф қилиш йўллари масалаларни кенг ёритган. Н. С. Рожественский "орфографик малака - боланинг нутқ малакаси эканлигини таъкидлаб, - боланинг нутқ малакасини ривожлантириш қайси йўлдан борса, орфографик малакани ривожлантиришда ҳам шу йўлдан борилади" (115, 88-б), - деб уқтиради.

Олим орфография ўқитишдаги методик жиҳатларни атрофлича таҳлил қилиб, таълим жараёнида ўқувчилар билиш фаолиятининг психологик хусусиятларига ҳам билвосита ёндашиб ўтган: "Методика шундай усулларни ишлаб чиқиши керакки, улар болага у ёки бу орфограммани энг яхши тарзда англашга ёрдам бериб, унда актив билиш жараёнини қўзғотсин". Орфографияни ўзлаштиришдаги руҳий жараён масаласи (гарчи бошланғич таълимга оид бўлмаса ҳам) Г.Н.Приступа илмий ишларида ҳам маълум даражада талқин қилинган.

Бошланғич таълимда ҳозирги замон орфография ўқитиш масалалари Н.Р.Львов илмий ишлари, асарлари ва мақолаларида кенг ёритилган. У ўзининг "Бошланғич мактабда тўғри ёзувга ўргатиш асослари" ўқув қўлланмасида тўғри ёзув методикасининг назарий муаммоларини чуқур шарҳлаб берган. O'qish va yozish ko'nimmasi – savod o'rgatish davrida o'qish va yozish harakatini maqsadga muvofiq ravishda bajara olish. Ko'nikma bilimni talab qiladi, chunki har qanday ko'nikma bilinsiz shakllanmaydi. Bilim ko'nikmaga aylanmagan bo'lishi mumkin. Masalan: bola v harfining elementlarini, yozuv chiziqlari orasiga qanday joylashtirilishini bilib, uni daftarda yoza olmasligi yoki o'quvchi harflarni tanib, ularni o'qiy olmasligi mumkin. Yozish ko'nikmasi hosil qilish uchun boshqa faoliyat turlari, ya'ni yozish jarayonida partada to'g'ri o'tirish, ruchkani barmoqlar orasida tutish, daftarni qiyalikda qo'yish kabilar ham o'rgatiladi.

O'qish va yozish ko'nikmasi takomillasha borib, malakaga aylantiriladi. Malakaning shakllanishi uchun bir faoliyat bir necha bora takrorlanishi lozim. Yozish malakasida o'quvchi ruchkani qanday ushlash, qanday yurgizish haqida o'ylab o'tirmay, so'z va gaplarni yoza boshlaydi. Demak, o'qish va yozish malakasi harakatning o'ylab o'tirmay amalga oshirilish jarayonidir.

Malaka o'qitishning keyingi bosqichlarida mustahkamlanib, avtomatlashish darajasiga yetkaziladi.

O'qish va yozish kishi nutq faoliyatining turi bo'lib, u nutqqa oid malakadir. O'qish malakasi ham, yozish malakasi ham nutq faoliyatining boshqa turlari bilan, ya'ni og'zaki hikoya qilish, o'zgarar nutqini eshitish orqali anglash, ichki nutq bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Maktabda o'qitishning muvaffaqiyati savod o'rgatishning qanday tashkil etilganligiga bog'liq. O'zbek tili yozuvining o'ziga xosligi:

- o'zbek tili yozuvi tovush yozuvi, ya'ni fonematik yozuv;
- har bir tovush, har bir fonema uchun maxsus grafik shakl (harf olingan);
- o'qishda grafik shakllar tovushga aylantirilsa, yozuvda, aksincha, tovushlar harflarga aylantiriladi. Bu o'qish va yozish faoliyatida o'quvchi uchun qiyinchilik tug'dirgandek tuyulsa-da, aslida o'qish va yozish jarayonini soddalashtiradi, chunki tilimizdagi tovushni ifodalovchi harflar soni uncha ko'p emas;

- o'zbek tili yozuvi – fonematik yozuv. 1993-yil 2-sentabrdagi "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi qonunga muvofiq o'zbek tili yozuvi uchun lotin grafikasi asos qilib olingan.

O'zbek tilining tovush tizimi va yozuvi. Savod o'rgatish analitik-sintetik tovush metodiga asosan olib boriladi. So'z bo'g'inga bo'linadi, bo'g'indn kerakli - o'rganilayotgan tovush ajratib olinadi, tahlil qilinadi, o'rganilayotgan harf bilan sintezlanadi, shu asosda harf va butun o'qish jarayoni o'zlashtiriladi. Bunda o'zbek tili grafik tizimi, tovushlarni yozuvda belgilash xususiyatlari hisobga olinadi.

Savod o'rgatishda o'zbek tili grafik tizimining quyidagi xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega:

№	XUSUSIYATLAR	O'ZIGA XOSLIKLARI	MISOLLAR
1.	Tovush-harf bilan tanishtirish unililardan boshlanadi.	6 ta unli fonema bor.	E, o, a, u, i, o'
2.	Undoshlarni o'rgatishda ham muayyan tartibga, talabga asoslaniladi.	24 ta undosh tovush bor. Yozuvda 23 ta harf bilan ifodalanadi: 3 tasi harf birikmasi, 21 tasi yakka harf.	B, d, f, g, j, k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, g', sh, ch, ng.


UNLILAR

Unli	Ifodalanishi	Qo'llanishi	O'quv jarayoniga kiritilishi
E harfi	Undoshdan keyin old qator, o'rta keng lablanmagan unli tarzida	so'z va bo'g'in boshi (ekin, aeroport)	Oldin so'z boshida keladigan e, so'ngra undoshdan keyin keladigan e tovush-harfi bilan tanishtiriladi.
O harfi	Orqa qator, quyi keng, lablangan	Ruscha-baynalmilal so'zlarda: urg'usiz bo'g'inda a tarzida (botanika); o' tovushi kabi (tonna); qisqa i tarzida (traktor).	Bu unli qatnashgan ruscha-baynalmilal so'zlar savod o'rgatish davridan so'ng o'quv jarayoniga kiritiladi.
A tovushi	Old qator, quyi keng, lablanmagan	O kabi: bahor, savol; I tovushiga yaqin: muomala, munasabat.	O tovushi bilan birgalikda o'qitiladi

UNDOSHLAR

Alifbo davrida undosh tovushlar bilan tanishtirishni sonor, ya'ni ovozdor tovushlar bilan boshlash maqsadga muvofiqdir. Chunki sonor tovushlarni bo'g'in va so'z tarkibidan ajratib olish oson. Lekin ng sonor undoshi n va g undosh tovushlari va harflari bilan tanishtirilgach, o'rgatiladi. Harf birikmalarini o'rgatishdagi qiyinchilik hisobga olingan holda, ularni alifbe davrining oxirgi bosqichida o'rganilishi maqsadga muvofiqdir.

J harfi ikki tovushni ifodalaydi, shuni hisobga olib, unga alohida darslar ajratiladi:



Ba'zi undoshlarning o'qitilishiga oid ko'rsatmalarni quyidagi jadval orqali ham kuzatish mumkin:

UNDOSH

SH S va h harfi bilan tanishtirilgach, o'rgatiladi.

CH C va h harfi bilan tanishtirilgach, o'rgatiladi.

Jarangsiz
jufti bor
undoshllar
(b-p, d-t, v-f, g-k, z-s)
X va h

Tutuq
belgisi (')

O'quvchilar bu harf birikmalarini bir yaxlit tovush sifatida o'qish va yozishga ko'nikishlari lozim.


Ular haqida dastlabki amaliy tushunchalar hosil qilinadi, ularning yozilishi va talaffuziga e'tibor qaratiladi.

Talaffuzi va imlosi haqida dastlabki tushunchalar beriladi, ularni farqlash bo'yicha maxsus mashqlar uyushtiriladi.

Unli tovushdan so'ng kelsa, uni cho'zib talaffuz qilishga, undoshdan

soʻng kelsa, undoshni unlidan ajratib talaffuz qilishga xizmat qilishi haqida ham tushunchalar berilib, asta-sekin uni qoʻllashga doir koʻnikmalar shakllantiriladi.

Savod oʻrgatish jarayonida harflarning 4 xil (bosma, yozma, bosh va kichik) shakli va ularning ishlatilish oʻrni oʻrgatiladi. Savod oʻrgatish davrida oʻquvchilar soʻzlarni boʻgʻinlarga toʻgʻri ajrata olsalar, oʻqish koʻnikmasini ham yaxshi egallaydilar. Yaʼni:



Oʻqishning dastlabki bosqichida orfografik oʻqishdan foydalaniladi, asta-sekin orfoepik oʻqish koʻnikmalari shakllantiriladi. Talaffuzi yozilishiga mos kelmaydigan tovushlar ishtirok etgan soʻzlar oldin orfografik, soʻngra orfoepik oʻqib beriladi va ularning oʻqilishi bilan yozilishi taqqoslanadi. Oʻquvchilar muayyan darajada tushunchaga ega boʻlganlaridan soʻng orfoepik oʻqish mashq qilinadi.

Oʻqish va yozish jarayonining psixofiziologik tavsifi. Oʻqish ham, yozish ham murakkab nutq faoliyati hisoblanadi. Bu jarayonlar kichik yoshdagi oʻquvchidan iroda, aql, hatto jismoniy harakatni ham talab qiladi.

- oʻquvchilarning idroki, xotirasi, tafakkuri va nutqini oʻstirishga katta eʼtibor berish kerak;
- fonematik eshitish¹ qobiliyatlarini oʻstirish muhim. Fonematik eshitish imloviy malakani hosil qilishning muhim shartidir. Shu bois savod oʻrgatish davrida eshitish idrokini oʻstirish uchun xilma-xil mashqlar oʻtkazib boorish maqsadga muvofiqdir.

Unlilar va undosh tovushlar imlosi.

Nutq tovushlarini yozuvda ifodalash uchun harflarning roli kattadir. Hozirgi oʻzbek tilidagi 30 ta tovushni yozuvda ifodalash uchun 29 ta harfni ishlatamiz. Oʻzbek tilidagi j harfi ikki tovushni ifodlashi nutqning tovush jihatidan sonini oshiradi.

Hozirgi oʻzbek adabiiy tilida unli fonemalar oltita:

Tovush	Harf
a	<i>a</i>
o	<i>o</i>
e	<i>e</i>
u	<i>u</i>
oʻ	<i>oʻ</i>

Unli fonemalar tilning harakatiga koʻra klassifikatsiya qilinadi. Shunga koʻra ayrim vaqtlarda tovushlarning aytilishi va yozilishida farq qiladi.

¹ Fonematik eshitish – tovushni aniq talaffuz qilish, boshqa tovushlardan farqlash, boʻgʻin yoki soʻzdan oʻsha tovushni ajrata olish koʻnikmasi.

Masalan: *a* unlisi (muomila, munosibat, muhokima va b) *i* tovushiga yaqin talaffuz qilinadi, ammo har vaqt muomala, munosabat, muhokama yozilishi kerak

o unlisi urg'usiz bo'g'inlarda *o*–tovushi *a* tarzida aytiladi: kanstitutsiya, lekin konstitutsiya yoziladi.

u unlisi ba'zan ikkinchi bo'g'inda *i* eshitilasa ham, *u* yoziladi: butun, tushuncha, usul yoziladi.

Undosh fonemalar jarangli va jarangsiz undoshlarga ajratiladi. Undosh tovushlar so'zlash a'zolarining faol ishtirokiga va ta'sirida paydo bo'ladi. Undoshlarning muhim xususiyati ular orasidagi jarangli va jarangsizlikdir.

b, v, g, d, r, j, g', m, n, ng, y, l – jarangli

p, f, k, t, s, ch, sh, x, q, h – jarangsiz.

J- harfi o'zbek yozuvida ikki tovushni belgilashga hizmat qiladi. Bu tovushlardan biri portlovchi b'lib, uni talaffuz qilganda tilning uchi yuqori tish milklariga yopishib zo'r bilan aytiladi. J – portlovchisi nutqimizda juda ko'p uchraydi : jon, majlis, Jahon, vaj. Lekin rus tilidan va boshqa jahon tillaridan olingan so'zlarda sigg'aluvchi qorishiq tovush o'rnida aytiladi va yoziladi: jurnal, jyuri, garaj, tiraj mujgon.

S – yoki rus tili va Ovrupa tillaridan o'tgan so'zlardagi ajratilmas ts tovushi yangi imlo bo'yicha quyidagicha yoziladi: Soy, sirk kabi so'zlarda xat boshida kelsa bitta s shaklini, xat o'rtasida unli so'ng ts ikki harfni: militsiya, xat o'rtasida undoshdan so'ng bitta s shaklini: ssenariy, konsert va boshqa, xat oxirida unli so'ng bitta shaklda yoziladi.

X (*x*) va H (*h*) tovushlari paydo bo'lish o'rniga ko'ra ham aytilishiga ko'ra ham bir–biridan farq qiladi. H (*h*) bo'g'zda paydo bo'lib, sirg'aluvchi va ma'no ayiruvchi tovush o'rnida yoziladi: *behi, hush, shohi, ham, hamma, ogoh..* X (*x*) esa portlovchi, til orqa tovushi: *xulq, shox, xat, baxt, taxt, mix, axborot* kabi.

4.Bo'g'in va bo'g'in ko'chirish imlosi.

Havo oqimiga berilgan zarb bilan aytiladigan tovushlar ayrim bir tovush *bo'g'in* deyiladi. *Onamiz* so'zida uch bo'g'in bor: *o–na–miz*. Birinchi bo'g'in bir tovushdan, ikkinchi bo'g'in ikki tovushdan, uchinchi bo'g'in esa uch tovushdan iborat.

O'zbek tilida bo'g'in unlisiz tuzilmaydi. So'zda qancha unli tovush bo'lsa, unda shuncha bo'g'in mavjud bo'ladi. Ayrim bir unli tovush mustaqil bo'g'in tuza oladi, lekin undosh tovush bo'g'in tuzolmaydi, undoshlar unli tovush bilan birgalikda bo'g'in hosil qiladi.

So'zlarda bo'g'inlar bittadan to'rttagacha tovushlardan, o'zlashtirma so'zlarda esa 5 tagacha bo'ladi.

Misollar: *o–ta, o–i–la, ra–di–o, berk, pro–gram–ma, sprav–ka, tekst, shax–miat, shtam, qirq, san'–at.*

Bo'g'inlar unli yoki undosh bilan tugashiga qarab ikki xil bo'ladi: 1)ochiq bo'g'in – unli bilan tugaydi: *a–ka, da–la, o–na*; 2)yopiq bo'g'in – undosh bilan tugaydi: *mak–tab, bog'–bon, qish–loq, kol–xoz.*

So'z o'rinlaridan birini boshqalariga nisbatan kuchliroq ovoz (yoki ohang) bilan aytilishi urg'u deyiladi. Urg'u odatda unli tovushga tushadi.

Bo'g'in ko'chirish qosidasi: 1.Ko'p bo'g'inli so'zning oldingi satrga sig'may qolgan qismi keyingi satrga bo'g'inlab ko'chiriladi: *to'q–son, si–fatli, sifat–li, paxta–kor, pax–takor* kabi. Tutuq belgisi oldingi bo'g'inda qoldiriladi: *va'–da, ma'–rifat, mash'–al, in'–om*, kabi.

2.So'zning boshi yoki oxirgi bo'g'ini bir harfdan iborat bo'lsa, ular quyidagicha ko'chiriladi:

1)so'z boshidagi bir harfdan iborat bo'g'in yolg'iz o'zi qoldirilmaydi: *a–badiy emas, aba–diy, e–shikdan emas, eshik–dan* kabi.

2)so'z oxiridagi bir harfdan iborat bo'g'in yolg'iz o'zi keyingi satrga ko'chirilmaydi: *mudofa–a emas, mudo–faa, matba–a emas, mat–baa* kabi.

3. Bir tovushni ko'rsatuvchi harflar birkmasi (sh, ch, ng) birgalikda ko'chiriladi: pe-shayvon, pe-shona, pi-choq, bi-chiq-chi, si-ngil, ko'-ngil, deng-iz, de-ngiz kabi.

4. Bosh harflardan yoki bo'g'inga teng qism va bosh harflardan iborat qisqartmalar, shuningdek, ko'p xonali raqamlar satrdan satrga bo'lib ko'chirilmaydi: AQSH, BMT, ToshDU, 24506, 1994, XIX asr, XVIII kabi.

Бошланғич синфларда орфография ўқитиш масалалари ўзбек мактаблари таълими мазмуни бўйича сезиларли тарзда муҳокама қилиб борилмоқда. Бу соҳада тадқиқот ишлари олиб борган А.Асқаров ўзбек мактабларининг 1-4 синфларида она тили орфографиясини ўзлаштиришдаги психология асосларнинг муайян жиҳатларини таҳлил қилиб берган. Олим ўз тадқиқотларида ўзбек тили орфографиясининг хусусиятлари ва уни ўзлаштиришнинг психологик томонлари, 1-4 синф ўқувчиларида орфография малакаларнинг таркиб топиш ҳолатлари, айрим орфограммалар имлосини ўзлаштириш хусусиятлари масалаларини эксперимент ва кузатиш материаллари асосида баён қилган. Унинг фикрича, ёзувнинг талаффузга мос келмаслиги сўздаги товушларнинг комбинатор ва позицион хусусиятлари билан, шунингдек, грамматик қонуниятлар билан ифодаланади. Шунингдек, олимнинг ўқувчиларни I-синфдан бошлаб нутқ қийинчиликларини бартараф этиб боришга ўргатиш, таълимда ассоциатив боғланишлар ҳосил қилиб бориш "гумонли орфограммалар"ни нутқда мустаҳкамлаб боришга тааллуқли иш усулларини қўллаш ҳақидаги фикрлари бизнинг тадқиқотимизга ҳам назарий, ҳам амалий жиҳатдан асос бўлди. Бошланғич синфларда орфография ўқитишга доир олиб борилган тадқиқотлардан яна бири Н.Мамаюсуповнинг "Ўзбек мактаблари I-3синфларида она тилидаги қийин ўзлаштириладиган фонемалар асосида ўқувчиларда орфографик малакаларни шакллантириш" мавзuidaги иши бўлиб, унда тавсия этилган машқ ва топшириқларнинг муайян системаси, шунингдек, фонетика ўқитишда белгиланган махсус ишланган методикага оид фикрлар ҳам тадқиқотимизга асос бўлиб хизмат қилди.

Ўзбек мактаблари бошланғич синфлар она тили таълимида орфография ўқитиш методлари устида ишлаган С.Набиевнинг идмий тадқиқоти ҳам ҳозирги замон орфография ўқитиш методлари системасига қўйилган яна бир ҳисса бўлди, Мазкур тадқиқот очиб берган ўзбек тили орфографиясини ўқитишга доир муҳим масалалар бошланғич таълим мазмунида ҳам назарий, ҳам амалий жиҳатдан диққатга сазовордир.

ХУЛОСАЛАР :

Юқорида шарҳланган тадқиқотлар кўрсатиб турибдики,

1) орфографик жараён, айниқса бошланғич таълимда, ниҳоятда мураккаб жараёндир. бу мураккабликка мувофиқ келадиган самарали усулларини белгилаш ва уларни амалга оширишда ўқувчиларнинг индивидуал ва ўзига хос психологик хусусиятларини ҳисобга олиш ва таълим жараёнини муайян тизимда, муайян структурада ташкил қилиш талаб қилинади;

2) республикамизда бошланғич синф ўқувчилари билан ишлаш жараёнида ўтказилган психологик тадқиқотлар хулосалари асосида янада янги экспериментал таълим тизимини ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқдир;

3) она тили ўқитиш методикаси тизимидаги методик ва психологик тадқиқот ҳамда кашфиётларни уйғунлаштириб, уларни амалда татбиқ этувчи махсус лаборатория марказини ташкил қилиш келажакда яхши самара беради.

Orfografik bilimlarni shakllantirishda o'qituvchiga qo'yilgan talablar.

Ona tili darslarida o'quvchilarga berilgan materiallarni (mavzularni) o'rgatishda o'qituvchining roli juda muhimdir.

Ma'lumki, boshlang'ich sinf ona tili darslari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ona tili darslarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini o'stirish bilan bir qatorda, ularning aqliy favoliyatlarini rivojlantirib borishga ham e'tibor beriladi. O'quvchilarni o'qish va yozish malakalarini egallaylari orqali barcha o'quv fanlarini o'rganish – o'zlashtirishga yo'l ochiladi.

Shuning uchun ham ona tili boshlang'ich sinflarda asosiy o'quv predmeti hisoblanadi. Metodika o'quvchilarning yosh xususiyatlari va qobiliyatlariga asoslanib, ularning har qaysi sinfda o'zlashtiradigan bilimlar hajmini belgilaydi. Shuningdek, o'qituvchi bilimlarini o'zlashtirishda uchragan qiyinchiliklarni aniqlab, uni bartaraf etish yo'llarini qo'llashi lozim.

Metodika – hayot turmush tarzigni o'zgarishlari va fan–texnika taraqqiyoti natijasida bolalarni aqliy o'sish darajasi va psixologiyasni o'zgarib borishida o'z ifodasini topishi kerak.

Shuning uchun ham o'qituvchi har bir davr va zamon talablariga javob bera olishi zarur.

Mustaqillik sharofati bilan ta'lim tizimini tubdan isloh etilishi, ta'lim tizimida ta'lim–tarbiya berishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishni taqozo etadi.

Boshlang'ich ta'lim ona tili o'qitishning maqsadi, mazmuni va tarkibiy qismlari hamda davlat ta'lim standarti ona tili darslarini o'tishda zamon talablaridan kelib chiqqan holda o'qituvchilar oldiga quyidagi talablarni qo'ydi:

- dastur va darslik hamda davlat talablarini bilish;
- davlat ta'lim standartiga rioya qilish va uni bajarishini ta'minlash;
- ona tili darslarini zamon talablari darajasida tashkil etishi;
- ona tili darslarida ko'rgazmali qurollardan foydalanishi;
- darsni yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishi;
- ona tili darslarida o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatishi;
- darsda o'quvchilarni tinglovchidan itshtirokchiga aylantirishi;
- ona tili darslarini samarali va qiziqarli bo'lishi uchun interaktiv va bahs–munozara, musobaqa darslarini tashkil etishi;
- darsda ijodiy faoliyatlarni oshiruvchi usullardan foydalanishi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan talablarni darslarda metodik jihatdan to'g'ri qo'llay olish ona tili darslarini samarali bo'lishida yordam beradi.

Bundan tashqari o'quvchilar bilimiga qo'yilgan davlat ta'lim standartini bajarish uchun o'qituvchining o'zi shu talablarni bajara olmog'i lozim.

Ya'ni o'qituvchi ona tilidan tilshunoslik bo'limiga oid fonetika, grammatika, leksikologiya hamda imlo qoidalarini yaxshi bilmog'i lozim.

Darsni metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish har bir o'qituvchining bosh maqsadi bo'lmog'i lozim.

5.Xulosa. Ona tili ta'lim sohasi barcha fanlar ichida yetakchi vazifadagi fan hisoblanadi. Ona tili ta'lim sohasi mustaqillik sharoiti bilan har taraflama o'ziga xos yo'nalishlarga ega bo'lgan bir paytda o'zining tizimi, maqsadi, vazifasi oldiga yangi talablarni qo'ydi.

Ona tili ta'limi bolalarni yikrlash qobiliyatlarini kengaytirishga, o'zgalar fikrini anglash, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olishga, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqatda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda ona tili ta'limiga o'quv fani sifatida emas, balki butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qarashi lozim.

Ona tili ta'limi o'quvchilarning uch yo'nalishda bilim olishini maqsad qilib oladi. O'qish texnikasi, o'zgalar fikrini va matn mazmunini anglash hamda fikrini yozma shaklda bayon qilish.

Ona tili fanining ahamiyati beqiyoschdir. Bu fan o'quvchilarga faqatgina ta'lim berish emas, balki tarbiya berishni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Bu ikkala jarayon ham ajralmagan holda olib borilmoqda.

Mana shu fikrlardan kelib chiqqan holda, biz murabbiylar mazkur dasturlar orqali bolalarni har taraflama yetuk, komil inson qilib tarbiyalashni sharaflı burchimiz deb bilmog'imiz lozim.

Ayniqsa biz milliy g'ururni, milliy iftixorni bolalar ongiga singdirish, Vatan, millat, tilimiz, urf-odatlarimizga mehr-muhabbat hissini uyg'otishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ymog'imiz zarur.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga orfografik hushyorlikni o'rgatish savodxonlikning poydevori hisoblanadi. Boshlang'ich sinfda o'qitishdan maqsad o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini ravon qilish hamda ularni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash bilan bir qatorda ularni go'zallikka intiluvchi, uni yurakdan his qila oladigan, go'zallikni yaratishga intiladigan kishilar qilib voyaga yetkazishni nazarda tutadi.

Husnixatga o'rgatishdan asosiy maqsad kichik yoshdagi o'quvchilarga yozishdek murakkab jarayonni o'rgatish orqali ularni orfografik hushyorlikga o'rgatishdan iboratdir. O'quv fani sifatida husnixatning oldiga qator vazifalar qo'yiladi.

Bu vazifalar ko'p qirrali bo'lib, o'quvchilarni aqliy rivojlantirishga, ularning atrof-muhit haqidagi bilimlarini bildirishga, axloqiy va estetik didlarini tarbiyalashga, ongli o'qish va yozish malakalarini hamda yozuv daftari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

Bu vazifalarning barchasi o'zaro bog'liq holda amalga oshiriladi. Ularni hal zaruriy yozuv malakalarini egallashga darslikda berilgan o'quvchilar saviyasiga mos nazariy va amaliy materialni uyg'unlashtirib o'zlashtirish ustida ishlashni maqsadga muvofiq uyushtirish, shuningdek, matnlar sifatini, topshiriqlar xususiyatini va bolalar aqliy faoliyatining o'ziga xos tomonlarini belgilaydigan qator uslubiy shart-sharoitlarga bog'liq. Bola kamolotining shakllanishi ko'p jihatdan orfografik hushyorlikga bog'liq.

Chiroyli yozish orqali bolalar boshqa fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladilar. Inson hayotida yozuv muhim o'rin tutadi, chunki u har kuni turli-tuman qog'ozlar va hujjatlardan foydalanadi. Bularning hammasi chiroyli va bexato yozishni taqazo etadi. Ammo qisqa muddat ichida o'quvchilarda chiroyli, tez va bexato yozish malakalarini o'stirish mumkin emas, buning uchun bir necha yillik mehnat talab etiladi. Orfografik hushyorlikga o'rgatish uchun bolalarning maktabga qadam qo'ygan kunlaridan boshlab, izchil mashqlar olib borish zarur.

Husnixat malakasini shakllantirish uchun birinchi navbatda harflarning shaklini to'g'ri tasavvur etishga, bir xil qiyalikda yozishga, so'zlarda harflarni to'g'ri bog'lanishga, so'zlarni qatorlar bo'ylab to'g'ri joylashtirishga o'rgatiladi. Daftar chiziqlari birin-ketin almashuvi davomida harflarning qiyaligini va ular orasidagi masofani to'g'ri saqlash, kichik va bosh harflarning nisbatini to'g'ri chamalab yozishga o'rgatish juda muhimdir. Husnixat darslarida ma'lum guruhga oid harflarni yozishga o'rgatish o'quvchilarda uchraydigan ayrim tipik xatolarning oldini olish va tuzatish ustida ham ish olib borish lozim. Yozuv tezligi oshishi bilan ayrim bir-biriga o'xshash harflarning shaklini buzib yozish hollari uchraganda esa ularni qayta mashq qildirish kerak. Orfografik hushyorlikga o'rgatishda daftardan to'g'ri foydalanishga alohida e'tibor berish zarur. Ikki chiziqli daftardan bir chiziqli daftarga o'tganda, o'quvchilar oldiga qator vazifalar qo'yiladi. Orfografik hushyorlikga o'rgatish umumiy didaktik qoidalar bilan birga yozuv malakasini shakllantiruvchi o'ziga xos qoidalarni ham o'z ichiga oladi.

Umumiy didaktik qoidalar takroriylik, ko'rgazmalilik, yosh va o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olish, tushunarliklik, ongliklik, husnixat metodikasining maqsad va vazifalarini amalga oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Yozuvga – husnixatga o'rgatishning vazifasi harfni, so'z, gap va matnni to'g'ri va chiroyli yozishni takomillashtirishdir. Yozuvni o'rganish jarayonida o'quvchi tovushning belgisi bo'lgan harfni so'z va gapni kitobdan daftarga va xattaxtadan to'g'ri va husnixat qoidalariga rioya qilib ko'chirib yozish, yozganlarini tekshira olish va yo'l qo'ygan kamchilik va xatolarni o'qituvchi rahbarligida yoki o'zi tuzata olishi kerak.

Har bir o'quvchi u yoki bu harfni tushunib yozishni harflarning bir-biriga bog'lanishini, kichik va bosh harfning bir-biriga nisbatini, balandligini, qiyaligini, ruchkani ushlash va to'g'ri o'tirish qoidalarini yaxshi bilishi lozim.

Orfografik hushyorlikni o'rganish olingan davrida bilim va malakalar o'quvchilar uchun doimiy qoida bo'lib qolishi zarur. Orfografik hushyorlik malakalarini o'stirishda eng birinchi qoida bu ozodalik talablari va yozuvning qiyaligini to'g'ri saqlashga so'ngra harf va harf elementlari orasidagi masofani chamalab yozish malakalari singdirib boriladi. Bu qoidalar keyinchalik takomillashtiriladi. Har bir yozuv mashqi aniq maqsad asosida oson, tushunarli olib borilishi kerak. Buning uchun orfografik hushyorlikga o'rgatishning turli usullaridan foydalanish lozim. Bolalarning yozuv malakalarini hosil qilishda ularning yosh o'ziga xos xususiyatlari: barmoq va qo'l muskullarining harakat tezligi, markaziy nerv sistemasi tomonidan nerv muskullarini boshqarilishi hisobga olinishi lozim. Orfografik hushyorlik darslarida harflarning shakli ustida mashq o'tkazganda oddiydan murakkabga tomon boriladi. Chunki alifbodagi barcha harflar yozilish shakliga ko'ra guruhlariga ajratiladi. Birinchi guruhda yozilishi shakli oson, keyingi guruhlarda yozilish shakli murakkab bo'lgan harflar kiritiladi. Bunday usulda darsni tashkil etish husnixat o'qitish metodikasida genetik metod deb aytiladi.

O'qituvchi birinchi navbatda har bir o'quvchiga partada to'g'ri o'tirish qoidalarini erinmay tushuntirishi va mashq qildirishi darkor. Keyinchalik o'quvchi ruchkani qanday ushlash, daftar tutish holati hamda harflarni yozayotganligini: sekin yoki tez yozishini kuzatib borishi lozim. Husnixat malakasini shakllantirishni faqat boshlang'ich sinfda emas, balki yuqori sinflarda ham takomillashtirib borish lozim.

Husnixat o'qitish metodikasi fani bir qator boshqa fanlar bilan chambarchas bog'liq. Estetika, fiziologiya, gigiyena, tilshunoslik kabi fanlar bilan aloqada bo'ladi. Estetika fani bilan bog'liqlik jihati shundaki, eng avvalo o'quvchilarda go'zallikka bo'lgan qiziqishlarini oshiradi. Chiroyli

yozish ham go‘zallikning bir ko‘rinishidir. Sharq mutafakkirlaridan biri shunday degan ekanlar: «Chiroyli yozgan kishi chiroyli fikrlay oladi» Darhaqiqat o‘quvchi maktabga kelgan kunidan boshlab, orfografik hushyorlik malakalari haqida tanisha boshlaydi. Undan tashqari o‘quvchini chiroyli yozishga o‘rgatish jarayonida bolaning har tomonlama nerv sistemasi, qo‘l harakatlari va muskullari, ko‘rish organlari, eshituv organlari, umurtqa pog‘onasi rivojlangan bo‘lishi kerak. O‘quvchi shundagina husnixat malakalarini o‘zlashtira oladi.

Agar o‘quvchining biz yuqorida tilga olgan organlaridan biri yaxshi taraqqiy etmagan bo‘lsa, u o‘quvchida orfografik hushyorlik malakalari to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaydi.

Kichik yoshdagi o‘quvchini o‘qishga o‘rgatishda quyidagilar kuzatiladi:

O‘QUVCHINING FAOLIYATI	O‘QITUVCHINING FAOLIYATI
1. Bola o‘qish paytida bitta harfni ko‘radi. Uni bilish uchun rasmlarni ko‘z oldiga keltiradi, rasmlarni yoki boshqa harflarni eslaydi. Esga tushirgach aytishga shoshiladi. Ikkinchi harfni eslab olguncha, birinchisi esdan chiqib qoladi yoki ularni qo‘shib bo‘g‘in, bo‘g‘indan so‘z hosil qilguncha o‘qish jarayoni sustlashadi.	Harfni emas, bo‘g‘inni aytishni talab qiladi. Dastlab savollar orqali harflarni eslashga ko‘maklashadi, so‘ng mustaqil ishlashni shakllantiradi.
2. O‘qiyotgan qatorini yo‘qotib qo‘yadi. Harfni, bo‘g‘inni, so‘zni qayta o‘qishiga to‘g‘ri keladi.	Mustaqil topishiga imkoniyat yaratadi. O‘quvchining diqqatini kengaytirib, bo‘g‘in va so‘zni butunligicha idrok etishini ta‘minlaydi.
3. O‘qiyotgan matn mazmunini o‘zlashtirmaydi, chunki u so‘zni qanday o‘qishga ko‘p kuch beradi.	Ongli o‘qishlarini ta‘minlash maqsadida darslikdagi rasmlarga diqqatlarini tortadi. Savollar beradi, ko‘rgazmali qurollardan foydalanadi.
4. So‘zni birinchi bo‘g‘iniga yoki rasmga qarab topadi.	So‘zni bo‘g‘inlab o‘qitadi. So‘zni bo‘g‘in-tovush tomondan tahlil qilishga, tovush-harf tomondan analiz va sintez qilishga diqqatni qaratadi.

O‘qishni muvaffaqiyatli egallashlari uchun quyidagilarga e‘tibor qaratish kerak:

Орфографик билимларни шакллантиришдаги услубий ишлар тизими

Savod o‘rgatish darslari dasturda ko‘rsatilganidek haftada 8 soat bo‘lib, 4 soat yozuvga ajratilgan. Savod o‘rgatish 2- sentabrdan dekabrning oxirigacha davom etadi. U ikki davrga bo‘linadi.

1) tayyorgarlik davri

2) asosiy davr

Tayyorgarlik davri o‘z navbatida 2 bosqichda bo‘ladi.

a) harf o‘rganilmaydigan bosqich;

b) unli tovushlar va harflar o‘rganiladigan bosqich.

1- bosqich uchun 10 soat dars ajratiladi. Bu bosqichning asosiy vazifasi o‘quvchilarni maktab, sinf bilan, tartib-intizom qoidalarini bilan tanishtirish. Ularga nutq, og‘zaki va yozma nutq haqida, gap, nutqning gaplardan tuzilishi, so‘z, gaplarning so‘zlardan tuzilishi: bo‘g‘in, so‘zlarning bo‘g‘inlardan tuzilishi; so‘zlarning bo‘g‘inlarga bo‘linishi tovush, bo‘g‘inning tovushlardan tuzilishi tovushlarning unli tovush va undosh tovushlarga ajratilishini o‘rgatish, ulardan amaliy foydalana olish ko‘nikmalarini hosil qilishdan iborat.

Bu bosqichdagi yozuv darslarida o'quvchilarni daftar bilan yozuv chiziqlari bilan tanishtirish, harf elementlarini yozishga o'rgatish, namunaga qarab grafik xatolarni aniqlash – o'z-o'zini tekshirish, harf oralarining tengligiga rioya qilish kabi ko'nikmalar hosil qilinadi.

Ikkinchi bosqichga 14 soat vaqt ajratiladi. Mazkur bosqichda unli tovush va unli harflar o'rgatiladi. Bunda unilarning uch xususiyatlarini: a) o'qishda to'siqqa uchramasligi; b) cho'zib aytilishi; v) tarkibida faqat ovoz qatnashishi kabilarni o'quvchilarning amaliy ravishda puxta egallashlariga erishish lozim. Shuningdek bu davrda tovush bilan harfni farqlashga o'rgatiladi.

Tovush va harf o'rtasidagi chegaraga qat'iy rioya qilinadi. Bolalarga tovush haqidagi ma'lumot kitob ochtirmay beriladi. Tovushni ifodalovchi harf ko'rsatilgach, harf ustida ishlanadi. Tovush va harfga oid xususiyatlar (tovushlarni tasavvur qilamiz, eshitamiz, harflarni yozamiz, ko'ramiz, o'qiyamiz) ham izchil o'rgatila boriladi.

Asosiy davr uchun 98 soat dars ajratiladi. Bu davrning asosiy vazifasi bolalarni o'qishga, o'qilgan bo'g'in, so'z va gaplarni berilgan namunaga qarab yozish va tekshirishga o'rgatishdir.

Savod o'rgatish darslarida o'quvchilar o'qishni yaxshi egallashlari uchun bo'g'inga bo'lish, bo'g'in chegarasini aniqlash, bo'g'indan tovushni ajratish, tovushni harf bilan ifodalash, kesma harflardan bo'g'in tuzish va o'qish, kesma bo'g'in, ulardan so'z tuzish ishlari muntazam ravishda o'tkazib boriladi.

Ma'lumki, bolalar tilni bir butun birlik sifatida tasavvur qiladilar. Ana shu tasavvuri asosida nutqning bo'laklardan tuzilishi o'rgatiladi. Bola nutqning bo'laklardan tuzilishini bilib borishi natijasida uning eng kichik bo'lagi tovush ekanini anglay boshlaydi va savod chiqarishga tayyor bo'ladi. Shundan so'ng bolaga muayyan tovush va unli ifodalovchi shakl-harf tanishtiriladi. Tayyorgarlik davrining yuqoridagi vazifalaridan kelib chiqib 1- bosqich darslari «Nutqning fonetik bo'laklarini o'rganuvchi darslar» deb nomlanadi.

Bo'g'in va so'zdan unli tovushni ajratib olishning qulayligini hisobga olib, 2- bosqich darslari «Unli tovush va harflar o'rganiladigan darslar» deb aytiladi.

Savod o'rgatish jarayonidagi darslar predmetiga ko'ra ikki turga ajratiladi:

Alifbe darsligi asosidagi o'qish darslari

Yozuv daftari asosidagi yozuv darslari.

Asosiy davr o'qish darslari yangi bilim berish bermasligiga ko'ra quyidagi turlarga ajratiladi:

Yangi tovush va harf bilan tanishtiriladigan o'qish darsi.

O'rganilgan tovush va harflarni mustahkamlovchi o'qish darsi.

Bilimlarni takrorlash, umumlashtirish darsi.

Asosiy davr yozuv darslari esa quyidagilarga ajratiladi:

Kichik va bosh harf yoziladigan yozuv darsi.

Kichik harflar yoziladigan yozuv darsi.

Bosh harflar yoziladigan yozuv darsi.

O'rganilgan bo'g'in, so'z, gaplarning yozilishini mashq qilish darslari.

Xat-savod o'rgatish jarayonida hafta oxiridagi o'qish darslarining 15-20 minuti sinfdan tashqari o'qishga ajratiladi.

Bu vazifalarning barchasi o'zaro bog'liq holda amalga oshiriladi. Ularni hal zaruriy yozuv malakalarini egallashga darslikda berilgan o'quvchilar saviyasiga mos nazariy va amaliy materialni uyg'unlashtirib o'zlashtirish ustida ishlashni maqsadga muvofiq uyushtirish, shuningdek, matnlar sifatini, topshiriqlar xususiyatini va bolalar aqliy faoliyatining o'ziga xos tomonlarini belgilaydigan qator uslubiy shart-sharoitlarga bog'liq. Bola kamolotining shakllanishi ko'p jihatdan orfografik hushyorlikga bog'liq.

Chiroyli yozish orqali bolalar boshqa fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladilar. Inson hayotida yozuv muhim o'rin tutadi, chunki u har kuni turli-tuman qog'ozlar va hujjatlardan foydalanadi. Bularning hammasi chiroyli va bexato yozishni taqazo etadi. Ammo

qisqa muddat ichida o'quvchilarda chiroyli, tez va bexato yozish malakalarini o'stirish mumkin emas, buning uchun bir necha yillik mehnat talab etiladi. Orfografik hushyorlikga o'rgatish uchun bolalarning maktabga qadam qo'ygan kunlaridan boshlab, izchil mashqlar olib borish zarur.

Husnixat malakasini shakllantirish uchun birinchi navbatda harflarning shaklini to'g'ri tasavvur etishga, bir xil qiyalikda yozishga, so'zlarda harflarni to'g'ri bog'lanishga, so'zlarni qatorlar bo'ylab to'g'ri joylashtirishga o'rgatiladi. Daftar chiziqlari birin-ketin almashuvi davomida harflarning qiyaligini va ular orasidagi masofani to'g'ri saqlash, kichik va bosh harflarning nisbatini to'g'ri chamalab yozishga o'rgatish juda muhimdir. Husnixat darslarida ma'lum guruhga oid harflarni yozishga o'rgatish o'quvchilarda uchraydigan ayrim tipik xatolarning oldini olish va tuzatish ustida ham ish olib borish lozim. Yozuv tezligi oshishi bilan ayrim bir-biriga o'xshash harflarning shaklini buzib yozish hollari uchraganda esa ularni qayta mashq qildirish kerak. Orfografik hushyorlikga o'rgatishda daftardan to'g'ri foydalanishga alohida e'tibor berish zarur. Ikki chiziqli daftardan bir chiziqli daftarga o'tganda, o'quvchilar oldiga qator vazifalar qo'yiladi. Orfografik hushyorlikga o'rgatish umumiy didaktik qoidalar bilan birga yozuv malakasini shakllantiruvchi o'ziga xos qoidalarni ham o'z ichiga oladi.

Umumiy didaktik qoidalar takroriylik, ko'rgazmalilik, yosh va o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olish, tushunarliklik, ongliklik, husnixat metodikasining maqsad va vazifalarini amalga oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Yozuvga – husnixatga o'rgatishning vazifasi harfni, so'z, gap va matnni to'g'ri va chiroyli yozishni takomillashtirishdir. Yozuvni o'rganish jarayonida o'quvchi tovushning belgisi bo'lgan harfni so'z va gapni kitobdan daftarga va xattaxtadan to'g'ri va husnixat qoidalariga rioya qilib ko'chirib yozish, yozganlarini tekshira olish va yo'l qo'ygan kamchilik va xatolarni o'qituvchi rahbarligida yoki o'zi tuzata olishi kerak.

Har bir o'quvchi u yoki bu harfni tushunib yozishni harflarning bir-biriga bog'lanishini, kichik va bosh harfning bir-biriga nisbatini, balandligini, qiyaligini, ruchkani ushlash va to'g'ri o'tirish qoidalarini yaxshi bilishi lozim.

Orfografik hushyorlikni o'rganish olingan davrida bilim va malakalar o'quvchilar uchun doimiy qoida bo'lib qolishi zarur. Orfografik hushyorlik malakalarini o'stirishda eng birinchi qoida bu ozodalik talablari va yozuvning qiyaligini to'g'ri saqlashga so'ngra harf va harf elementlari orasidagi masofani chamalab yozish malakalari singdirib boriladi. Bu qoidalar keyinchalik takomillashtiriladi. Har bir yozuv mashqi aniq maqsad asosida oson, tushunarli olib borilishi kerak. Buning uchun orfografik hushyorlikga o'rgatishning turli usullaridan foydalanish lozim. Bolalarning yozuv malakalarini hosil qilishda ularning yosh o'ziga xos xususiyatlari: barmoq va qo'l muskullarining harakat tezligi, markaziy nerv sistemasi tomonidan nerv muskullarini boshqarilishi hisobga olinishi lozim. Orfografik hushyorlik darslarida harflarning shakli ustida mashq o'tkazganda oddiydan murakkabga tomon boriladi. Chunki alifbodagi barcha harflar yozilish shakliga ko'ra guruhlariga ajratiladi. Birinchi guruhda yozilishi shakli oson, keyingi guruhlarda yozilish shakli murakkab bo'lgan harflar kiritiladi. Bunday usulda darsni tashkil etish husnixat o'qitish metodikasida genetik metod deb aytiladi.

O'qituvchi birinchi navbatda har bir o'quvchiga partada to'g'ri o'tirish qoidalarini erinmay tushuntirishi va mashq qildirishi darkor. Keyinchalik o'quvchi ruchkani qanday ushlash, daftar tutish holati hamda harflarni yozayotganligini: sekin yoki tez yozishini kuzatib borishi lozim.

Husnixat malakasini shakllantirishni faqat boshlang'ich sinfda emas, balki yuqori sinflarda ham takomillashtirib borish lozim.

Husnixat o'qitish metodikasi fani bir qator boshqa fanlar bilan chambarchas bog'liq. Estetika, fiziologiya, gigiyena, tilshunoslik kabi fanlar bilan aloqada bo'ladi. Estetika fani bilan bog'liqlik jihati shundaki, eng avvalo o'quvchilarda go'zallikka bo'lgan qiziqishlarini oshiradi. Chiroyli yozish ham go'zallikning bir ko'rinishidir. Sharq mutafakkirlaridan biri shunday degan ekanlar: «Chiroyli yozgan kishi chiroyli fikrlay oladi» Darhaqiqat o'quvchi maktabga kelgan kunidan boshlab, orfografik hushyorlik malakalari haqida tanisha boshlaydi. Undan tashqari o'quvchini chiroyli yozishga o'rgatish jarayonida bolaning har tomonlama nerv sistemasi, qo'l harakatlari va muskullari, ko'rish organlari, eshituv organlari, umurtqa pog'onasi rivojlangan bo'lishi kerak. O'quvchi shundagina husnixat malakalarini o'zlashtira oladi.

Agar o'quvchining biz yuqorida tilga olgan organlaridan biri yaxshi taraqqiy etmagan bo'lsa, u o'quvchida orfografik hushyorlik malakalari to'g'ri yo'lga qo'yilmaydi.

III BOB.

O'quvchilarni yozma nutqini va grammatikaga oid bilimlarini o'qitishga oid mashqlar. 3 -sinfda fonetika, grammatika, imlo va nutq o'qitishga 166 soat ajratilgan, shundan 28 soati bog'lanishli nutqni o'qitishga berilgan. O'quvchilarga quyidagi mazmunda bilim beriladi:

Yozma nutq va matn shaklida namoyon bo'lishi. Matn va mavzu. Matnni mazmunan tugallangan qismlarga bo'lish.

Matn qismlariga sarlavha tanlash. Matn qismlarini va har bir qismdagi gaplarni o'zaro bogliqligi. Matnning tuzilishi: *kirish qismi, asosiy fikr, oxirgi xullosa* qismi va ularni belgilash.

Xabar (hikoya) xarakteridagi matnni berilgan yoki o'quvchi o'zi tuzgan reja asosida qayta bayon qilish. Bir mavzudagi bir necha rasm, mazmunli rasm asosida, shuningdek, o'quvchilarning hayotiga yaqin bo'lgan voqealik (*o'yinlar, tabiatni kuzatish, sayohatlar*) birgalikda oldindan tayyorgarlik bilan og'zaki yoki yozma nutq tuzish. Bayon va inshoga asta-sekin tasvirlash va munozaraning bayoni sifatida 2-3 gapni qo'shib borish, malakasini shakllantirish. O'z ishlari haqida qisqa xat yozish.

Nutq madaniyati. Ogʻzaki va yozma nutqda taklif, tabrik, iltimos kabilarni ifodalaydigan soʻzlardan foydalanish. Bogʻlanishli nutqqa oid mashqlar dastur materiallarini oʻrganish jarayonida unga bogʻliq holda oʻtkaziladi.

Lugʻaviy mashqlar dastur materillarini oʻrganish bilan bogʻliq holda oʻtkaziladi.

Биринчи босқич – хулқни баҳолаш. Бунда мактаб қоидаларини билими баҳоланади. Бунда ўқув таълим олиш учун қандай бўлиш кераклигини англаб олади.

Бу оддий қоидаларнинг баъзилари қуйидагилар:

-уқув қўнғироқ орқали дарс бошланиши ва танаффус вақтини белгилайди.

-гуруҳдаги синфдошлар билан ишлашни ўрганади, шу билан бирга бошқаларга ўқишларида ҳалақит бермайди.

-дарсда фаол қатнашиб, саволлар беради ва ўзича жавоблар ўйлаб топади. Иккинчи босқич – ўқув фанларини ўзлаштириш. Бу босқич она тили дарсида «Сўзнинг товуш бўйича таҳлилий қисмида тадқиқот қилинади. Баҳо ўрнида моделлари ўрганилди. Бундай баҳолар бевосита ўтилаётган мавзуга мос бўлди.

Сўзнинг товуш таҳлилида қуйидагиларни билиш ўқитувчилар томонидан белгиланади:

-нарсани, ҳаракатни, белгиларни ифодаловчи сўзларни билиш;

-гапдаги сўзларни ажрата билиш, сўзларни ганлардан фарқлаш;

-сўзда товушларни ажарата билиш;

-унли ва ундошларни фарқлаш;

-турли ундошларни таърифлай олиш;

-сўзни товуш таҳлилини билиш.

Баҳолар кундалик блокнотларга қўшилар, болалар эса уларни иштиёқ билан бўярдилар. Вақт ўтиши билан дарс охирида хулқ учун баҳо қўйиш зарурати йўқолади.

Кунлардан бирида болалар кундалик дафтарларини олиб, муқовадаги баҳоларини тушунтира олдилар: «Бу дегани мен ўқувчи бўлдим» дегани.

Сўнг улар ўзларига ўзлари баҳо қўядиган бўладилар.

Ўқитувчилар тараққийлашган ўқув тизимида олиб борган тадқиқотлари қуйидаги хулосаларга олиб келди.

Биринчидан, бундай баҳо қўйиш болаларнинг баҳо олиш истагини қониқтиради ва ўқитувчининг ўқувчи меҳнатига муносабатини кўриш имкониятини беради.

Иккинчидан, баҳо ўқувчиларга тушунарли бўлди ва баҳо олиш учун меҳнат қилишини кўрсатади.

Ўқитувчи ва ўқувчининг баҳони «ўқиши» бир-бирига жуда яқин бўлиб қолди.

Шундай қилиб, биз «Эврика-тараққиёт мактаби ўқитувчиларининг изланишлари қайси йўналишда олиб борилгани, тараққийлашган ўқув тизимидаги аниқ муаммоларга тўхталиб ўтдик.

«Эврика-тараққиёт» мактабидаги тизимда ўқув услубларининг яна бир мисолни бошланғич мактабларда Л.Н.Толстой услубидаги эркин ўқув лойиҳаси ҳисобланади. Бу лойиҳа экспериментал мақомида бўлиб, Эльконин -Давўдовларнинг тараққийлашча тизими сингари назарий асосларга эга эмас. Лекин бир гуруҳ ижодкор ўқитувчилар Толстойнинг Яснополянадаги мактабида мавжуд бўлган эркин таълим тизимини қайта тиклашга ҳаракат қилдилар, бунда Толстойнинг болага қарашларини ва уларнинг дунёқарашини ҳисобга олган ҳолда фанларни мантиқий асосда ўқитишга эътибор қилди.

Толстой сўз ва матн устида ҳеч ким бундай мукамал ишлаган эмас. Толстойнинг сўз билан ишлаш кўлами жуда улкан бўлиб, «Азбукадан, ўқиш китобидан» бадий сўзнинг энг юқори чуққиларигача боради.

Монтессорлар-ижтимоий дидактик воситалар бўлиб, бола у орқали атроф муҳитни англай бошлайди. Толстой тизимида матн ана шундай восита бўлиб хизмат қилади.

Ўқитувчиларимиз Толстойнинг фалсафий қарашларини инобатга олган ҳолда замонавий таълим стандартлари асосида, ўқиш анъаналарига мос равишда дарслар мазмунини шакллантира бошладилар.

Шундай қилиб, она тили дарсларида оғзаки сўзлашув, ёзма сўзлашув ва ўқиш фанлари киритилди. Анъанавий бошланғич мактабда оғзаки сўзлашув билан алоҳида шуғулланмайдилар. Эркин ўқув тизими ўқитувчилари сўзлашиши ҳисобланмайди. Шунинг учун кўпгина болалар матнни айтиб беришда қийналадилар. Тараққийлашган ўқув тизимида болаларга матнни сўзлашгина эмас, балки уни тушунишга ўргатилади.

Матн дегани нима, матннинг қандай турлари бўлади. Лекин ўқитувчилар фикрига бу муаммони тулиқ ҳал қилмайди.

Бошланғич мактабда сўзлашувни (тилни) ривожлантириш-асосий тил амалиётини вужудга келтириш демакдир.

Толстойнинг Яснополяна мактабида тилни ривожлантириш дарслари бўлмаган, чунки деҳқон болалари 8-9 ёшларида оғзаки сўзлашувлари маълум даражада ривожланган бўларди.

Хозирги болалар эса оғзаки тиллари фақат уйи шароитида ривожланган бўлади. Улар сўз ўйинлари ва етарли кенг сузлашув, тил тажрибасига эга эмаслар. Болалар афсона, хотиралардан йироқлар. Л.М.Долгова гуруҳида эркин ўқитув ўқитувчилари гапириб бериш орқали мактабгача ёшдаги болаларнинг тилларини ривожлантиришга ҳаракат қилдилар.

Дарс асосан уч йўналишда ўтказилади.

1. Кичик жанрлар (топишмоқлар, шеърлар) орқали сўз ўйинлари. Улар оғзаки ёдланади ва кўшимчалар киритилди. Шу билан бирга кофия, матн ҳусиятлари, кичик матнлар мазмуни муҳофаза қилинади.

2. Матн ва шеърларни болалар томонида драматик йўналишини:

3. Афсоналар, дostonлар ва бошқа фольклор, халқ, оғзаки ижоди намуналарини ўрганиш;

Бу иш икки босқичдан иборат.

Биринчи босқичда катталар яхши матнларни болаларга айтиб беришади, болалар эса тушунганларини айтадилар.

Иккинчи босқич-болалар оилаларида, ўз ҳаётларида содир бўлган воқеалар тўғрисида гапириб берадилар.

Бундай дарсларнинг асосий услуби таҳлил қилишдир.

Л.С.Вүгодский *айтганидек, Таҳлил қилиш маданий ривожланишнинг асосий йўналишларидан биридир.

Мумкин бўлган таҳлил доираси шахсий имкониятлар доирасига мос келади. Таҳлил маълум даражада ўзгалар ҳаракати аҳамиятини тушунишдир. [15].

Ҳақиқат, сўзлашувни ташкил қилиш энг аввало уни мазмунига боғлиқ. Бу, биринчидан катталар томонидан бундай дарсларнинг сезиш (китобсиз мустақил сўз манбаи сифатида);

Иккинчидан, ёрдамчи матнлар сифати, яъни мулоқат учун ўқитувчи томонидан тузилган матнлар.

Учинчидан, мулоқатдан чиқиш ва кириш эркинлиги (ҳеч ким мажбур қилмайди ва бола дарсда мулоқатга киришади).

Yozuvga oid malakalarni mustahkamlash. Bolalarni bir chiziqli daftarda yozishni mashq qildirish(harflarning balandlik va kenglik o'lchamini o'zlashtirish) . O'quvchilar uchun qiyin bo'lgan ayrim bosh va kichik harflarni , harflar birikmasini yozishga, shuningdek, harflarni to'g'ri ulanishiga rioya qilish.

Bogʻlanishli nutqqa oid mashqlar dastur materiallarini oʻrganish jarayonida unga bogʻliq holda oʻtkaziladi.

Oʻquvchilarning bilim, koʻhikma va malakalariga qoʻyiladigan talablar:

Bilishi kerak:

- gap, gapning ifoda maqsadiga koʻra turlarini (*darak gap, soʻroq gap, buyruq gap*) his-hayajon gapni;

- gap boʻlaklarini, bosh boʻlaklar (ega, kesim) va ikkinchi darajali boʻlaklarni;
- oʻzak, oʻzakdosh soʻzlar; soʻz yasovchi qoʻshimchalar, soʻz oʻzgartuvchi qoʻshimchalarni;
- soʻz turkumi; ot otlarda birlik va koʻplikni, ot yasovchi qoʻshimchalarni;
- sifat, sifat yasovchi qoʻshimchalarni;
- son, sanoq sonlar, tartib sonlarni;
- feʼl, boʻlishli va boʻlishsiz feʼllarni, feʼl yasovchi qoʻshimchalarni.

Koʻhikmalarni egallashi kerak:

- nutqda gap uning turlaridan foydalana olish;
- matnlarni mavzuga koʻra farqlay olish;
- matnni mazmunan tugallangan qismga ajrata olishni;
- matn qismlariga sarlavha tanlay olish, asosiy fikr, oxirgi hullosa qismi va ularni belgilashni;
- gapdagi gap boʻlaklarini aniqlay olishni;
- soʻzlarni tarkibiga koʻra tahlil qilishni bilishi, toʻgʻri qoʻllay olishni;
- soʻzni imloviy toʻgʻri shakllantirishni;
- otlardagi koʻplik qoʻshimchasini toʻgʻri talaffuz qilishni va yozishni;
- tartib sonlarni hosil qiluvchi qoʻshimchalarni toʻgʻri yoza olishni;
- *ma* boʻlishsizlik feʼl hosil qiluvchi qoʻshimchalarni toʻgʻri yoza olishni va yozishni;
- soʻz yasovchi qoʻshimchalar asosida *ot, sifat, feʼl* turkumlarini yasay olishni.

Malakani eʼgallashi kerak:

- berilgan matnni reja va jamoa boʻlib tuzilgan reja asosida qayta ogʻzaki va yozma bayon qilishi;

- biror mavzu doirasida 5-6 gapli bogʻlanishli nutq tuza olishi va maʼlum tayorgarlikdan soʻng uni yoza olishi;

- xat yoza olishi;

- nutq madaniyati ogʻzaki va yozma nutqda taklif, tabrik, iltimos kabilarni ifodalay oladigan soʻzlardan foydalanishi.

4-sinfda fonetika, grammatika, imlo va nutq oʻstirishga 166 soat ajratilgan, shundan 28 soati bogʻlanishli nutqni oʻstirishga berilgan. Oʻquvchilarga quyidagi mazmunda bilim beriladi:

Nutq, matn va gapni farqlash. Ogʻzaki va yozma nutqni toʻgʻri shakllantirish. Matn mazmunini qayta hikoyalatish. Matndagi asosiy fikrni aniqlay olish. Matnning tuzilishini aniqlash, uni qismlarga ajratish, ular orasidagi bogʻlanishni izohlay olish. Matnga sarlavha topish.

Taʼlimiy bayon. Berilgan matn asosida hikoya yozish; muhokama va tasvir janri elementlari qatnashgan bayon yozish. Matnni qisqartirib, ijodiy qayta hikoyalash asosida bayon yozish. Tanlab qayta hikoyalash asosida bayon yozish.

Taʼlimiy insho. Qismli (qismlarga ajratib berilgan) rasmlar va mavzular bitta rasmda ifoda etilgan koʻrinish asosida, shuningdek, oʻqilgan, kuzatilgan, eshitilgan, koʻrilgan voqea va

hodisalar asosida material to'plash, reja va shu asosida insho yozish. Bayon va insho rejalarini tuzishda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga yo'llash.

O'quv yili davomida o'rganiladigan imlosi qiyin so'zlar: agronom, akvarium, antenna, artist, astoydil, atele, avtomobil, avtonazoratchi, bashariyat, binafsha, boychechak, brigada, daromad, dastyor, dastlab, dehqon, depo, dirijyor, dollar, domino, do'kon, ehtiyoj, ehtiyot, ekskavator, eskalator, e'zozlamoq, fabrika, faoliyat, faxrlanmoq, ferma, festival, firma, fonarcha, futbol gavjum, giyoh, gramm, go'sht, hadya etmoq, handalak, haqiqat, harbiy, hayvonot, hasharot hikoya, hofiz, hudud (chegara), hunarmand, hunarmandchilik, hurriyat, ikkita, ilm-ma'rifat, iste'dodli, ishonch jarroh jahon, jayron, jonivor, kasseta, kilogramm, kilovatt, kofe, kolleksiya, kosmonavt, kungaboqar, ko'hna (qadimgi), la'l (qimmatbaho tosh), leytenant, madhiya, majmua, masjid, mavsum, mayor, mehnatsevar, mehribon, mehr-oqibat, metall, metro, me'mor, militsioner, muhandis, murojaat qilmoq, muvaffaqiyat, mo'jiza, na'matak, ne'mat, nomzod, nota, ohangrabo, oromgoh, parashyut, patent, payvandlamoq, piyola, pomidor, portfel, proyektor, pulemyot, qahramon, qandil (lyustra), qimmatbaho, qumursqa, rassom (musavvir), rostgo'y, ruhlanmoq, sabzavot, samolyot, samovar, sellofan, sentner, seyalka, sport, suxandon (diktir), tabiat, tanaffus, tashakkur, taassurot, telefon, tennis, termos, tramvay, transport, trolleybus, ufq, urfodat, vagon, velosiped, vokzal, voleybol, xursand, xayrlashmoq, xiyobon, xizmatchi, xohlamoq, xokkey, yelpig'ich, yiroq (uzoq), yop-yorug', zehnli, ziyrak, zog'orabaliq, zag'cha, o'qariq, o'chirg'ich, g'amxo'r, g'ijjak, g'ilof, g'o'zapoya, shaxmatchi, shifer, charm, choyshab, cho'tka. (Bu xildagi so'zlar darslikning oxirida lug'at sifatida berilgan).

O'qitish tamoyili nima? “O'qitish tamoyili” deganda dars samaradorligini ta'minlash, qoidalar tushuniladi. O'qituvchi ta'lim ishini tashkil etar ekan, ana shu qoida va talablardan kelib chiqadi va ular o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlagan holda amalda tadbiiq etish orqali ko'zlangan maqsadga erishadi.

Ta'lim jarayonida darsni tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishda o'quvchi va o'qituvchi faoliyatiga qo'yiladigan talablar, didaktik qoidalar ta'lim prinsiplaridir. Mazkur prinsiplar har bir o'quv predmetida o'ziga xos tatbiq etiladi. Bu tamoyillar umumdidaktik tamoyillardan o'zgacha bo'lib, o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi o'quv mehnatining yo'nalishlarini belgilab beradi.

Ona tili o'qitish tamoyillari quyidagilar:

O'qitish tamoyillari	Mazmuni	Masalan
1. Til materialiga, nutq organlarining o'sishiga, nutq malakalarining to'g'ri rivojlanishiga e'tibor berish tamoyili	Eshituv va ko'ruv ko'rsatmaliligini ta'minlashni va nutq organlarini mashq qildirishni talab etadi.	Gapirib berish, ifodali o'qish, ichida gapirish
2. Til ma'nolarini tushunish tamoyili	So'zni, morfemani, so'z birikmasini, gapni tushunish borliqdagi ma'lum voqea-hodisalar o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash demakdir. Bu tamoyilga amal qilishning sharti tilning hamma tomonlarini, tilga oid barcha bo'limlarni o'zaro bog'langan holda o'rganish.	Morfologiyani sintaksisga tayangan holda o'rganish (so'z turkumlarining gapdagi vazifasi), so'zni morfemik tahlil qilish orqali uning ma'nosiga tushunish.
3. Tilga sezgirlikni o'stirish tamoyili	Tilnin tuzilishi, izchil tizimini fahmlab olmay turib uni yodda	Gaplashish, o'qish, eshitish.

- | | | |
|--|---|---|
| | saqlab bo'lmaydi. | |
| 4. Nutqning ifodalililigiga baho berish tamoyili | Til hodisalarini tushunmay turib savodli yozish, nutq madaniyati vositalarining xabar berish vazifasini tushunish bilab bir qatorda uning ifodaliligini tushunishni, mazmuninigina emas, balki so'z va nutq birliklarining, tilning boshqa badiiy-tasviriy vositalarining hissiy bo'yqadorligini ham tushunishni ko'zda tutadi. | Badiiy adabiyotlardan, tilning uslubiy xususiyatlari aniq ifodalangan boshqa matnlardan foydalanish mumkin. |
| 5. Og'zaki nutqni yozma nutqdan oldin o'zlashtirish tamoyili | Kishi nutqining rivojlanishiga ta'sir etadi va til o'qitish metodikasini tuzishda xizmat qiladi. | Rasm asosida suhbat, savollarga javob, og'zaki hikoyalar tuzish. |

Til hodisalarini o'rganishda eng samarali va sinalgan grammatik vositalardan biri ko'rgazmali kommunikativ jadvallardir.

Kommunikativ jadvallar ishlatilishi maqsadiga ko'ra turlicha bo'ladi:

1. Leksik jadvallar.
2. Fonetik jadvallar.
3. Grammatik jadvallar.
4. Imloviy (orfografik) jadvallar.
5. Stilistik uslubiy jadvallar.
6. Aralash jadvallar (imlo va so'z yasalihi fonetika va so'z tarkibi)

Jadvallar yasalgan materialiga ko'ra ikki xil ko'rinishda bo'ladi.

1. Bosma (grafik) jadvallar (har xil hajmli oq qog'oz yoki materialga ishlanadi)
2. Slayd jadvallar (rangsiz kleyonkaga rangli tasvirda tushuriladi)

Bundan tashqari hozirgi o'zbek adabiy tilini o'rganishda zamonaviy texnika vositalari bo'lmish:

1. Lingafondan foydalanish ya'ni eshituv a'zolari orqali to'g'ri talaffuzki, qiroat san'atini o'rganish;
2. Video kurs: o'zbek tilining talaffuz me'yorlari audio-video muloqotini o'rganish.
3. Kommunikativ savodxonlikni ta'minlashga qaratilgan kompyuter o'quv dasturlaridan foydalanish yaxshi natijalarga olib keladi. Masalan:
 - imloviy dasturlar (bunda o'quvchining imlo savodxonligini oshirishga qaratilgan o'quv mashqlari disketlarga joylanadi);
 - fonetik hodisalar kompyuter dasturi (bunda fonetika bo'yicha o'quv mashqlari disketlarga beriladi);
 - Grammatik dastur (morfoligiya va sintaksis o'quv topshiriqlari tuzilib, disketlarga joylashtiriladi);
 - Stilistik (uslubiy) dastur. Bunda o'quvchining uslubiyat bo'yicha egallagan bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, so'z tanlash, gapni kengaytirish va ixchamlashtirish, berilgan matnni davom ettirish va matn yaratishning bosqichli tizimi (MYaBT) ustida ishlash uchun mo'ljallangan savol va topshiriqlar, mashqlar, ma'rifiy hamda topshiriqli rasmlar (mustaqil matn yaratish uchun) beriladi.
 - Audio-vedio dasturlar. Ularda muayyan bir sharoitda bo'lib o'tgan uchrashuvlar, ilmiy-amaliy kengash va anjumanlar, marosimlar (yubiley, to'y,

kelin salom, beshik to`yi); bayramlar – Mustaqillik kuni, Navro`z taronalari, yangi yil oqshomi, bitiruvchilar kechasi (oqshom) tasvirlari videotasmalarga tushirilib, videokassetalarga tartib bilan joylahtiriladi.

Yuqorida keltirilgan o`quv dasturlaridan 1-, 2-, 3 – si so`z boyligini oshirish, fonetika, orfoefiya, leksikologiya, morfologiya, va sintaksis yuzasidan egallangan bilim, malaka va ko`nikmalarni mustahkamlash uchun tavsiya etilgan bo`lsa, 4- va 5- dasturlar o`quvchining yozma va og`zaki nutqini shakllantirish, matn yaratish malakalarini rivojlantirish uchun mo`ljallangan.

Bundan tashqari hozirgi o`zbek adabiy tilini o`rganish jarayonini kodoskop, mul`timedia, “Videoglaz” kabi zamonaviy va zaruriy o`quv texnikasi bilan ta`minlanishi, ularning o`quv muassasalarida mavjud bo`lishi hamda amaliyotga tatbiq etilishi bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Ona tili darslarida, kodoskop va videoglaz singari o`quv texnikasidan samarali foydalanish mumkin. Chunonchi, kodoskop yordamida slayd – jadvallarni maxsus ekranga tushirish mumkin bo`lsa, videoglaz barcha tasviru – yozuvlarni, ko`zga ko`rinadigan barcha jonzotu mavjudotlarni, test topshiriqlaridan tortib, insho matnlarigacha teleekranga chiqarib berishi mumkin.

Orfografik hushyorlikni shakllantirishda didaktik o`yinlar

Orfografik hushyorlikga oid kamchiliklarni (harflarning qiyaligiga yetarli e`tibor birmaslik, balandlik va kenglik o`lchamini, shaklini buzib yozish kabi) shuningdek har qaysi bolaning yozuviga xos bo`lgan boshqa xatolarni tuzatish yuzasidan ayrim guruh o`quvchilari bilan birgalikda va yakkama-yakka mashqlar ham o`tkazib boriladi. Shu maqsadda yozuv malakalarini ko`rsatib berish bilan birga sinfdagi barcha o`quvchilarning daftarini har kuni tekshirib borish, chiroyli va savodli yozishga oid mashqlar yordami bilan ham ona tilidan o`rganilgan bilimlarni mustahkamlab borish tavsiya etiladi.

Doimiy tekshirish va baholash berilgan bilimlarning o`zlashtirilishini ta`minlovchi ta`limiy shartlardan biridir. Ona tilidan o`rganilgan bilimlarni o`quvchilar qanday o`zlashtirganini aniqlash uchun yozma ish-mashqlarining asosiy turlari bo`lgan ko`chirib yozish ta`limiy (ta`kidiy izohli, rasm, lug`at, ijodiy, erkin) va tekshirish diktantlari hamda ta`limiy bayon va insholardan foydalaniladi DTS da ta`kidlanganidek.

Tekshirish maqsadida o`tkaziladigan yozma ishlarda so`z soni 3 sinfda 10-12, 4 sinfda 12-15 so`z tekshirish diktanti uchun tanlanadigan matndan so`z soni: o`quv yilining I yarmida (25-30) 45-55, II yarmida 55-65 so`z, 4 sinfda o`quv yilining I yarmida 65-70, II yarmida 75-80. Bayon: 3- sinfda 65-70 so`zli matn yuzasidan birgalikda tuzilgan reja asosida bayon yozish so`ngra mustaqil ravishda tuzilgan reja asosida bayon yozdiriladi.

O`quvchilarni har bir darsda kitob bilan ishlashga (o`rganilayotgan mavzuni, kerakli qoidani, mashqni tezda topishda, mashq topshiriqlarini tartib bilan izchil bajarishga); bajarilayotgan mashqlarning maqsadini (nimaga o`rgatishni) tushunishga o`rgatiladi.

O`quvchilarda bilim jarayonini faollashtirish va ona tilidan beriladigan bilimlarni puxta o`zlashtirish uchun ta`limiy qatnashadigan turli qiziqarli mashqlar, boshqotirma (krossvod – kataklarni harf bilan to`ldirib, o`ylangan so`zlarni topishga oid topishmoq); sharada-mustaqil ma`noga ega bo`lgan bir necha so`zdan tuzilgan so`zni topish (belbog`, gultojixo`roz); rebus – so`z yoki gapni shakl, harf belgilar bilan ifodalaydigan topishmoq; har xil ko`rgazmali qurollar, texnik vositalardan foydalanish va darsda ish turlarini xillashtirish orqali bolalarga charchashning oldini olishga hamda dasturda tavsiya etilgan ta`limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarni birgalikda hal etish zarur.

III sinfda ham orfografik hushyorlikga o`rgatishni ona tili darsi bilan bog`liq holda olib boriladi, bu sinfda bir chiziqli daftarga kichik harflarni 3 mm balandlikda, bosh harflarni esa 7

mm balandlikda yozish malakasi hosil qilinadi. Bu sinfda o'qituvchi, harflarning yozilishini va o'lchamlarini tushuntirish bilan bir qatorda, quyidagi talablarni eslatib turishi lozim:

1. Partada to'g'ri o'tirish, ruchkani to'g'ri ushlash, daftarni to'g'ri tutish
2. O'quvchilarni mayda harflar bilan yanada tezroq yozishga o'rgatish.
3. Kichik harflarni bir xil balandlikda, bosh harflarni bir xil balandlikda bir tekis qilib yozishga o'rgatish.

4. Tez yozishga o'rgatuvchi mashqlarni muntazam o'rgatish.

5. Ayrim kichik va bosh harflarni tez yozish uchun moslashtirish.

Bu sinfda o'quvchilarning yozuv grafikalarini mustahkamlash uchun ularga ko'proq ko'chirib yozish mashqlarini berish va yozuv tezligini hisobga olib borish lozim. Tez yozish malakasini hosil qilish uchun qo'l va barmoq muskullari harakatini o'stiruvchi mashqlarni bajarish: ayrim kichik va bosh harflarning yozilish texnikasini ko'rsatish kerak bo'ladi.

Bunday mashqlar o'quvchilarning chamalash qobiliyatlarini o'stirishga, harflarni bir-biriga tez bog'lab, yozishga o'rgatishda katta yordam beradi.

O'quvchilar tayyorgarlik mashqlarini bajarib bo'lganlaridan so'ng asta-sekin yozuv tezligi oshib, tez yozish malakasi hosil bo'la boradi. Bu davrda yozishga o'rgatish uchun quyidagi malakalar hosil qilinishi zarur:

1. Harflarni qo'l harakatini uzmasdan tez-tez bir-birga bog'lab yozish.

2. Bosh va kichik harflarni bir-birga bog'lab yozish.

3. Matnga qarab ko'chirib yozish. (Matnlarni «Husnixat» yoki «O'zbek tili» darsliklaridan olish, ayrim hollarda doskadan ko'chirib yozish ham mumkin.

Tez yozish ko'nikmasi 1-3- sinflarda ham ma'lum darajada hosil qilingan. Endilikda bu ko'nikma alohida mashqlar berish orqali mustahkamlanadi, yozuv tezligi esa asta-asta ortib boradi. Bu mashqlarni bajarishda, chamalash qobiliyatini o'stirishga alohida e'tibor berish zarur.

O'quvchilar 1-3- sinflarda elementlarini ajratib yozgan ayrim harflarni 3- sinfda bog'lab yozishga o'rganadilar.

3- sinfda ham ayrim murakkab harflarni alohida yozdirib, mashq qildirish mumkin. Bunda har bir qatorda 12-14 ta bosh harf yozdirish kerak. Agar bundan ko'p yozilsa, harflar orasidagi masofa va harflarning eni tor bo'ladi, bundan kam yozilsa, aksincha, keng bo'lib qoladi.

U U U U U U U U U U U U - to'g'ri

U U U U U U U U U U U U - to'g'ri

U U U U U U U U U U U U - noto'g'ri

Huddi shuningdek, so'zlarni yozishda ham harflarni juda zich yoki ularning orasini keng qilib yubormay bir me'yorda yozishga odatlanish zarur. So'zlarning orasidagi masofa esa bir xilda saqlanishi (5-6 mm dan oshmasligi, bundan oz ham bo'lmasligi) kerak.

Xatning chiroyli chiqishida harflar va so'zlar orasidagi masofa bir xilda katta rol o'ynaydi. Shuning uchun 3 sinfda bu masalaga alohida e'tibor berish lozim.

Masalan:

Lola – mening dugonam. - to'g'ri

L o l a – m e n i n g d u g o n a m . - to'g'ri

L o l a – m e n i n g d u g o n a m . - noto'g'ri

So'zlarni qatorga to'g'ri joylashtirish malakasi ko'proq ko'chirib yozuv mashqlari orqali hosil qilinadi. Uchinchi sinfda bosh harflarning yozilishini ko'proq mashq qildirish lozim. Bosh harflarni mashq qildirish orqali ayrim ish qog'ozlarini xat, adres va hokazo yozish qoidalari ham tushuntiriladi. Bunday ish qog'ozlarini aniq, ozoda va to'g'ri bajarish shu sinfdan boshlab talab etiladi.

3- sinfda yozuv bilan bog'liq bo'lgan har bir dars husnixat talablaridan chetda qolmasligi kerak.

Ma'lumki, yozuv san'atning bir turidir. Yozuv insonning his-tuyg'usi hamda ruhiy qiyofasini namoyon qiladigan sifatlardir. Bu sifatlarni amalga oshirish esa ona tili fanining maqsadlaridan biridir.

O'quvchini orfografik hushyorliki va savodli yozishga o'rgatish albatta boshlang'ich sinflarda amalga oshiriladi. Bola bu davrda so'zlarni yozuv taxtasidan va kitobdan ko'chirib to'g'ri yozish malakasini egallaydi. Asta-sekin so'z birikmasi, gap tuzishni o'rganadi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni grammatikaga oid bilimlarini o'rgatish va ularni yozma nutqlarini shakllantirishda yozma ishlar alohida o'rin tutadi. Bular – ko'chirib yozish, diktant, bayon, insho tarzida amalga oshiriladi.

Bolalar savodxonligini oshirishda foydali bo'lgan mashqlardan biri – yozma ishlardir.

Uni o'tkazishda o'quvchilarning imkoniyatlarini hisobga olish, aniqlikka e'tibor berish soddadan murakkabga qarab borish muhim ahamiyatga egadir.

Yozma ishlar quyidagi shakllarda bo'ladi: mashqlar ko'chirib yozish, diktant, bayon, insho. Mashqlar o'quvchining ona tilidan olgan bilim va malakalarini mustahkamlash maqsadida qo'llaniladi.


Mashqlar bajarish natijasida o'quvchilar:

- a) olgan bilimlarini ongli o'zlashtira boradilar,
- b) bilimlarni amalda qo'llay oladilar,
- v) savodli fikrlash malakalari ham orta boradi.

Mashq bajarish jarayonida til faktlarini doimo kuzatib boradilar, taqqoslaydilar va nihoyat umumlashtiradilar.

Yozma va og'zaki nutq madaniyatlarini takomillashtirish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Mashqlar o'quvchilarning mustaqil fikrlash bilimlarini ongli o'zlashtirish faoliyatlarini yaxshilaydi. Analitik-sintetik (tovush-tarkib) tovush metodiga K.D.Ushinskiy asos solgan. Bu metod hozirgi kunga qadar ancha takomillashdi. Shu bois analitik-sintetik tovush metodining ba'zi bir jarayondagi tamoyillari quyidagilardan iborat:



Har bir tamoyilning o'ziga xosliklarini ko'rib chiqsak:

1. Savod o'rgatishda analitik-sintetik tovush metodi **shaxsni shakllantirish maqsadiga ko'ra**:

- ta'limiy va o'stiruvchi xarakterda bo'ladi;
- nutqiy mashqlar orqali aqliy o'sishni ta'minlaydi;
- o'qishning ongli bo'lishini talab etadi.

2. Analitik-sintetik tovush metodi tashkiliy tomondan quyidagi ikki davrga bo'linadi:

- a) alifbegacha tayyorlov davri;
- b) alifbo davri.


Bunda yozuvga o'rgatish o'qishga o'rgatish bilan parallel holda olib boriladi.

3. Analitik-sintetik tovush metodida psixolingvistik nuqtai nazardan quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

- savod o'rgatish bolalarning jonli nutqiga, ular egallagan nutq malakasiga asoslanadi;
- savod o'rgatishga tovush asos qilib olinadi. Unda tovushni ajratishga, analiz va sintez qilishga, tovushlar artikulyatsiyasiga, bolalarda fonematik eshitishni rivojlantirishga katta e'tibor beriladi;
- o'qitish birligi sifatida bo'g'in olinadi. Bo'g'in ustida ishlashga katta ahamiyat beriladi.

Metodning shakllanish va tashkil topish jarayonidagi tamoyillari quyidagilardir:

Analitik-sintetik metodning shakllanish va tashkil topish jarayonidagi tamoyillari



Ta'lim jarayonida o'quvchilarga tarbiya ham berib boriladi. Tarbiyalash didaktikaning muhim tamoyillaridandir. Bunda "Alifbe" sahifalarida keltirilgan turli mavzulardagi matnlar va rasmlardan unumli foydalanish tavsiya etiladi. Demak, bolalarga axloqiy, g'oyaviy-siyosiy, mahnat va estetik tarbiya berish ham savod o'rgatish vazifasiga kiradi.

Analitik-sintetik tovush metodida savod o'rgatish jarayoni 4 oy davom etadi. Bu jarayon 2 davrga bo'linadi:

a) alifbegacha tayyorgarlik davri (2 hafta)

b) alifbo (asosiy) davr 31 dekabrgacha davom etadi. (120 soat 60 soat o'qish, 60 soat yozuv darsi)

Alifbogacha tayyorgarlik davri 2 bosqichga bo'linadi:

a) tovush-harf yozilmaydigan bosqich (2 hafta) o'qish darsi (8 soat)

b) harf yozilmaydigan bosqich (2 hafta) yozuv darsi (8 soat)

Savod o'rgatish jarayonidagi darslar faniga ko'ra ikki turli:

A) "Alifbe" darsligi asosidagi o'qish darslari

B) "YOzuv daftari" asosidagi yozuv darslari

1-bosqichning asosiy vazifasi o'quvchilarni maktab, sinf bilan tartib-intizom qoidalari bilan tanishtirish. Ularga nutq, og'zaki va yozma nutq haqida gap, nutqning gaplardan tuzilishi, so'z, gaplarning so'zlardan tuzilishi; bo'g'in, so'zlarning bo'g'inlardan tuzilishi, so'zlarning bo'g'inlarga bo'linishi; tovush, bo'g'inlarning tovushlardan tuzilishini; tovushlarning unli tovush va undosh tovushlarga ajratilishini o'rgatish, ulardan amaliy foydalana bilish ko'nikmalari hosil qilishdan iborat. Bu davrda maxsus nusxalar asosida o'quvchilarning bog'lanishli nutqi ustida ishlanadi. Ularga "Alifbe"da berilgan rasmlar asosida hikoyalar tuzdirishdan tashqari, o'zlari bilan she'r,ertak, hikoya, tez aytish, maqol, topishmoq, xalq ashulalari, alla, qo'shiqlar, latifalardan aytirish lozim.

Tayanch so'zlar asosida gap tuzdirish, "Alifbe"sahifalaridagi so'zlar, ularning ma'nolari ustida ishlash kabi ishlar uyushtiriladi. (Bu tarzda ishlar har bir darsda mavzularga bog'liq ravishda izchil davom ettirib boriladi)

Bu bosqichdagi yozuv darslarida o'quvchilarga daftar bilan, yozuv chiziqlari bilan tanishtirish, harf elementlarini yozishga o'rgatish, namunaga qarab grafik xatolarini aniqlash – o'z-o'zini tekshirish, harf oralarining tengligiga rioya qilish kabi ko'nikmalar hosil qilinadi. 2-bosqichda harf elementlarini yozishga o'rgatiladi.

SHuningdek, bu bosqichda tovush bilan harfni farqlashga o'rgatish ko'zda tutiladi. Bu bosqichdayoq tovush va harf o'rtasidagi chegaraga qat'iy rioya qilinadi. Bolalarga tovush haqida ma'lumot kitob ochirilmay beriladi. Tovushni ifodalovchi harf ko'rsatilgach, harf ustida ishlanadi. Tovush va harfga oid xususiyatlar (tovushlarni talaffuz qilamiz, eshitamiz, harflarni yozamiz, ko'ramiz, o'qiymiz) ham izchil ravishda o'quvchilarni o'zlashtirishlarini hisobga olgan holda ochila boriladi.

Alifbo davri. Bu davr 31 dekabrgacha davom etadi. Unda asosan o'quvchilar unli, undosh tovush va unli, undosh harflar bilan tanishtiriladi. Unli va undoshlar osondan qiyinga tamoyili asosida joylashtiriladi. A, o, i unilari, undoshlar oldin sonor tovushlar (n, m, l) e, o', u unilari keyin esa b, k, d, t, s kabi undoshlar so'ngroq ikki tovushni ifodalaydigan j, harf birikmalarini (ng, ch, sh), tovush bildirmaydigan harf – tutuq belgisi bilan tanishtiriladi. Tovush va harfni yaxshi tanishlari, elementar o'qishni muvaffaqiyatli egallashlari uchun bo'g'inga bo'lish, bo'g'in chegarasini aniqlash, bo'g'indan tovushni ajratish, tovush va harf munosabatini aniqlash, kesma harflardan bo'g'in tuzish va o'qish, bo'g'in-tovush, tovush-harf, tahlili kabi mashqlardan foydalaniladi.

Bu davrda bo'g'inlab o'qish asosan shakllantiriladi: ikki harf yopiq, ikki harfli ochiq, uch harfli yopiq bo'g'inlar (il, ol, la, lo, nom, lim) o'qishga o'rgatiladi.

Alifbo davrini o'rganiladigan tovush-harfning murakkablini hisobga olib 3 bosqichga ajratish mumkin;

1-bosqichda o-na, a-na, il, in, bi-lan, tuzilishidagi so'zlar;

2-bosqichda echki, un, o'n kabi artikulyasiyasi qiyin bo'lgan r, q, v, f kabi undoshlar va yo'lbars, do'st, rasm kabi tuzilishidagi so'zlar;

3-bosqichda harf birinmalari ng, ch, sh 2 tovushni ifodalaydigan j, tutuq belgisi va jurnal, jirafa, tong, so'ng, bodring, choynak, shudring kabi so'zlar o'qishga o'rgatiladi.

Alifbe davrining oxirida o'quvchilar quyidagi bilim va ko'nimalarga ega bo'lishlari zarur:

f) hamma tovushlarni tanishi va har qanday holatda to'g'ri talaffuz qilishi;

b) so'zni bo'g'in, tovush, tovush-harf tahlilini bilishi so'zdagi tovushlarning izchil tartibini aniqlay olishi, kerakli tovushni so'z va bo'g'inga ajrata olishi;

v) kesma harf va bo'g'inlardan so'z tuza olishi va o'qishi;

g) 2-3-4 bo'g'inli so'zlarni bo'g'inlab o'qishi, adabiy-orfoepik talaffuz bilan o'qishi;

d) gaplarni ohangiga rioya qilib o'qishi;

e) o'qigan matnining mazmunini tushunib, ongli o'qishi;

j) o'qigan matn mazmunini savollar asosida soddagina qilib qayta hikoyalab berishi;

z) o'qigan matniga sarlavha topishi;

i) to'g'ri, tez, ongli va ifodali o'qish malakalari shakllantirilishi.

Alifbo davri yozuv darslarining vazifasi – kichik va bosh yozma harflarni to'g'ri shakllantirish, harflarni to'g'ri ulash, alifbeda o'qilgan bo'g'in, so'z va gaplarni namunaga qarab yozish, harf, bo'g'in, so'z, gap diktantlarni yozish ko'nikmasini shakllantirish, izohli, saylanma, ko'ruv, ta'limiy, diktant yoza olishlariga erishish, umuman grafik malakani shakllantirish. Savod o'rgatish jarayonining oxirida bir darsda, agar darsning 3\2 qismi yozuvga ajratilsa, 20 tagacha so'z yoza olishlari talab qilinadi.

Ma'lumki, 1-sinfga o'quvchilar har xil tayyorgarlik bilan keladi. O'quv materiallari 1-sinf o'quvchilari saviyasiga mos, izchil ravishda beriladi. SHunga qaramay, har xil tayyorgarlik bilan kelgan o'quvchilarning uni o'zlashtirishlari turlicha bo'ladi. Bu savod o'rgatish jarayonida o'quvchilarga differensial va individual yondashishni taqozo etadi. Bunday yondashish ta'limning barcha bosqichlarida ham yaxshi natija beradi.

Differensial yondashishda o'quvchilar guruhlarga bo'linadi, har bir guruhning saviyasiga va imkoniyatiga mos topshiriqlar beriladi. Sinf o'quvchilari 3 guruhga bo'linishi mumkin. Topshiriqlar ham 3 variantda ishlab chiqiladi.

O'qituvchi sinfda frontal ishlash jarayonida 3 guruhdagi o'quvchilar bilan parallel ish olib boradi. 3 guruh uchun ham o'quv materiali qo'shimcha alifbe hisoblanadi, unga qo'shimcha alifbe uchun qo'shimcha tarqatma materiallardan, jadvallardan mustaqil ishlardan foydalaniladi.

Alifbedagi o'quv materiali yoki o'qilayotgan matnning qiyin o'rni oldin tayyorligi puxta o'quvchiga, so'ng bo'sh o'quvchiga o'qitiladi. Ba'zi o'quvchilar bilan darsdan tashqari vaqtda yakka tartibda ishlar olib borishga ham to'g'ri keladi.

YAngi material o'rganiladigan o'qish darsida ishning asosiy turlari: o'rganiladigan yangi tovushni so'zni (shu tovush so'z boshida, o'rtasida, oxirida kelgan so'zni) bo'g'in-tovush tomonidan tahlil qilish bilan ajratish. YAngi tovush ajratiladigan so'zni o'quvchilar rasm asosida o'zlari tuzgan gaplari ichidan oladilar. Tovushni ajratishda shu so'zning sxemasi – modeliga asoslanadilar. Masalan, archa. Tovushlarni eshitish, talaffuz qilish, artikulyasiyasi (nutq organlarining tovush chiqarishdagi ishi) mashq qilinadi.

Kichik va bosh harflar bilan tanishtiriladi. Bo'g'inlar o'qitiladi.

So'zlarni avval doskada, keyin "Alifbe"dan o'qish. Harf, bo'g'inlardan harf terish kartonida so'z, so'z birikmasi, gap tuzish (o'qish), so'z ma'nosi ustida ishlash.

Matnni o'qish va tahlil qilish, uni qayta o'qish, rasmni matnga bog'liqligini belgilash.

Nutq o'stirish: lug'atni boyitish, so'z birikmasi, gap, bog'lanishli hikoya tuzish.

Umumlashtirish: yangi harfni jadvalga qo'yish, yangi o'rganilgan tovushni unli va undoshga kiritish, yangi harfni ilgari o'rganilganlar bilan qiyoslash, tovush va harfning ahamiyatini takrorlash va hokozo.

O'rganilganlarni mustahkamlash darsida yangi tovushni ajratish, yangi harf bilan tanishtirish, mashqidan tashqari barcha ish turlaridan foydalaniladi, shuningdek qo'shimcha so'zlar va matnlar bilan ishlanadi; matnni o'qish va tahlil qilishga, ko'rgazma vositalari bilan ishlashga (harfni terish kartoni, magnit doskasi, abak, sirli mato, rasmlar va b.) nutq o'stirishga, o'yinlar va qiziqarli materiallarga, ilgari o'rganilgan tovushlar va harflarni takrorlab mustahkamlashga alohida ahamiyat beriladi. Tarqatma materiallardan ham foydalaniladi.

Birinchi uchragan so'zlar bilan ishlash; ochiq bo'g'inlar bir undosh bilan tuziladi va o'qiladi, yopiq bo'g'in esa unli bilan tuzilgan ochiq bo'g'inni o'qib keyingi undosh o'qiladi va so'z to'liq tuziladi.

YAngi so'z urg'usi qo'yilgan holda beriladi, bu uni o'qishga, bo'g'inlab o'qishdek sintetik o'qishga (so'zni butunicha o'qishga) yordam beradi.

YAngi so'zni doskada katta bosma harflar bilan yozish o'quvchilarga o'qitish tavsiya qilinadi. So'z shivirlash bilan o'qiladi, kesma harf bo'g'in bilan yoziladi.

Syujetli (rasmning asosiy mazmunini bildiradigan) rasmga qarab o'qituvchi yordamida, uning yo'llovchi so'roqlari asosida hikoya tuzish, undan gapni ajratish va analiz qilish). YAngi bo'g'in, so'z tuzishda harf terish matosi, magnit doskasi, sirli mato kabilarning va yangi so'zni doskada va daftarda "yasash"ning ahamiyati juda katta. O'qish uchun xilma-xil bosma materiallardan qanchalik ko'p bo'lsa, ulardan turli xil mashqlar tuzishda foydalanilsa, o'qish shunchalik ongli, qiziqarli bo'ladi, malaka puxta shakllantiriladi. Bola endigina o'qiy boshlagan bosqichda ularni qatorni yo'qotmaslikka, shuningdek, hatto, so'zdagi keyingi harfni, keyingi so'zni yo'qotmaslikka o'rgatish juda muhimdir. Bu vazifani savod o'rgatishning boshlang'ich bosqichida xatcho'p(o'qiyotgan betni belgilab qo'yish uchun kitob ichiga solib qo'yiladigan qog'oz yoki lentacha) va tayoqcha bajaradi. O'qilayotgan qatorni kuzatib borish ko'nikmasi sinf o'quvchilaridan o'rtog'ining xatosini to'g'rilashni talab qilish bilan ham erishiladi. O'quvchilar bu talabni qizg'anib bajaradilar, shu yo'l bilan ularda darsga, o'qishga e'tibori jalb etiladi.

Savod o'rgatishning birinchi kunlaridayoq o'qish ongli bo'lishi, bolalarni ongli o'qishga o'rgatish juda muhim. So'roqlar yordamida o'qilganlarni bola qanday tushungani aniqlanadi,

tekshiriladi. O'qishdan oldin o'tkazilgan tayyorlov suhbatlari ham o'qilgan matn yuzasidan o'tkazilgan suhbat ham shu maqsadga – ongli o'qish uchun xizmat qiladi. SHaroitga qarab, bolalarga nimanidir o'qishni talab qiladigan problemali holatni yaratish ham zarur. Bunday problemali holatni javobini “Alifbe”dan yoki terish matosidan o'qiladigan topishmoq yaratishi mumkin. Bunday maqsadni problemali savolni keltirib chiqaradigan taxminiy suhbat yordamida ham amalga oshiriladi. Masalan, “Qishda qushlar qaerga uchib ketadilar?” (Harf terish matosida: “Issiq o'lkalarga uchib ketadilar”.) Mana shu kabi tayyorlov mashg'ulotlari o'qishning yuqori darajada ongli bo'lishini ta'minlaydi va shu bilan birga, bolalar ko'z o'ngida o'quv mehnati o'zlashadi, ularni qiziqtiradi.

Ongli o'qishni ifodali o'qishdan ajratib bo'lmaydi. Ammo analitik o'qishning birinchi bosqichida ifodali o'qish mumkin emas, chunki bolalar so'zda urg'uli bo'g'inni ajrata olmaydilar, tugallangan intonasiyani, so'roq intonasiyasini, hatto orfoepik to'g'ri o'qishni ham bera olmaydilar. SHuning uchun analitik o'qish bosqichida so'zni yaxlit, orfoepik qayta o'qish tavsiya qilinadi. Bunday qayta o'qish to'g'ri intonasiyaga, ifodalilikka rioya qilib o'qishga o'rgatibgina qolmay, o'qishning ongli bo'lishiga ham yordam beradi.

Savod o'rgatishning birinchi darslaridayoq o'quvchilarga tabaqalashtirib (differensial) yondashish (bunda o'quvchilarning o'qishga tayyorgarliklaridagi farqlarni hisobga olinadi) amalga oshiriladi.

Fonetik ishlar sohasida jarangli va jarangsiz undoshlar taqqoslashga, ularning so'z ma'nosini farqlashdagi faoliyatini aniqlashga oid mashqlar o'tkaziladi. (ziyrak-siyrak, dil-til kabi). Artikulyasiyasi qiyin bo'lgan undoshlar ng (tong), lab-tish undoshi – v, qorishiq undosh s, ch, jarangli portlovchi – j va jarangli sirg'aluvchi – j kabilarni o'rganishda tovush artikulyasiyasiga oid ishlar qiyinlashadi.

Asosiy davrning oxirlarida jarangsiz jufti talaffuz qilinadigan undoshli so'zlar: ko'rib (ko'rip), qaytdik (qayttik), aytib (aytip), ketayotib (ketayotip), tortib (tortip), terib (terip), olib (olip), obod (obot) borishdi (borishti); qisqa talaffuz qilinadigan i unli bor so'zlar: bilan (blan); talaffuzda tushib qoladigan undoshli so'zlar: baland (balan), do'st (do's), Toshkent (Toshken), farzand (farzan), daraxt (darax). Bunday so'zlarni yozilgandek o'qish – imloni o'rganishga tayyorlaydi. Bular avval orfoepik, so'ng orfoepik o'qitiladi. SHu kabi so'zlarni o'qish bilan bo'g'inlab o'qish malakasi takomillashadi: o'quvchilar talaffuzi va yozilishida farqlanadigan so'zlarni o'qishni o'rganadilar.

Tovushlar va asosiy qismlarga oid bilimlar o'quvchilarning savod o'rgatish jarayonida o'rgangan amaliy bilimlariga asoslangan holda 1– va 2–sinflarda beriladi, ular haqida ko'nikma va malakalar hosil qilinadi. Ularga tovushlar va harflar, unli, undosh tovushlar, ularning harfiy ifodasi, bo'g'in, jarangli va jarangsiz undosh tovushlar haqida tushuncha beriladi. Bolalar shu bilimlar asosida aytilishi va yozilishida farq qiladigan so'zlar, *a* va *o*, *u* va *i* tovushli so'zlarni aytilishi va yozilishi, so'z oxirida kelgan jarangli *b* va *d* undoshlarining jarangli *p* va *t* undoshi eshitilsa ham, *b* va *d* harfining yozilishi, ayrim so'zlar oxirida kelgan *d* va *t* undoshlarining talaffuzda tushib qolishi, ammo yozuvda saqlanishi, yonma–yon kelgan ikki bir xil undoshli so'zlarning aytilishi va yozilishini bilib oladilar.

3–4–sinflarda esa tovushlar va harflarga oid bilimlar chuqurlashtiriladi, mustahkamlanadi. So'zlarni tovush – harf tomonidan tahlil qilish takomillashadi, bolalarda nutqni eshita olish qobiliyatini o'stirishga e'tibor kuchaytiriladi. Bular o'z navbatida, o'quvchilar savodxonligini oshiradi. Xatosiz ko'chirib yozish, eshitib yozish, yozganlarini mustaqil tekshirish ko'nikmalarini oshiradi. Tovushlar va harflar yuzasidan olib borilgan ishlar kichik yoshdagi o'quvchilarni og'zaki va yozma nutqni o'stiradi va takomillashga yo'naltiradi.

Fonetika bo'limi o'quvchilarni savodxon bo'lishida muhim rol o'ynaydi. Fonetika orqali o'quvchilarning og'zaki nutq madaniyati ham shakllanadi.

Shuning uchun biz o'qituvchilar fonetika bo'limini o'quvchiga o'rgatishda badiiy til qoidalariga rioya qilishimiz, ularni bir-biri bilan so'zlashganda nutq qoidalari va ovoz fonlariga e'tibor berib, ovozni past va balanda ishlata olishga o'rgatishimiz zarur.

Quyida boshlang'ich sinflarda fonetik mashqlar ustida ishlash hamda fonetik tahlil qilish metodikasidan namunalar keltiramiz.

Fonetik tahlil tartibi:

1. So'zning ovoz chiqarib to'g'ri talaffiz qilish.
2. So'zdagi tovushlar va harflar sonini aytish.
3. Unli tovushlarni, ularning qaysi harflar bilan ifodalanganini aytish.
4. Undosh tovushlar, ularni jarangli yoki jarangsizligi, qaysi harflar bilan ifodalanganligini aytish.
5. So'zdagi bo'g'inlar sonini aytish, urg'uli bo'g'inni aniqlash, urg'u tushgan unlini ko'rsatish.

Fonetik tahlil namunasi:

Quyosh so'zida 5 ta tovush (q, u, y, o, sh), 5 ta harf (q, u, y, o, sh) bor.

Unli tovushlar: u, o.

Undosh tovushlar: q, y, sh; q va sh – jarangsiz undosh, y – larangli undosh.

Quyosh so'zi ikki bo'g'inli, ikkinchi bo'g'in urg'uli: - urg'u o unlisiga tushgan.

3-sinf. 63-mashq. Tushirib qoldirilgan harflarni qo'yib ko'chiring.

muka...al	mi...atdor	tana...us
taa...ub	mi...ioner	tasha...ur
maha...a	chi...i	chi...ak
gra...	ji...a	shi...at
tasa...i	musa...o	ma...or
pa...ak	pa...a	pi...a
qu...at	qa...iq	sa...iz

54-mashq. Nuqtalar o'rniga *d* va *t* undoshlardan mosini qo'yib, so'zlarni ko'chiring.

payvan. , darax. , dilban. , sus. , balan. , poytax. , g'ish. , Samarqan. , go'sh. .

Yangi imlo qoidasiga o'tish munosabati bilan ayrim bo'g'in ko'chirish qoidasiga o'zgarishlar kiritildi. Masalan: я-шил, ё-мон, е-лим, ё-ки, ё-љут, я-шин, е-мак, е-миш, я-мољ kabi so'zlarni bo'g'in ko'chirib bo'lmas edi. Yangi alifboga binoan qanday aytilsa shunday yoziladi va bo'g'in ko'chiriladi.

Namuna: ямољ – 5 ta tovush, 4 ta harf

ya–moq – 5 ta tovush 5 ta harf.

Bu so'zlarda tovush va harf endi alohida sanaladi va bo'g'in ko'chiriladi. ya–shil, yo–mon, ye–mak, ye–mish, yo–qut.

Fonetik tahlil quyidagicha bajariladi:

Namuna: Tong – 3 ta tovush, 3 ta harf, unli tovush 1 ta, undosh tovush 2 ta, 1 ta jarangli 1 ta jarangsiz, 1 ta bo'g'in.

Mas'ul – 5 ta tovush, 5 ta harf, 1 belgi, 2 ta unli, 3 ta undosh, 2 ta jarangli, 1 ta jarangsiz, 2 ta bo'g'in.

4-sinf 104-mashq. Tovush – harf tahlili tarkibi.

Namuna: Zag'cha – 5 ta tovush, 4 ta harf, 1 harf, 1 harf birikmasi, unli tovushlar: *a, a*

Undosh tovushlar: *z, g', ch*

Jarangli tovushlar: *z, g'*

Jarangsiz tovushlar: *ch.*

Ko'p yozish natijasida o'quvchida ayrim so'z formalarini yoki tilini belgilarni to'g'ri qo'llab ketaverish shakllanib qoladi.

Ko'chirib yozish. Ko'chirib yozishda o'quvchi yozuv taxtasidan, kitob lug'at yoki turli ko'rsatmali materiallardan ko'chiradi va so'zlarni imlosini u xotirasida saqlab qoladi.

Bu yozuv usuli o'quvchilarning to'g'ri yozish malakasini mustahkamlashga so'z boligini oshirishga orfografik hushyorlik o'rgatishga so'zlar imlosini esda olib qolishga xizmat qiladi.

Ko'chirib yozish 2 xil bo'ladi.

1. Matnni o'zgartirmasdan ko'chirib yozish.

2. Matnni o'zgartirib ko'chirib yozish.

Matnni o'zgartirmasdan ko'chirib yozish ko'proq boshlang'ich sinflarda foydali.

Ko'chirib yozishda o'quvchilarning yozishi bilim darajasiga qarab yozish surati va tuzumiga ko'ra beriladigan material hajmini so'zlar miqdorining sinflararo quyidagi belgilash maqsadga muvofiq:

1-sinf – 5–8 ta so'z

2-sinf – 10–20 ta so'z

3-sinf – 20–30 ta so'z

4-sinf – 30–40 ta so'z.

Diktant. Diktant o'quvchilarning savodxonligini tekshirishni va olingan bilimlarni mustahkamlash maqsadida kundalik hamda ko'pgina oraliq nazorat shaklida o'tkaziladi.

Diktant o'tkazishda o'quvchilarning imkoniyatlarini hisobga olish ishda aniqlikka e'tibor berish soddadan murakkabga borish muhim ahamiyatga egadir. Shuningdek, o'quvchilarni o'z-o'zini tekshirishga o'rgatish kerak.

O'quvchi diktant yozganda so'zning harfiy ifodasini ko'rmay eshitish orqali tovushlar majmuasini tasavvur etadi, tovushlarni harflar bilan almashtirib yozadi.

Bunda ruhiy va jismoniy jarayonlarning birgalikda mustahkamlanib borishga imkon beradi. Shuning uchun ham diktant imlo o'rgatishda o'z tabiatiga ko'ra to'la ahamiyatga egadir.

Diktant maqsadga ko'ra ikki turga bo'linadi:

I. Ta'limiy diktant. Bu tur o'rganilgan mavzularni mustahkamlash maqsadida, yozuv darsining ma'lum bir qismida mashq sifatida o'tkaziladi. Unga alohida soat ajratilmaydi.

Boshlang'ich sinflarda ta'limiy diktantning quyidagi turlaridan foydalanish mumkin:

1. Lug'at diktanti.

5. Yoddan yozuv diktanti

2. Saylanma diktant

6. Izohli diktant

3. Ko'rsatish diktanti

7. Ijodiy diktant

4. Ta'kidiy diktant

8. Erkin diktant.

II. Tekshirish diktanti. Bu o'rganilgan mavzularni o'quvchilar qanchalik o'zlashtirganliklarini sinash, tekshirish maqsadida o'tkaziladi.

Quyida har qaysi diktant turini o'tkazish metodikasini ko'rsatib o'tamiz.

Lug'at diktant. Lug'at diktanti o'rganilgan imlo qoidalarini mustahkamlash, o'quvchilar lug'atini boyitish maqsadida o'tkaziladi.

Bundan tashqari o'rganilgan imlo qoidalarini o'quvchilar tomonidan qanchalik o'zlashtirilganligini sinash, hisobga olish maqsadida ham o'tkazish mumkin. Lug'at diktanti uchun o'rganilgan imlo qoidasi asosida yoziladigan so'zlar, so'z birikmalari yoki turli rasmlardan foydalanish mumkin.

O'qituvchi tanlagan narsa yoki rasmlarni tartib bilan ko'rsatadi. O'quvchilar rasmda ko'rsatilgan narsa nomini yozib vergul qo'yadilar. Ishni shu tariqa davom ettiradi.

O'quvchilar yozganlarini imlo lug'atidan yoki o'zlarining lug'aotidan solishtirib tekshiradilar. Yo'l qo'ygan xatolar mustaqil to'g'rilanadi, keyin esa o'qituvchi tomonidan tekshirib ko'riladi.

Lug'at diktanti yozish uchun: 2-sinfda 8 ta so'z, 3-sinfda 10–12 ta so'z, 4-sinfda 12–15 ta so'z bo'lishi kerak.

Saylanma diktant. Saylanma diktant o'rganilgan va imlo qoidalarini mustahkamlashda ularni amalda qo'llashda yordam beradi, mavzuni qanday o'zlashtirganligini aniqlashga imkon

beradi. Diktantning bu turida o'quvchilar o'qituvchi aytgan matnni yoki gapni to'liq yozmay o'rganilgan qoidalarni saylab yozadilar. Shuning uchun ham saylanma diktant deb ataladi.

Masalan, 3–sinf «Talaffuzi tushib qoladigan undoshlar» mavzusini mustahkamlash bilan shu mavzu yuzasidan o'quvchilar bilimini sinash, qanday o'zlashtirganliklarini aniqlash maqsadida olinadi.

Ko'rsatish diktanti. Ko'rsatish diktanti boshlang'ich sinflarning hammasida o'tkaziladi. Buning uchun o'tilgan mavzuga doir matn «Diktantlar to'plami»dan tanlanadi va dasrdan oldin orfografik hushyorlik qoidalariga rioya qilgan holda yozuv taxtasiga yozib qo'yiladi.

Matn bir marta shoshilmasdan ifodali qilib o'qib beriladi. Suhbat (savol–javob) yordamida tushuntiriladi va o'rganilgan qoidalar esalatib, matn mazmuni mustahkamlanadi. Shundan so'ng matn vaqtincha bекitib qo'yiladi va aytib yozdiriladi.

Matnni aytib yozdirilib bo'lgach, yozuv taxtasigsha qarab, yo'l qo'yilgan xatolarni to'g'rilaydi.

Yodda yozuv diktanti. Yodda yozuv diktanti ham boshlang'ich sinflarning hammasida o'tkaziladi. Bu diktantni o'quvchilar juda sevib bajaradilar.

Bu diktant sinf saviyasining mos kichik bir parcha (yoki biror to'rtlik) tanlanadi.

Tanlangan matn doskaga yozilib qo'yiladi. Matnni o'qituvchi o'qib beradi. SHundan so'ng yodlash uchun vaqt beriladi. O'quvchilar matnni yod olgandan so'ng, matnni berkitadi. Ular yodlagan matnlarni mustaqil yozadi. Keyin yozuv taxtasidan matn ochiladi, o'quvchilar yozganlarini yozuv taxtasiga qarab tekshiradilar va xatosini tuzatadilar.

Ta'kidiy diktant. Ta'kidiy diktant uchun tanlangan matnni yozdirishdan oldin o'quvchilar o'rgangan qoidalar eslatib ayrim so'zlarning yozilishi tushuntiriladi, ayrim so'zlarni grammatik tahlil qilib, umuman yozish jarayonida nimalarga e'tibor berish kerakligi ta'kidlanadi. Shuning uchun ham mazkur ish turi ta'kidiy diktant deyiladi. Bu diktant aytib yozdiriladi. Diktantni o'quvchilar yozib bo'lgach va o'zlari yo'l qo'ygan xatolarini tuzatgach, o'qituvchi tomonidan yig'ib olinadi.

Izohli diktant. Izohli diktant boshlang'ich sinfnining barchasi uchun mos bo'lib, o'quvchilar yozdirilgan matn tarkibida imlosi qiyin so'zlarning yozilishini eslatadi. Belgilangan matn o'quvchilarga yozdiriladi. SHu tariqa o'quvchilar yozgan so'zlarni o'zlari tuzatadilar. Bu bilan o'quvchilarning savodxonligini aniqlash va kamchiligini to'g'rilash mumkin.

Izohli diktant uchun ma'lum bir dars ajratilishi shart emas. Ta'limiy diktantning boshqa turlari kabi yozuv darsning ma'lum bir qismida o'tkazish mumkin. Izohli diktant o'quvchilar faoliyatini oshirishda eng foydali yozma ish turlaridan hisoblanadi. Bu diktant turini 3–4–sinfda tez–tez o'tkazib turishi foydalidir.

Ijodiy diktant. Ijodiy diktant o'rganilgan qoidalarni o'zlashtirish va yozuvda o'rinli qo'llash malakalarini mustahkamlash bilan birga o'quvchilar og'zaki va yozma nutqini rivojlanishida ijobiy ta'sir qiladi, ular ijodkorlik, mustaqillik kabi zarur malakalarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Ijodiy diktantda o'quvchilarga, o'rganilgan qoidaga mos so'z, so'z birikmasi, biror mavzuga oid so'roqlar beriladi. Ular berilgan so'z va so'z birikmalarini qatnashtirib, gap yoki hikoya tuzadilar. Ijodiy diktant, ijodiy inshoga o'xshab ketadi.

O'quvchilarning ijodkorlik faoliyatini yoshlikdan tarbiyalash maqsadida ijodiy diktantni izchillik bilan tez–tez o'tkazib turish lozim.

Bu esa bolalarni yuqorida aytib o'tgan xislatlar va insho yozishga tayyorlaydi.

Ijodiy diktantdan barcha boshlang'ich sinflar keng foydalanadi. Alifbe davridan o'quvchilar ijodiy diktant yozishga tayyorlanadi.

Erkin diktant. Erkin diktant ta'limiy diktantning bir turi bo'lib, o'quvchilar nutqini o'stirishda fikrlar qobiliyatini rivojlantirishda xizmat iladi.

Erkin diktant uchun hikoya tarzida unga katta bo'lmagan matn tanlanadi.

Tanlangan matnning har bir bo'limida ikkitadan uchtagacha gap bo'lishi kerak.

Diktantni bu turida o'quvchilarga o'qigan bo'limning mazmunini buzmaganda holda, gaplarning shaklini o'zgartirib yozishi erkinligi beriladi. O'qituvchi diktantni har bir qismini alohida-alohida o'qib beradi.

O'quvchilarni diqqati jalb qilinadi va birinchi bo'lim o'qib beriladi. O'quvchilar o'qilgan bo'lim mazmunini yozib bo'lgandan keyin, ikkinchi qism o'qib beriladi. O'quvchilar bu bo'lim tuzilishini ham yorqin ifodalab yozadilar. Ish shu tariqa davom etadi. Bu diktant turi o'quvchilarni o'rgangan grammatik shakllaridan, imlo va tinish belgilariga oid bilimlarini va boshqalarni nutqni aynan yoki o'zgartirib qo'llashga o'rgatadi.

Diktantni bu turi yana bolalarda ijodkorlik faoliyatlarining o'sishiga yordam beradi, ularni bayon yozishga tayyorlaydi.

Tekshirish diktanti. Tekshirish diktanti dasturning biror bo'limi o'rganilib, xilma-xil ta'limiy maqsadlar bilan mustahkamlangach, ular o'quvchilar tomonidan qay darajada o'zlashtirilganini sinash maqsadida o'tkaziladi.

Tekshirish diktanti uchun sintaktik tuzilishi jihatidan shu sinf o'quvchilar saviyasiga mos, o'rganilgan imlo qoidalari asosida yoziladigan so'zlar va tinish belgilari ko'proq qo'llanilgan matn tanlanadi.

Tekshirish diktanti uchun matnlardan emas, – balki o'rganilgan qoidalarga xos terma gaplardan ham foydalanish mumkin. Lekin ikki holda ham gaplardagi so'zlar soniga e'tibor berish lozim.

Tekshirish diktanti uchun tanlangan matnda so'zlar soni quyidagicha bo'lishi lozim:

	1–sinf	2–sinf	3–sinf	4–sinf
1–yarim yillik	–	25–30 soʻz	45–55 soʻz	65–70 soʻz
2–yarim yillik	15 soʻz	35–45 soʻz	55–65 soʻz	75–80 soʻz

Ko'rinib turibdiki, o'quv yili oxirida o'tkaziladigan diktantdagi so'zlar soni keyingi o'quv yili boshida o'tkaziladigan diktantdagi so'zlar soniga baravar keladi va asta-sekin ortib boradi.

Diktantda quyidagi xatolar hisobga olinadi: So'zdan bo'g'in yoki harf tushirib qoldirilsa, bo'g'in yoki harf qo'shib yozsa, so'zni ma'nodosh bo'lmagan boshqa so'z bilan almashtirib yozsa, harf shakllarini buzib yozsa ham xato hisoblanadi.

Diktantda quyidagi xatolar hisobga olinmaydi:

- a) O'quvchilarga o'rgatilgan qoidalar yuzasidan qilingan xatolar bo'lsa;
- b) Gap oxirida nuqta qo'yilmagan bo'lsayu, keyin gapni bosh harf bilan yozsa;
- d) Gap ma'nosini buzmaganda holda boshqa so'z bilan almashtirib yozilsa;
- e) Biror harfni takror yozsa;
- g) Bo'g'in ko'chirishda so'zni bir qismini yozsa–yu, lekin ikkinchi qismida yozishni unitgan bo'lsa;
- j) Gapdagi so'zlarni takror yozgan bo'lsa;

Bayon turlari va ularni o'tkazish.

O'rta maktab ta'lim–tarbiya tizimida nutq o'stirish vositasi sifatida bayon g'oyat muhim ahamiyatga egadir. U yozma ishning asosiy turlaridan biri bo'lib, asar yoki parcha mazmunining o'quvchi tomonidan «o'z so'zi», o'ziga xos uslubi asosida izchil, savodli qayta bayon etishni taqozo qiladi.

Boshlang'ich sinfda o'tkaziladigan bayonlar ko'proq ta'limiy xususiyatga ega bo'lib, ular og'zaki va yozma holda olib boriladi.

1–4–sinflarda ta'limiy bayonlarni muntazam o'tkazib turish o'quvchilarning so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishiga, matnni ongli, ifodali o'qish va so'zlab berishiga hamda ularning fikrlash qobiliyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning so'zlarni to'g'ri yozish malakalarini mukammallashtirishga imkoniyat tug'diradi.

Boshlang'ich ta'limda bayonlarning quyidagi turlari o'tkaziladi:

1. To'liq yoki mukammal bayon.
2. Tasvir elementlari bo'lgan bayon.
3. Grammatik topshiriqli bayon.
4. Matn mazmunini qisqartirib bayon qilish.
5. Ijodiy bayon.
6. Tekshirish bayoni.

Quyida bularning har biri ustida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

To'liq yoki mukammal bayonning bu turi ko'p jihatdan ifodali o'qish darslarida berilgan qayta hikoya qilish darslariga o'xshab ketadi.

1-sinf o'quvchilari o'qiganlarini qayta hikoya qilib berishga qiynaladilar. Bunday hollarda matn mazmuniga mos savollaridan foydalaniladi. SHuning uchun 1-sinflarda o'tkaziladigan bayonlar matn mazmuniga qarab tuziladigan savollardan, so'zlardan foydalanib yoziladi.

Masalan: daraxtlar qachon gullaydi?

Daraxtlar bahorda gullaydi.

2-sinfning boshlanishi 1-sinfning davomidir. 2-sinfning boshida to'liq bayon yozish savollar yordamida bo'ladi. Matn mazmunini to'liq ifodalab yozish 2-sinf o'quv yilining ikkinchi yarmidan boshlanadi.

Tasvir elementlari bo'lgan bayon. 1-2-sinflarida o'quvchilar kichik hajmdagi matnlarning mazmunini grammatik topshiriqlarsiz bayon qiladilar. Ammo 3-4-sinflarda 3-4 ta xato undan ortiq qismlardan tashkiol topgan matnlar bilan bayon yozishga o'rgatiladi. Masalan: ayrim matnlarda voqeaga bog'liq holda tabiat tasviriy yoki voqeada ishtirok etuvchi shaxsning tashqi ko'rinishi birga estetik zavq uyg'otadi. Voqeani har tomonlama to'liq tasavvur etish qobiliyatlari bilan bayon yozish. 1-2-sinflardan o'qish tabiatshunoslik darslarida tabiat kishilarning ko'rinish joyining ko'rinishini so'zlatish so'zlab berish orqali tasvirli bayonlar ustida ishlashga o'rgatiladi.

Grammatik topshiriqli. Bayonning turi 3-4-sinflarda o'tkaziladi, bunday bayonni yozishda oldin hikoyalaridagi shaxsni o'zgartirib qayta hikoya qilish yuzasidan mashqlar o'tkazilgan bo'lishi kerak. Bayonlarning bu turida hikoyachdagi gaplarni qayta qurushni talab etadi. Chunki hikoyadagi I shaxs nomidan berilgan bo'lsa, III shaxs nomidan. III shaxs nomidan berilgan bo'lsa I shaxs nomidan bayon qilish va ega, kesimlarni shaxs va sonda moslashtirishi lozim.

Shaxslarni aniq bo'lishi uchun ism qo'yishi ham mumkin.

Matn mazmunini qisqartirib bayon yozish. Bayonning bu turi ko'proq mustahkamlikni talab keladi. SHuning uchun 3-4-sinflarda qo'llaniladi. Bunda o'quvchi matn mazmunining o'zgartirmay har bir bo'limidan asosiy mamunni ajratib olish qoidalariga ega bo'lishlari kerak. Qisqartirib bayon yozishning ahamiyati shundaki biror ertak va hikoyaning mazmunini umumlashtirib, asosiy g'oyani lo'nda ifodalash uchun o'quvchini faol mustaqil fikrlashga undaydi, keng hajmli matn yuzasidan konspekt tuzish malakasi shakllantiriladi.

Ijodiy bayon. Bunday bayonda o'quvchidan matn mazmuniga o'z munosabatlarini bildirish talab qilinadi. U bir necha shaklda o'tkazilishi mumkin.

Masalan: Berilgan kichik hajmli matn mazmunining kengaytirib yozish, voqeaband she'rlar mazmunining hikoyalab yozish, dialoglarni umumlashtirib yozish, shaxsni o'zgartirib yozish.

Tekshirish bayoni. Tekshirish bayoni 1-sinfdan boshlanadi. U quyidagi tartibda o'tkaziladi.

1. Matnni aniq va ifodali o'qib berish;
2. Matnni mazmunini o'qituvchi tomonidan berilgan rejaga qarab hikoya qilish.
3. Imlosi o'rganilmagan so'zlarni doskaga yozib ko'rsatish.
4. Matnni qayta o'qib berish.
5. Matn mazmunini qayta bayon qilish.

Bayon yozishda asosiy uslublar quyidagilardan iborat:

1. Matnni ifodali, ta'sirli qilib o'qib berish va savollar yordamida qismlarga bo'lib yoki to'liq holda so'zlatish.

2. Bayonni rejasi ustida ishlash.

3. Lug'aviy orfografik ishlar matnda uchraydigan qiyin so'zlarning ma'nosi va imlosini tushuntirish: obrazli ifodalardan foydalanish yo'llarini o'rgatish.

Bayonni baholash uchun voqealar ketma-ketligi fikrni to'liq tuza olishi, punktatsion va orfografik xatolarga yo'l qo'ymaganligi hisobga olinadi.

2-3-sinfda yozilgan bayonga 1 ta baho qo'yiladi. 4-sinfda bayon hajmiga qarab, fikrni to'liq bayon qila olishga qarab mazmuni uchun birinchi baho, ikkinchi baho esa imlo xatolariga qo'yiladi.

Insho. Insho – yozma ish turlaridan biridir. Insho – ijod demak. Ma'lum bir mavzu yuzasidan o'quvchining o'z fikrlarini ifodalash vositasiga insho deyiladi. Insho aniq bir mavzu asosida mustaqil yozilib, ijodiy fikrlarni to'g'ri, tartibli, mazmunli, ravon ifoda etishdan iborat bo'lib, o'quvchining mavzuga o'z munosabatini bildirishini talab etadi. Boshlang'ich sinflardan oq bunga asos yaratiladi.

Insho yozma ishning yuqori turi. U fikrni to'plab ijod qilishga undaydi. Inshoda mazmun yuzasidan mustaqil ijodiy fikrlash, o'z mulohazalarini aniq ifodalash talab qilinadi.

Boshlang'ich sinf dasturi asosida o'quvchilarning yozma ishlariga qo'yiladigan talablar:

-imlo xatolariga yo'l qo'ymaslik;

-matndagi gaplarning mazmunan o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi ko'rsatilgan mavzu doirasida birlashishi;

-harf va tinish belgilarini to'g'ri belgilash;

-so'zlar orasidagi oraliqni to'g'ri belgilash;

-tasvirda tilning ifoda vositalaridan foydalanish;

-matnda so'zlarni takrorlamaslik va sinonimlarni qo'llash;

-matnda xat boshidagi yaxlitlik va fikr izchilligini ta'minlash;

-uyadosh so'zlarni qo'llay olish.

Boshlang'ich sinf dasturi asosida o'quvchilarning yozma hutqlariga qo'yilgan talablar:

-imlo xatolarga yo'l qo'ymaslik;

-matndagi xatolarning mazmunan o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi ko'rsatilgan mavzu doirasida birlashishi;

-harf va tinish belgilarini to'g'ri belgilash;

-so'zlar orasidagi oraliqni to'g'ri belgilash;

-tasvirda tilning ifoda vositalaridan foydalanish;

-matnda so'zlarni takrorlamaslik va sinonimlarni qo'llash;

-matnda xat boshidagi yaxlitlik va fikr izchilligini ta'minlash;

-uyadosh suzlarni qo'llay olish.

Tekshirish maqsadida o'tkaziladigan diktant uchun so'zlar soni sinflar bo'yicha quyidagicha bo'ladi

	I sinf	II sinf	III sinf	IV sinf
I yarim yillik	-	20-25	45-55	65-75 so'z
II yarim yillik	20-25	30-45	55-65	75-80 so'z

III BOB.

Orfografik hushyorlikni shakllantirishda didaktik o`yinlar.

O'qituvchi bir xil yoki bir-biriga o'xshash usullarda dars o'tish bilan chegaralanib qolmasligi kerak. Ayniqsa, muammoli darslarni har xil didaktik o'yinlar yordamida o'tish ularning qiziqishlarini oshirish bilan birgalikda, mantiqiy tafakkurini o'stirishga ham yordam beradi.

Didaktik o'yinlar o'tkazishdan oldin bolalarning yoshini, bilim saviyasini hisobga olishni unutmaslik kerak. Ularni oddiy, oson va vaqtni kam oladigan turlaridan boshlab, asta-sekin murakkablashtirib borish yaxshi natija beradi. Bunday ish tutish, bir tomondan bolalarning dunyoqarash va ongini kengaytirsang, boshqa tomondan, ularning bayon etish qobiliyatini kuchaytiradi, mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

O'qituvchi bunday didaktik o'yinlarni mavzu asosida ma'lum maqsaddan kelib chiqqan holda tanlay olishi zarur.

Quyida didaktik o'yinlardan namunalar keltiramiz.


1-sinf o'quvchilariga savod o'rgatish davrida juda oddiy bo'lgan o'yinlardan foydalanish kerak.

1.«Kim tez topa oladi?» o'yini.

Sinf o'quvchilari bir necha guruhga ajratiladi. O'qituvchi biron predmet yoki ish quroli rasmini o'quvchilarga ko'rsatadi.

Masalan: chinor, terak, olma daraxtlarining bargini ko'rsatib,

1. Uzoq umr ko'ruvchi daraxt qaysi?
2. Qaysi daraxt meva beradi?
3. Jonli predmetni toping?



4. Qaysi hayvon tez chopa oladi?
va shu kabi savollar beradi.



2. Tasvirli didaktik o'yin.

Tasvirda nima aks ettirilgan? Tasvir nimalardan tashkil topgan?

O'quvchilar tasvirda yashiringan sonlarni topish orqali ularni eslab qolish va qo'l harakatini to'g'ri ishlatishga o'rganadilar. Ular o'ynab yurganda yerga, daftarga, boshqa joylarga tasvirni chizish orqali ham sonlarni eslab qolish ko'nikmalarini egallaydilar.

3. Fikrni charhlash o'yini.

O'yinning maqsadi o'quvchilar savodxonligini oshirish bilan birgalikda hisoblash malakalarini ham shakllantirishdan iborat.

O'yinda sonlar o'rniga ularning harfiy ifodasi ko'rsatiladi, javob ham harfiy ifoda bilan berilishi talab qilinadi:

$$i + i = t$$

Bu o'yinda o'quvchilar harfiy ifoda o'rnida qanaqa son borligini mantiqiy fikrlab, o'zlari ham ifodaning harfiy javobini yozadilar. Bu o'yin 1-sinf o'quvchilarini ilk savod o'rgatish davriga mos keladi.

4. "So'zning o'rnini topish" o'yini.

O'yinni o'tkazishdan oldin o'qituvchi yozuv taxtada yoki kartochkada she'riy parchalarni yozib tarqatadi. Kartochkadagi ayrim so'zlar tushirib qoldiriladi. O'qituvchi o'quvchilardan so'zlarning o'rnini topib yozishni talab etadi.

Bunday o'yinlarni o'tkazish o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga va lug'at boyligini oshirishga yordam beradi. Namuna:

Bog' yashnaydi,	Uy yashnaydi,
..... bilan.	 bilan.
Dala yashnar	Tog' yashnaydi
..... bilan.	 bilan.

O'quvchilar ochiq qolgan so'zlar o'rniga mos keladigan to'g'ri javobni topib yozishlari kerak (bog'bon, dehqon, bola, lola).

Tilimizga jon bergan aziz _____ bobo,
Vatan deya kurashgan sohibqiron _____ bobo.
Yulduzlar sirini ochgan _____ dek bobojon,
Tibbiyotga yo'l ochgan _____ bobojon.
Hadislarni to'plagan va bizgacha yetkazgan
_____ bobom sen.

Barchasiga jon bergan sen aziz, _____ jonim sen.

Darslarda testlarni qo'llash.

Testlar bilan ishlash o'tilgan darslarni o'quvchilar qanchalik tushunib yetganligini aniqlashda juda ham qulaydir. Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida testlar bilan ishlash an'anaga aylanib qoldi. Bunday bir xillik o'quvchilarni zeriktirishi, toliqtirishi mumkin. Test deganda 1 ta savol 3ta javob yoki 5ta javobdan kalitni aniqlash ko'z oldimizga keladi. Biz testning boshqa usullarini ham o'ylab topsak va darslarda qo'llasak o'quvchilarda qiziqish uyg'onadi.

Masalan, shunday test usulidan boshlang'ich sinflarda quyidagi turini o'tkazish mumkin.

Bu testda avval kalit aniqlab olinadi, savollar ketma-ket berib boriladi, savollar soni va kalit o'qituvchining o'ziga bog'liq.

O'tilgan dars «So'z turkumilari»ni mustahkamlashga doir deylik.

Kalitlar:	Savollar:
1. ot	1. men
2. son	2. gul
3. olmosh	3. guldon
4. fe'l	4. gulsiz
5. sifat	5. gulladi
	6. ikki
	7. saflandi
	8. oppoq
	9. ishchan
	10. o'qimoq

S	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
J	3	1	1	5	4	2	4	5	5	4

Bunday testlar barcha fanlar kesimida o‘tilgan mavzularni mustahkamlash uchun darsning ta’limiy jarayonida olinishi mumkin. Bu testlar bir xillik qolipdan chiqishga yordam beradi va darsda o‘qituvchi va o‘quvchi vaqtini tejaydi. O‘qituvchi testni doskaga yoki biror plakatga ham tayyorlab kelishi mumkin.

Ayniqsa, o‘qituvchilarimizga erkinlik berilishi ularni o‘zlarida bor texnologiyalarni qo‘llashga yo‘l ochib berdi. O‘qituvchilar darslarni sahnalashtirilgan usullarda tashkil etib, ularni jonli tarzda olib bora boshladilar.

Sahnalashtirilgan darslar o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, hayotda o‘zini tuta bilishga, ayrim o‘quvchilar uchun ko‘rish orqali mavzuni anglab olishda yordam beradi.

Quyida ona tili darslarining sahnalashtirilgan 1 soatlik dars orqali ochib berishni namuna sifatida keltirib o‘tamiz.

Sahnalashtirilgan dars. («So‘z turkumlari»ni mustahkamlash).

O‘qituvchi: Qani-qani bolajonlar,
Bilimli hur donojonlar.
Dars nimadir bolajonlar,
Qani ayting donojonlar.

O‘quvchilar: Ona tili domlajonim.

O‘qituvchi: Qani ayting bolajonlar,
Ona tili qanday darsdir.

O‘quvchilar: Ona tili – onam tili,
Ona tili – otam tili,
Ona tili – bobom tili,
Barchamizning tilimiz bu!

O‘qituvchi: Qani-qani donolarim,
Aqli hur bolalarim,
Gap nimadir? – bolalarim,
So‘z nimadir? – bolalarim.

O‘quvchilar: Gap – nutqimiz domla jonim,
So‘z-gaplardir domlajonim.

O‘qituvchi: Balli – balli bolajonlar,
Dono – ahil qaqajonlar.
Har bir so‘zim ma’no berar,
Qani toping bolajonlar.

O‘quvchilar: Mayli – mayli domlajonim

O‘qituvchi: Qani ayting bolajonim,
Ot nimadir donolarim.

O‘quvchilar: Mana OLMA domla jonim



O‘qituvchi: Qani ayting bolalarim,
Sifat nima? – donolarim.

O‘quvchilar: Qizil olma domla jonim,
Sariq olma domlajonim.



O‘qituvchi: Qani ayting bolalarim,
SON – nimadir donolarim.

O‘quvchilar: Bitta olma - domlajonim,
Ikkita - olma domlajonim



O‘qituvchi: Qani ayting bolalarim.

Fe'l – nimadir donolarim.

O'quvchilar: Yeb qo'ysak shu Fe'l bo'ladi.



O'qituvchi: Balli-balli donolarim

Topqir-topqir bolalarim!

Raxmat sizga donolarim,

Sog' bo'lingiz bolalarim!

Bu sahna darsi musiqa usulida olib boriladi, o'qituvchi «So'z turkumlari»ni mustahkamlash uchun bir predmet misolida ya'ni «sariq» va «qizil» olmalar orqali darsni o'quvchilar ongiga etkazib beradi. Bu dars o'quvchilarni mantiqiy tafakkurlari uchun hamda o'tilgan mavzularni yanada mohiyatini tushunib etishlarida qo'l keladi.

Xulosa qilib shuni aytamizki, darslarning qanchalik samaradorli bo'lishi albatta birinchi o'rinda, biz pedagoglarga bog'liqdir.

Yuqorida keltirib o'tilgan didaktik o'yinlar, dars usullari sizga bir namuna sifatida keltirib o'tildi, xolos. Darslarni bundan ham yaxshiroq usullarda tashkil qilish, barcha o'qituvchilarning «pedagogik texnologiyasi»ga bog'liqdir.

Quyida o'quvchilarni darsga bo'lgan faoligini, qiziqishini hamda ijodiylik qobiliyatlarini oshiruvchi yangi pedagogic texnologiyalardan foydalanib darslarni musobaqa, bahs-munozara shaklida olib boorish usullaridan namunalar keltiramiz.

1.O'quvchilarni fonetik bilimlarini mustahkamlashda hamda olgan bilimlarini amaliyotda qo'llashga o'rgatishda didaktik o'yinlarning ahamiyati katta. O'quvchilar tovushlarning aytilishi va yozilishida farqlarni, ayrim so'zlardagi aytilishda tushib qoladigan, yozuvda esa saqlanadigan so'zlarni, yonma-yon kelgan ikki bir xil undoshli so'zlarni aytilishi va yozilishini, u bilan o' harfini, x bilan h harflarini farqlay olmaydilar. Masalan, o'quvchilarimiz loqayd – o'rniga – loqayt, rost – rosd, hikoya – xikoya, xursand – xursan, go'sht – go'sh kabi so'zlarda xatoliklar qiladi.

Mana shu xatoliklarni tuzatishda har xil didaktik o'yinlar, musobaqa darslari katta amaliy yordam beradi. Chunki, o'quvchilarning yosh xususiyatlari ilmiy jihatdan tushinib yetishda qiyinchiliklar tug'diradi. O'yinlar orqali ular bu bilimlarni tez o'zlashtirib oladilar.

1. «Kim savodxon» o'yini.

O'quvchilarga imlosi qiyin so'zlarni to'g'ri yozib berish topshiriladi.

Masalan: dar__, ros__, Samarqan__, pas__, go'sh__, es__lik, darax__, mar__.

So'zlar guruhlariga pas__ shunday kartonga tayyorlab topshiriladi. Har bir guruhga berilgan so'z bir xil bo'lishi kerak.

Qaysi guruh a'zolari berilgan so'zni to'g'ri yozib ko'rsatsa, shu guruh a'zolari g'olib hisoblanadi.

Ularning olgan ballari doskaga yozib boriladi va o'yin shu tarzda davom ettiriladi. O'yin oxirida qaysi guruh ko'p ball to'plagan bo'lsa, shu guruh a'zolari «Kim savodxon» o'yinini g'olibi bo'ladi.

2.Boshlang'ich sinflarda «Morfologiya» (so'z turkumlari)ni o'tishda o'quvchilar ularni ayrim vaqtlarda farqlay olmay qolishadi. Chunki, so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarning so'zlarga qo'shilishi tufayli bir so'z turkumidan ikkinchi so'z turkumini hosil bo'lishi kabi muammoga duch kelishlariga sabab bo'ladi. Masalan, predmetning nomini bildirgan so'zlar ot so'z turkumi bo'ladi deb o'rgatamiz. (gul-la, dazmol-la, qo'l-la)

Shunday vaqtlarda mantiqiy o'yinlarni o'tkazish, ularda bunday farqlarni tushunib yetishlari uchun ancha katta yordam beradi.

Quyida bunday usullardan namunalar keltiramiz.

O'qituvchi doskaga so'zlarni yozib qo'yadi.

Masalan: quyosh, ish, gul, stol, dazmol, ruchka, parta, kitob, o'y, qo'l.

O'quvchilarga berilgan so'zlardan qaysi biri faqat ot so'z turkumi bo'lsa 1-ustunga, boshqa so'z turkumi yoki fe'l so'z turkumi bo'lsa 2-ustunga yozishi so'raladi.

Masalan:	1-ustun	2-ustun
	quyosh	ish - la
	stol	gul - la
	ruchka	dazmol - la
	parta	o'y - la
	kitob	qo'l - la

Qaysi o'quvchi to'g'ri ajrata olsa shu o'quvchi o'yin g'olibi hisoblanadi.

3. Leksikologiya.

O'quvchilarni so'z boyligini oshirish hamda so'zlarni o'z o'rnida ishlata olish qobiliyatlarini shakllantirishda lug'at o'yinlarini o'tkazish katta ahamiyatga ega. O'yin musobaqa tarzda olib borilsa bolalarda yanada qiziqish oshadi.

O'quvchilar 4 guruhga bo'linadi. Har bir guruhga o'qituvchi bir xil topshiriq beradi.

Topshiriq guruh o'quvchilari ichida yashirin bajariladi. O'quvchi bergan topshiriqni o'quvchilar bajarib bo'lgandan keyin har bir guruh a'zolari ketma-ket vagon shaklida qator-qator bo'lib turishlari kerakligini aytadi. Vagonning birinchi parovozi shu so'z bilan nomlanadi, qolgan vagonlar ularga ulanadi.

Masalan: «Dovyurak» so'zi berilgan.

Har bir vagonlari tuzilgandan so'ng o'qituvchi ulardan har vagonni nomini so'raydi.

1-qator	2-qator	3-qator
dovyurak	dovyurak	dovyurak
botir	qo'rqmas	botir
qo'rqmas	sheryurak	jasur
jasur	botir	mard
	jasur	
	mard	

Qaysi guruh ko'p so'z topgan bo'lsa, shu guruh vagonlari ko'p bo'ladi. Ular vagon nomlarini qog'ozda ko'rsatgan bo'lishlari va vagon tayyor tuzilganda ya'ni o'quvchilar vagon tuzib bo'lganda o'qituvchi so'rash lozim. Chunki, guruh a'zolari boshqa guruh topgan so'zni aytib, yana vagon qo'shmasligi uchun (har bir so'z aytgan o'quvchi vagon bo'ladi).

Bundan tashqari o'yin boshqacharoq tarzda o'tkazilishi ham mumkin.

Masalan: O'qituvchi biror so'z aytadi, qaysi guruh birinchi javob bersa shu guruh g'olib hisoblanadi.

O'qituvchi:		O'quvchilar:
oltin	-	tillo
kumush	-	chiroyli, nafis
yuz	-	aft, bashara
osh	-	palov

«Kim zukko» o'yini

O'qituvchi har bir guruh oldiga, bir xil topshiriqlarni yozib beradi. O'quvchilar topshiriqni guruhda muhokama qilib, javobni yozib topshiradi. O'qituvchi guruhlarni yozib topshirgan javoblarini o'qib g'olib guruhni taqdirlaydi.

Masalan: O'quvchilarga shunday so'zlar berilganki, ular shu so'zlarni o'xshash tomonlarini ochib berishlari lozim.

ot – kishining nomi
ot – hayvon
ot – biror narsani oti ma'nosida
ot – so'z turkumi

o't – o'simlik
o't – ta'na a'zosi
o't – olov ma'nosida
o't – biror joyga o'tish ma'nosida

bo'y – uzunlik ma'nosida
bo'y – hid, is ma'nomida
bo'y – biror joyning yonida ma'nosida.

Qaysi guruh so'zlarni ko'proq ma'no jihatlarini topa olsa, shu guruh g'olib hisoblanadi. Aytaylik 1-guruh «o't» so'zini 2 ta ma'nosini, 2-guruh 4 ta, 3-guruh 3 ta ma'nosini topdi. Qaysi guruh eng ko'p so'zning ma'no jihatini topgan bo'lsa g'olib hisoblanadi.

Har qanday pedagogik yangilik zaminida biron –bir g'oya yotadi. Pedagogik texnologiya qanday qilib, qanday usullar bilan o'qitilsa, natija yaxshi bo'ladi, degan savolga javob beradi. U o'z tizimiga ega bo'lib, unda komponentlar ketma-ketligi, o'zaro bog'liqligi, bir bitimligi sanaladi.

Didaktik o'yinlar, pedagogik kashfiyotlar, testlar bularning hammasi bir so'z bilan aytganda, yangi pedagogik texnologiyadir.

Pedagogik texnologiyaning boshqaruvchanligi shundan iboratki, bunda ta'lim jarayonini rejalashtirish, tashxis qilish, natijalash, tuzatish kiritish imkoniyatlari mavjud. Bunda ta'limdan kutilgan natijaga erishiladi, vaqt tejaladi, bu esa pedagogik texnologiyaning samaradorligi demakdir. Bir so'z bilan aytganda, ta'lim jarayoniga yangicha yondashib, ijodkorlik, dunyodkorlik tadbiriq etilsagina, ta'lim samarasi yangicha bosqichga ko'tariladi.

Xulosa qilib aytganda, yangi pedagogik texnologiya ta'lim jarayonida hukm surayotgan inqirozdan qutulishning yagona va bosh mezonidir.

UMUMIY XULOSALAR.

1) орфографик жараён, айниқса бошланғич таълимда, ниҳоятда мураккаб жараёндир. бу мураккабликка мувофиқ келадиган самарали усулларини белгилаш ва уларни амалга оширишда ўқувчиларнинг индивидуал ва ўзига хос психологик хусусиятларини ҳисобга олиш ва таълим жараёнини муайян тизимда, муайян структурада ташкил қилиш талаб қилинади;

2) республикамизда бошланғич синф ўқувчилари билан ишлаш жараёнида ўтказилган психологик тадқиқотлар хулосалари асосида янада янги экспериментал таълим тизимини ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқдир;

3) она тили уқитиш методикаси тизимидаги методик ва психологик тадқиқот

хамда кашфиётларни уйғунлаштириб, уларни амалда татбиқ этувчи махсус лаборатория марказини ташкил қилиш келажакда яхши самара беради.

Qaysi qatordagi soʻz mevaning anagrammasi emas?

- A) AANNB
- B) SNNAAA
- C) IXOʻRLO
- D) ARKZI
- E) ATSHLOFI

Harflardan harflarga gorizontal, vertical, diagonal boʻyicha oʻtib, yashiringan iborani oʻqing.

O' I T
L T YE
CH A B
B K E
I R S

Qaysi qatordagi harflardan soʻz tuzib boʻlmaydi?

- A) ONKOIT
- B) ABRXA
- C) HFINRA
- D) MAKALAK
- E)

ISHNING QISQACHA MAZMUNI

Tadqiqotimiz mavzusi „3, 4-sinflarda orfografik hushyorlikni shakllantirishdagi uslubiy ishlar tizimi“ deb nomlangan. Ish Kirish, 3 ta bob, UMUMIY XULOSALAR, FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATIdan tashkil topgan

Mavzuning dolzarbligi. Prezidentimiz I.Karimovning Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida soʻzlagan nutqida quyidagi fikrlarni aytib oʻtgan edilar:

«Faqatgina chinakkam maʼrifatli odam inson qadrini, millat qadriyatlarini, bir soʻz bilan aytganda, oʻzligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida oʻziga munosib, obroʻli oʻrin egallashi uchun faollik bilan kurashishi mumkin.

Sir emas, har qaysi davlat, har qaysi millat oʻzining yer osti va yer usti tabiiy boyliklari, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki birinchi navbatda oʻzining yuksak madaniyati va maʼnaviyati bilan kuchlidir. Mustaqillik sharofati bilan mamlakatimizda amalga oshirilgan muhim ijobiy ishlardan biri «Taʼlim toʻgʻrisida»gi va «Lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosini joriy etish toʻgʻrisida»gi Qonunlarning qabul qilinishi hamda boshlangʻich taʼlimning ham shaklan, ham mazmunan oʻzgarishi boʻldi.

Boshlangʻich taʼlim 1992–1993 oʻquv yilidan 4 yillik taʼlimga oʻtdi. Barcha boshlangʻich sinflarining darsliklari ishlab chiqildi. 1994–1995 yili ishlab chiqilgan dastur, darslik, metodik qoʻllanmalar, koʻrgazma qurollar, tarqatma materiallar ishlab chiqildi va 1995–1996 yilda «Lotin yozuviga asoslangan oʻzbek imlo qoidasi» ishlab chiqilib yangi alifboga oʻgirildi.

Maktablarda ona tilining oʻqitilishini talab darajasiga chiqarish maqsadiga mazkur fanning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda uning mazmuni va tarkibiy qismlari ishlab chiqildi. Oʻzbekiston Respublikasining IX sessiyasida hayotimizning hal etuvchi muhim masalalaridan taʼlim–tarbiya tizimini tubdan oʻzgartirish, uni yangi zamon talabi darajasiga koʻtarish, barkamol avlodimiz kelajagiga daxldor loyihalar ishlab chiqildi. Ushbu holatlarning barchasi ishning dolzarbligini belgilaydi

Boshlangʻich sinflarda taʼlimning mazmuni, shakli, metodlari, umuminsoniy qadriyatlari, xalqimizning anʼanalari, madaniyati va fan bobidagi koʻp asrlik tajribalarini oʻrgatishni koʻzlab tashkil etildi. Uni amalga oshirish esa muhim hujjatlar asosida ishlab chiqildi.

1.Umumiy oʻrta taʼlimning boshlangʻich bosqichi uchun nizom.

2.Umumiy oʻrta taʼlimning 1–4–sinflarida oʻqitiladigan har bir oʻquv predmeti boʻyicha konsepsiyalar.

3.Boshlangʻich sinflar uchun davlat taʼlim standarti.

Boshlangʻich taʼlim bosqichi oldiga qoʻyilgan vazifalarni bajarilishini nazorat qilish taʼlim standarti orqali amalga oshiriladi.

Taʼlim sohalari boʻyicha standart koʻrsatkichlari 7(6)–11 yoshdagi bolalarning rivojlanish darajasi, ehtiyoj va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ijtimoiy talab taqozo qilgan taʼlim mazmunini minimal asosda belgilab beradi.

Mavzuning oʻrganilishi. Boshlangʻich sinf taʼlimi jarayonida davlat taʼlim standartlarida belgilangan minimal majburiy talablarga tayanish lozim. Davlat taʼlim standartlarida

«Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning ona tshsh va o'qish bo'yicha o'qish hamda yozish malakasi bilan birgalikda matn mazmunini, o'zgalar fikrini anglash, o'z fikrini yozma va okzaki bayon etish malakasiga ham ega bo'lishlari, nutqi tushunarli, ta'sirchan, ravon, mantiqiy jihatdan bog'liq, grammatik jihatdan to'g'ri va izchillikda ifodalanishi muhim»[70, 14]ligi uqtirilgan. Ta'limda faqat bilimlarni tarkib toptirishga e'tiborni qaratish ta'lim samaradorligining past bo'lishiga olib keladi. Vaholanki, og'zaki nutqni rivojlantiriydigan o'quvchigipa bilimlarni mustahkam o'zlashtiradi.

V.Okon va R.Ibragamovlarning ilmiy tadqiqotida ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish va shu asosda o'quvchilar o'quv-biluv faoliyati samaradorligini oshirish yo'llari tadqiq qilingan.

N.Sattorova, S.Matchonov, Mirjalolova, Sh.Yusupovalarning tadqiqotlarida adabiyot va o'qishdarslarida mustaqil ishlardan foydalanish yo'llari o'rganilgan.

O'quvchilar tafakkurini o'stirish, o'quv-biluv jarayonini ijodiy tashkil etish va faollashtirish muammosi M.Haqberdisv, S.Yaminova, M.Saidov, B.Adizov va Ya.Raxmonovlarning ilmiy ishlarida atroflicha yoritib berilgan.

Ta'lim jarayonini o'yinlar asosida tashkil etish muammosini F.Qodirova va A.Bobomurodovanning tadqiqotlarida ko'rish mumkin.

Tadqiqotning maqsadi: O'zbek orfografiyasi va uning boshlang'ich ta'lim dasturi hamda darsliklarda aks etishi tizimini ochib berish, boshlang'ich sinf o'qituvchilariga darslarini tashkil etishda uslubiy yordam berish.

Tadqiqot vazifalari. Tadqiqot vazifalari quyidagilqrdan iborat:

- O'qituvchi imloviy malakaning psixologik tabiatidan kelib chiqib, kichik yoshdagi o'quvchilarda imloga oid malakani shakllantirish ustida ishlash metodikasini belgilash;
- To'g'ri yozuv malakasining shakllanishi uchun o'quvchining fikrlash faoliyatini rivojlantiruvchi mashqlar ishlab chiqish;
- O'quvchilarning analitik-sintetik faoliyatini asta takomillashtira borish usullarini ko'rsatish.

Ishning KIRISH qismidaЖамият тараққиётида кишиларнинг энг муҳим алоқа воситаси бўлган тил қандай аҳамиятли бўлса, ёзув ҳам шундай буюк ижтимоий қимматга эгадир. Тил тарихида ёзув асосий манба ҳисобланади.

Ёзув ҳам тил сингари жамиятдаги турли ижтимоий талаблар натижасида вужудга келган.

Ёзув инсониятнинг энг буюк маданий ютуъи бўлиб, у тош давридан то космик давргача инсоният томонидан яратилган маданий ва моддий ютуқлардан дарак беради.

Агар ёзув бўлмаганида, инсоният томонидан асрлар бўйи яратилган ана шу моддий ва маданий ютуқлар бизгача етиб келмаган бўларди. Ёзув ҳақида Берунийнинг куйидаги фикри ўринлидир: “Тил сўзловчи истагини эшитувчига етказувчи таржимон. Шунинг учун тил замоннинг бир они каби туръун қисми билан чекланиб қолади. Агар инсондаги сўзлаш қуввати ҳамма жойга шамол сингари ёйилувчан бўлмаганда эди ва замонлардан замонларга нафас сингари ўтувчи хат ёзиш саноатини келтириб чиқармаганда эди, ўтмиш замонларнинг хабарини, айниқса узоқ замонлар ўтганда, ҳозирги замон тилларига қандай кўчириб бўлар эди”.²

Ёзув ўзининг тараққиётида турли босқичларни босиб ўтган. Археологик текширишлардан, этнографик ва лингвистик материаллардан маълум бўлишича, қадимги одамлар ёр деворларига, тоъ қояларига ва бошқа нарсаларга турли воқеаларнинг расмларини чизиб,

² Беруний. Танланган асарлар. II том. ШЗР ФА нашриёти. Т., 1965, 138-б.

Ўзларининг фикр ва истакларини билдиришган. Ана шундай турли воқеаларни билдирадиган расмлар *пиктографик ёзув* деб аталади. Пиктография латинча пикто (расм, расм билан) ва грекча графо (ёзаман) сўзларидан таркиб топиб, расмлар ёзув деган маънони билдиради.

Пиктография ёзувнинг энг қадимги тури бўлиб, бу ёзувда ҳар бир расм бир тушунчани ифодалаган. Пиктография белгилари тилдаги товушларни ифодаламай, балки кичик бир воқеани ёки тушунчани яхши ҳолда билдиради.

Пиктографик ёзув қадимги Миср, Хитой ва Жанубий Америкада пайдо бўлган. (Маърузада талабаларга пиктографик ёзув намуналаридан кўргазмаларни қўйиб кўрсатилади).

Ёзувнинг кейинги тараққиёти босқичларида пиктографик ёзувдан фойдаланувчи халқлар жамият тарихи тараққиёти жараёнида тарихий ҳолда бу ёзувдан айрим сўзларни билдирадиган белгиларга ўта бошлаганлар. Пиктографик ёзувнинг айрим сўзларни билдирадиган алоҳида белгиларга айланган шакли *идеографик ёзув* деб аталади. Лингвистик адабиётларда идеография билан бирга *иероглифик ёзув* ва *логографик ёзув* терминлари ҳам учрайди. Бундаги ҳар учала терминлар ҳам, асосан, бир маънони эгаллайди.

Идеография сўзи грекча идея (боя, тушунча), графия (ёзаман) сўзларидан ташкил топган.

Идеографик ёзув энг аввало, Хитой ва Мисрда пайдо бўлган. Бу хил ёзув намуналари олимлар томонидан XIX ва XX аср бошларида топила бошлаган. Миср идеографик ёзуви XIX асрнинг 20-йилларида француз олими Шампиллон томонидан ўқилган.

Идеографик ёзув пиктографик ёзувнинг такомиллашган шакли бўлиб, шу асосда вужудга келган.

Идеографик ёзувда шартли график белгилар ишлатилади, бу белгилар предметни эмас, балки предмет ҳақидаги тушунчани ифодалайди. Бу ёзув алифбелар (фонографик) ёзувнинг яратилиши учун замин тайёрлаб беради.

Масалан, Японлар Хитой иероглифик ёзувини бирмунча соддалаштириб, япон тилини ёзувда ифодалаш учун мослаштирганлар ва қирқ етти белгини олиб, япон тили алифбесини яратганлар.

қадимги Мисрда идеографик ёзув кейинги вақтларда алоҳида бўйин ва нутқ товушларини ифодаладиган бўлди. Масалан, Миср иероглифик белгиси *pen* (пен) бу, шу деган маънони билдиради. Кейинчалик мана шу белги *p* (п) товушини англатадиган бўлди. Демак, идеографик ёзувда ҳам алоҳида нутқ товушларини ифодаладиган элементлар пайдо бўлди. Дастлаб идеографик белгилар бир тушунчани билдирган бўлса, кейинчалик тарихий тараққиёт натижасида бўйинлар ва ўятто алоҳида нутқ товушларини ифодалаш даражасига бориб етган. Шундай қилиб, мисрликлар ўзларининг идеографик белгиларидан 24 тасини ажратиб олишган ва бу билан фонетик ёзувга анча яқинлашиб, алифбелар ёзувнинг вужудга келишига замин тайёрлашган.

Идеографик ёзув сўнгги тараққиётида *фонетик ёзувга* айланди. Дастлаб фонетик (алифбелар) ёзув Нил дарёсига бостириб қирган гиксослар тарафидан яратилган. Гиксослар мисрликларнинг идеографик ёзувидан 20 тасини олиб, ўзларининг унли ва ундошларини ифодаладиган алифбени яратдилар.

Алифба сўзини энг аввал гиксослар қўллашган. *Алиф* гиксосча ўўкиз деган маънони, *бе* гиксосча бет бўлиб, уй деган маънони ифода этган. Ана шу икки сўздан алифба сўзи пайдо бўлган.

Эрампдан бир ярим минг йил илгари гиксослар алифбесини финиклар ўзгартириб, ўз тили товушларига мослаштириб олганлар, финикларнинг Ўрта денгиз бўйидаги мамлакатлар билан савдо-сотик ишлари яхши бўлгани учун, уларнинг ёзуви бошқа мамлакатларга тез тарқалган ва жуда кўп мамлакатлар финиклар ёзувидан яратганлар. Шундай қилиб, дунёдаги кўп тилларнинг фонетик ёзувлари финиклар ёзуви асосида

вужудга келган. Бу фонетик ёзув уч катта тармоққа бўлинади: биринчиси Арамей-Сурия тармоғи бўлиб, бу тармоқ Шарққа қараб тарқалган; иккинчиси жанубий Арабистон тармоғи бўлиб, у жанубга қараб тарқалган; учинчиси Юнон-Европа тармоғи бўлиб, у Ғарбга қараб тарқалган.

Арамей - Сурия ёзуви эрамизнинг бошларида араб ёзувининг яратилишига асос бўлди.

Кейинчалик араблар истилосидан кейин бу ёзув бошқа мамлакатларга ҳам тарқалган.

Жанубий Арабистон ёзуви (Ўабашистон) ёзувини, ундан кейин Ҳинд ва Тибет ёзувларини яратишга асос бўлган.

Юнон-Европа ёзуви эса юнон (грек), латин, славян ва умуман Европа халқларининг ёзувини яратишга асос бўлган.

Демак, ёзув босқичларида пиктографик ёзув идеографик ёзувни, идеографик ёзув эса фонографик ёзувни шакллантиришга хизмат қилган. Бироқ ҳозир ҳам иероглифик белгиларга асосланган ёзувлар мавжуддир. Масалан, Хитой, Япон ва Корейс тилларидаги белгилар ҳам иероглифлардир. Бунгадй ташқари, ҳозирда қўлланилаётган математик рақамлар, физика ва химияда ишлатиладиган шартли белгилар ҳам иероглифик ёзувнинг кўринишидир.

Масалан, 1,2,3 каби рақамларда 1 2 3 бурчаклар асосга олинган, бурчак нечта бўлса, рақам шу билан аталган.

Фонографик ёзувнинг яратилиши инсоният тарихида катта ютуқ бўлади. Ҳозир ер юзида қуйидаги беш ёзув асосида тузилган ёзув системалари тузилган:

1. Латин ёзуви (Ундан дунё аҳолисининг 30 фоизга яқини фойдаланади).
2. Араб ёзуви (Дунё аҳолисининг 10 фоизи фойдаланади).
3. Славян-кирил ёзуви (Аҳолининг 10 фоизга яқини фойдаланади).
4. График Хитой ёзуви (25 фоизга яқин).
5. Ўйинли - Ҳинд ёзуви (20 фоизга яқин).

қолган бошқа ёзув системалари (юнон, яўудий, эфиопия, грузин, арман ёзувлари)дан дунё аҳолисининг 5 фоизга яқини фойдаланади.

Бундан ташқари, ҳозирги вақтда ёзувнинг махсус турлари бўлган стенография ва транскрипцион ёзувлардан ҳам фойдаланилади.

Yangi mustaqil respublikamizning har tomonlama kamol topishi va jahon kommunikatsiya tizimiga kirishini jadallashtiruvchi qulay sharoit yaratishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasida lotin yozuvi asosidagi yangi alifboga o'tish fikri 1921- yilda paydo bo'lgan. Bunda Mahmud Hodiyev – Botu kabi ziyolilar tashabbuskor bo'lganlar, ular lotin va lotin-rus yozuvlari asosidagi o'zbek alifbosini tuzganlar va ilmiy jamoatchilik muhokamasiga qo'yganlar.

Bizning hududimizda arab alifbosi 8- asrning 20- yillarida, 20- asrning 30- yillarigacha qo'llangan. Milliy uyg'onish davrida arab imlosi va alifbosiga ayrim islohlarni kiritish boshlangan. Ammo bu masalani rasmiy ravishda hal qilish 1917- yilgi to'ntarilishdan so'ng bo'lgan. Arab alifbosini isloh qilish jarayonida bu alifbodan voz kechib, lotin alifbosiga o'tish masalasi ham o'rta qo'yilgan.

1917- yil oktabr to'ntarilishidan so'ng mahalliy tillar, ularning alifbosi va imlosiga rasmiy ravishda e'tibor berila boshlangan. Ayniqsa, 1919- yil 26- dekabrda Rossiya Respublikasida savodsizlikni tugatish to'g'risida dekret chiqqanidan so'ng Qo'shma sho'rolarining Turkiston Muxtor Jumhuriyatida ham alifbo va imlo masalalarini tezroq hal qilish o'rta qo'yilgan, chunki imlo va harflar shakli masalalarini hal qilmay turib ko'pchilik xalqni savodxon qilib bo'lmas edi.

Turkiston Jumhuriyati Xalq Maorifi Kommissarligi o'zbek maorifchilarining 1918- yilning avgustida bo'lib o'tgan birinchi qurultoyida arabcha harflarni isloh qilish yuzasidan quyidagi qarorga kelib, harflarning ikki xil shaklda, ya'ni, alohida yozish shakli hamda so'z boshida yozish shakliga bo'lishi lozim.

1921- yilgi til va imlo qurultoyi. Turkiston Xalq Maorifi Kommissarligining tashabbusi bilan 1921- yilning yanvar oyi boshida Toshkentda o'zbek tili va imlosi yuzasidan Turkiston Muxtor Jumhuriyat qurultoyi o'tkaziladi. Bu anjumanda harf va imlo masalasi yuzasidan ma'ruza qilingan. Fitrat o'z so'zini: «Maorifimizni eski imlo va yozuv bilan kengaytmak va savodsizlikni isloh etmak lozimdir», degan chaqiriq bilan yakunlangan Turkiston maorifchilarining yig'inida ma'ruza ham qilgan. Ilmiy jamoatchilik bu urinishga o'z munosabatini bildirmagan.

Shuni qayd etish kerakki, 1921- yil yanvargacha «Yangi imlochilar» bilan «Chig'atoy gurungi» qatnashchilari, «O'rta imlochilar», «Eski imlochilar» o'rtasida ilmiy bahs-kurash bo'lgan edi. 1921- yilgi qurultoydan so'ng «Lotinchilar» ya'ni lotin yozuvi asosidagi o'zbek alifbosini yaratuvchilar (Mahmud Hodiyev – Botu rahbarligida) paydo bo'ldilar, bular ham kurashga qo'shildilar. 1923- yil 3-9- oktabrda O'rta Osiyo o'zbeklari yozuvi va imlosini isloh qilish yuzasidan Buxoro shahrida konferensiya bo'lib o'tdi.

1924- yilning 11- aprelida Turkiston Maorif Kommissarligida bo'lgan majlisda Moskvadan Kommissarlikka yuborilgan yangi tuzilgan lotin alifbosi loyihasi mutaxassislar bilan muhokama qilindi. Demak, arab alifbosidan lotin alifbosiga o'tishda O'zbekistonda ham, markazda ham tayyorgarlik ishlari olib borilgan.

1926- yil 19-20- mayda o'zbek tiliga birinchi marta moslab tuzilgan lotin yozuvi asosidagi o'zbek alifbosida yo'g'onlik va ingichlik hamda uzun va qisqalik hisobga olinib, unli tovushlarni ifodalash uchun 12 belgi (harf) olinishi tavsiya qilingan edi. 1926- yili 27-29- avgustda yangi o'zbek alifbo qo'mitasi Ilmiy markaz mutaxassislarining ishtirokida alifbo konferensiyasini chaqiradi.

O'zbek tili yozuvining o'ziga xosligi:

- o'zbek tili yozuvi tovush yozuvi, ya'ni fonematik yozuv;
- har bir tovush, har bir fonema uchun maxsus grafik shakl (harf olingan);
- o'qishda grafik shakllar tovushga aylantirilsa, yozuvda, aksincha, tovushlar harflarga aylantiriladi. Bu o'qish va yozish faoliyatida o'quvchi uchun qiyinchilik tug'dirgandek tuyulsa-da, aslida o'qish va yozish jarayonini soddalashtiradi, chunki tilimizdagi tovushni ifodalovchi harflar soni uncha ko'p emas;

- o'zbek tili yozuvi – fonematik yozuv. 1993-yil 2-sentabrdagi “Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida”gi qonunga muvofiq o'zbek tili yozuvi uchun lotin grafikasi asos qilib olingan.

O'zbek tilining tovush tizimi va yozuvi. Savod o'rgatish analitik-sintetik tovush metodiga asosan olib boriladi. So'z bo'g'inga bo'linadi, bo'g'indn kerakli - o'rganilayotgan tovush ajratib olinadi, tahlil qilinadi, o'rganilayotgan harf bilan sintezlanadi, shu asosda harf va butun o'qish jarayoni o'zlashtiriladi. Bunda o'zbek tili grafik tizimi, tovushlarni yozuvda belgilash xususiyatlari hisobga olinadi.

Savod o'rgatishda o'zbek tili grafik tizimining quyidagi xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega:

№	XUSUSIYATLAR	O'ZIGA XOSLIKLARI	MISOLLAR
1.	Tovush-harf bilan tanishtirish unli-lardan boshlanadi.	6 ta unli fonema bor.	E, o, a, u, i, o'
2.	Undoshlarni o'rgatishda ham	24 ta undosh tovush bor. Yozuvda 23	B, d, f, g, j, k, l, m,

muayyan tartibga, talabga ta harf bilan ifodalanadi: 3 tasi harf n,p,q,r,s,t,v,x,y,z,
asoslaniladi. birikmasi, 21tasi yakka harf. g',sh, ch, ng.

Davlat ta'lim standarti asosida o'quvchilar orfografiyadan egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti o'quvchilar umumta'lim tayyorgarligiga, saviyasiga qo'yilgan majburiy minimal darajani belgilab berdi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar ona tili bo'yicha quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari shart:

O'quv yili davomida 1–sinf o'quvchilari quyidagilarni bilishlari lozim: o'zbek alifbosidagi harflar nomini, unli va undosh tovushlarning belgilarini, jarangli va jarangsiz undosh tovushlarni, bo'g'in ko'chirish qoidalarini.

O'quvchilar quyidagilarni uddalay olishi kerak: matnni sinf taxtasi va darslikdan orfografik hushyorlik qoidalariga rioya qilgan holda chiroyli, to'g'ri ko'chira olishni, talaffuzga mos bo'lgan 25-30 so'zli matnni harf va bo'g'inlarni tushirib qoldirmay, oshiqchasini qo'shmay, o'rin-tushuncha beriladi va bu haqdagi badiiy boshqa matnlarni o'qish tavsiya etiladi.

2–sinf o'quvchilari o'quv yili oxirida quyidagilarni bilishlari lozim:

–so'zlar yordamida gap tuzish va uni yozishni, berilgan mavzuga oid gap tuza olishni;

–unli va undosh tovushlarni farqlay olishni, so'zni bo'g'inlarga to'g'ri bo'lishni;

O'quvchilar quyidagilarni uddalay olishlari kerak:

–so'zni, gapni va matnni harflarni tushirib qoldirmay, ortiqchasini qo'shmay, o'rmini almashtirmay, orfografik hushyorlik qoidalariga rioya qilgan holda ko'chirib va eshitib to'g'ri yozish;

–4-5 bo'g'inli so'zning bir yo'lga sig'may qolgan qismini keyingi yoo'lga bo'g'inlab ko'chirish;

–*kitob, maktab, oftob, obod, oxod* kabi so'zlar oxirida kelgan b va d jarangli undosh tovushlarning jarangsiz jufti p va t eshitilsa ham yozilishini;

–*farzand, xursand, baxt, do'st* kabi o'quvchilar nutqida ko'p uchraydigan so'zlar oxirida kelgan d va t undoshlari talaffuzda tushib qolsa ham yozilishini;

–yonma-yon kelgan bir xil undosh bilan yoziladigan so'zlarni, dasturda berilgan imlosi qiyin bo'lgan so'zlarni to'g'ri yozilishini;

–so'zlarga so'roq bera olishni va shu so'z nimani bildirishini;

–kishilarning ismi-sharifini, hayvonlarga, shahar, qishloq, ko'cha, daryolarga qo'yilgan nomlarni bosh harf bilan boshlab yozishni;

–gapning mazmun bildirishini, gapnin oxiriga nuqta, so'roq va undov belgisi qo'ya olishni;

–gap kim? (kimlar?), nima? (nimalar?) haqida aytilganini bildirgan so'zni, u haqda nima deyilganini bildirgan so'zni aniqlay olishni;

–30-45 so'zli matn yuzasidan so'roq gaplardan tuzilgan tayyor reja asosida bayon yoza olishni;

–ma'lum bir mavzuga oid ikki-uch gap tuza olish va uni yozishni;

3–sinf o'quvchilari o'quv yili oxirida quyidagilarni bilishlari zarur:

–tovushlar va harflarni, unli va undosh tovushlarni, jarangli va jarangsiz tovushlarni bilish;

–sh, ch, ng birikmalarni bo'g'in ko'chira olish qoidalarini;

–gap, gapning maqsadiga ko'ra turlarini aniqlay olishi;

–gap bo'laklari, bosh va ikkinchi darajali bo'laklarni gapdan anig'qlay bilishlari;

–so'zlarni tarkibiga ko'ra tahlil qilishi, so'zni o'zagini so'z yasovchi qo'shimchani, so'z o'zgartiruvchi qo'shimchani aniqlay olishi va belgilashi, o'zakdosh so'zlarni boshqa so'zlardan farqlay olishi;

- soʻz turkumlarini gaplarda ajrata olishi;
- ot soʻz turkumi, soʻroqlari (kim? nima?)ni toʻgʻri bera olishi;
- son va sonni soʻroqlar yordamida gapda ajrata olishi;
- sifat soʻz turkumi, uni gaplarda ajrata olishi;
- feʼl, feʼl soʻz turkumini gaplarda aniqlay olishi;
- yil oxirida 65–70 soʻzli matn yuzasidan tuzilgan reja asosida bayon yoza olishi;
- 4–sinf oʻquvchilari oʻquv yili oxirida quyidagilarni bilishlari zarur:
 - sanʼat, dala, daraxt, tong, jiyda, shuhrat, choynak, fijdon shaklidagi soʻzlarni fonetik tahlil qilishni;
 - soʻzlarni tarkibiga koʻra tahlil qilishni (soʻzning oʻzagini, soʻz yasovchi qoʻshimchani, soʻz oʻzgartiruvchi qoʻshimchani aniqlay olish va belilashni, oʻzakdosh soʻzlarni soʻzning boshqa shakllaridan farqlay olishni, ularning maʼnosini izohlay bilishni);
 - matndagi yoki gaplardagi soʻzlarni turkumlarga ajrata olishni, ularni tahlil qila bilishni, otning soʻroqlarni uning shakliga qarab toʻgʻri bera bilishni, koʻplik va birlikda qoʻllashni, otlarni kelishik qoʻshimchalari bilan turlashni;
 - olmoshni kelishiklar bilan turlashni, feʼlni boʻlishli va boʻlishsiz shaklda qoʻllashni, shaxs-son qoʻshimchalari bilan turlashni, uch zamonda oʻzgartirishni;
 - bir xil shaklda boshqa-boshqa maʼno ifodalovchi soʻzlarni, maʼnosi yaqin va qarama-qarshi maʼnoli soʻzlarni, oʻrganilayotgan soʻz, soʻz birikmalarini gap va matn ichidan ajrata olishni, shunday soʻzlarni gap mazmuniga mos holda tanlay olish va qoʻllashni, ortiqcha takrorlaga yoʻl qoʻymaslikni, koʻp maʼnoli soʻzlar bilan birikmalar tuza olishni, ohandosh soʻzlar, bir mavzudagi soʻzlar guruhini tuzishni bilishi;
 - gapni elementar sintaktik tahlil qilishni, maqsadga koʻra turini ajratishni, bosh va ikkinchi darajali boʻlaklarni soʻroqlar yordamida ajratishni, ularning oʻzaro bogʻlanishni soʻroqlar yordamida belgilashni, 90-100 soʻzli matn yuzasidan tuzilgan reja asosida bayon yozishni, hayotda boʻlgan ayrim voqealar, hodisalar, sayohat va kuzatishlar haqida kichik ogʻzaki hikoya tuzish va yozishni, ularda tasvir va muhokama elementlaridan foydalana olishni;
 - nutq madaniyati boʻyicha gap-soʻzlarni oʻzlashtirishni, fikr ifodalash jarayonida qoʻllashni: iltimos, ruxsat, minnatdorchilik, kechirim, uzr, taklif kabi muomala madaniyatini amalda qoʻllashni;
 - eʼlon, salom xat, tabriknoma, tilxat kabilarni yozishni bilishlari zarur.

I BOBning 1-boʻlimi “Orfografik hushyorlikni shakllantirishda oʻqituvchiga qoʻyilgan talablar” deb nomlangan.

Metodika – hayot turmush tarzigni oʻzgarishlari va fan–texnika taraqqiyoti natijasida bolalarni aqliy oʻsish darajasi va psixologiyasini oʻzgarib borishida oʻz ifodasini topishi kerak.

Shuning uchun ham oʻqituvchi har bir davr va zamon talablariga javob bera olishi zarur.

Mustaqillik sharofati bilan taʼlim tizimini tubdan isloh etilishi, taʼlim tizimida taʼlim–tarbiya berishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishni taqozo etadi.

Boshlangʻich taʼlim ona tili oʻqitishning maqsadi, mazmuni va tarkibiy qismlari hamda davlat taʼlim standarti ona tili darslarini oʻtishda zamon talablaridan kelib chiqqan holda oʻqituvchilar oldiga quyidagi talablarni qoʻydi:

- dastur va darslik hamda davlat talablarini bilish;
- davlat taʼlim standartiga rioya qilish va uni bajarishini taʼminlash;
- ona tili darslarini zamon talablari darajasida tashkil etishi;
- ona tili darslarida koʻrgazmali qurollardan foydalanishi;
- darsni yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishi;
- ona tili darslarida oʻquvchilarni mantiqiy fikrlashga oʻrgatishi;
- darsda oʻquvchilarni tinglovchidan itshtirokchiga aylantirishi;

–ona tili darslarini samarali va qiziqarli bo‘lishi uchun interaktiv va bahs–munozara, musobaqa darslarini tashkil etishi;

–darsda ijodiy faoliyatlarni oshiruvchi usullardan foydalanishi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan talablarni darslarda metodik jihatdan to‘g‘ri qo‘llay olish ona tili darslarini samarali bo‘lishida yordam beradi.

Bundan tashqari o‘quvchilar bilimiga qo‘yilgan davlat ta‘lim standartini bajarish uchun o‘qituvchining o‘zi shu talablarni bajara olmog‘i lozim.

Ya‘ni o‘qituvchi ona tilidan tilshunoslik bo‘limiga oid fonetika, grammatika, leksikologiya hamda imlo qoidalarini yaxshi bilmog‘i lozim.

I BOBning 2-bo‘limi Boshlang‘ich sinflarda morfemik tahlil metodikasiga bag‘ishlangan.

Бошланғич синфларда орфография ўқитиш масалалари ўзбек мактаблари таълими мазмуни бўйича сезиларли тарзда муҳокама қилиб борилмоқда. Бу соҳада тадқиқот ишлари олиб борган А.Асқаров ўзбек мактабларининг 1-4 синфларида она тили орфографиясини ўзлаштиришдаги психология асосларнинг муайян жиҳатларини таҳлил қилиб берган. Олим ўз тадқиқотларида ўзбек тили орфографиясининг хусусиятлари ва уни ўзлаштиришнинг психологик томонлари, 1-4 синф ўқувчиларида орфография малакаларнинг таркиб топиш ҳолатлари, айрим орфограммалар имлосини ўзлаштириш хусусиятлари масалаларини эксперимент ва кузатиш материаллари асосида баён қилган. Унинг фикрича, ёзувнинг талаффузга мос келмаслиги сўздаги товушларнинг комбинатор ва позицион хусусиятлари билан, шунингдек, грамматик қонуниятлар билан ифодаланади. Шунингдек, олимнинг ўқувчиларни I- синфдан бошлаб нутқ қийинчиликларини бартараф этиб боришга ўргатиш, таълимда ассоциатив боғланишлар ҳосил қилиб бориш "гумонли орфограммалар"ни нутқда мустаҳкамлаб боришга тааллуқли иш усуллари кўллаш ҳақидаги фикрлари бизнинг тадқиқотимизга ҳам назарий, ҳам амалий жиҳатдан асос бўлди. Бошланғич синфларда орфография ўқитишга доир олиб борилган тадқиқотлардан яна бири Н.Мамаюсуповнинг “Ўзбек мактаблари I-3синфларида она тилидаги қийин ўзлаштирилаётган фонемалар асосида ўқувчиларда орфографик малакаларни шакллантириш”мавзuidaги иши бўлиб, унда тавсия этилган машқ ва топшириқларнинг муайян системаси, шунингдек, фонетика ўқитишда белгиланган махсус ишланган методикага оид фикрлар ҳам тадқиқотимизга асос бўлиб хизмат қилди.

Ўзбек мактаблари бошланғич синфлар она тили таълимида орфография ўқитиш методлари устида ишлаган С.Набиевнинг идмий тадқиқоти ҳам ҳозирги замон орфография ўқитиш методлари системасига қўйилган яна бир ҳисса бўлди, Мазкур тадқиқот очиб берган ўзбек тили орфографиясини ўқитишга доир муҳим масалалар бошланғич таълим мазмунида ҳам назарий, ҳам амалий жиҳатдан диққатга сазовордир.

Орфографик билимларни шакллантиришдаги услубий ишлар тизими

Savod o‘rgatish darslari dasturda ko‘rsatilganidek haftada 8 soat bo‘lib, 4 soat yozuvga ajratilgan. Savod o‘rgatish 2- sentabrdan dekabrning oxirigacha davom etadi. U ikki davrga bo‘linadi.

1) tayyorgarlik davri

2) asosiy davr

Tayyorgarlik davri o‘z navbatida 2 bosqichda bo‘ladi.

a) harf o‘rganilmaydigan bosqich;

b) unli tovushlar va harflar o‘rganiladigan bosqich.

1- bosqich uchun 10 soat dars ajratiladi. Bu bosqichning asosiy vazifasi o‘quvchilarni maktab, sinf bilan, tartib-intizom qoidalari bilan tanishtirish. Ularga nutq, og‘zaki va yozma nutq haqida, gap, nutqning gaplardan tuzilishi, so‘z, gaplarning so‘zlardan tuzilishi: bo‘g‘in, so‘zlarning bo‘g‘inlardan tuzilishi; so‘zlarning bo‘g‘inlarga bo‘linishi tovush, bo‘g‘inning

tovushlardan tuzilishi tovushlarning unli tovush va undosh tovushlarga ajratilishini o'rgatish, ulardan amaliy foydalana olish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat.

Bu bosqichdagi yozuv darslarida o'quvchilarni daftar bilan yozuv chiziqlari bilan tanishtirish, harf elementlarini yozishga o'rgatish, namunaga qarab grafik xatolarni aniqlash – o'z-o'zini tekshirish, harf oralarining tengligiga rioya qilish kabi ko'nikmalar hosil qilinadi.

Ikkinchi bosqichga 14 soat vaqt ajratiladi. Mazkur bosqichda unli tovush va unli harflar o'rgatiladi. Bunda unlilarning uch xususiyatlarini: a) o'qishda to'siqqa uchramasligi; b) cho'zib aytilishi; v) tarkibida faqat ovoz qatnashishi kabilarni o'quvchilarning amaliy ravishda puxta egallashlariga erishish lozim. Shuningdek bu davrda tovush bilan harfni farqlashga o'rgatiladi.

Tovush va harf o'rtasidagi chegaraga qat'iy rioya qilinadi. Bolalarga tovush haqidagi ma'lumot kitob ochtirmay beriladi. Tovushni ifodalovchi harf ko'rsatilgach, harf ustida ishlanadi. Tovush va harfga oid xususiyatlar (tovushlarni tasavvur qilamiz, eshitamiz, harflarni yozamiz, ko'ramiz, o'qiyamiz) ham izchil o'rgatila boriladi.

Asosiy davr uchun 98 soat dars ajratiladi. Bu davrning asosiy vazifasi bolalarni o'qishga, o'qilgan bo'g'in, so'z va gaplarni berilgan namunaga qarab yozish va tekshirishga o'rgatishdir.

Savod o'rgatish jarayonidagi darslar predmetiga ko'ra ikki turga ajratiladi:

Alifbe darsligi asosidagi o'qish darslari

Yozuv daftari asosidagi yozuv darslari.

Asosiy davr o'qish darslari yangi bilim berish bermasligiga ko'ra quyidagi turlarga ajratiladi:

Yangi tovush va harf bilan tanishtiriladigan o'qish darsi.

O'rganilgan tovush va harflarni mustahkamlovchi o'qish darsi.

Bilimlarni takrorlash, umumlashtirish darsi.

Asosiy davr yozuv darslari esa quyidagilarga ajratiladi:

Kichik va bosh harf yoziladigan yozuv darsi.

Kichik harflar yoziladigan yozuv darsi.

Bosh harflar yoziladigan yozuv darsi.

O'rganilgan bo'g'in, so'z, gaplarning yozilishini mashq qilish darslari.

II BOBning 1-bo'limida "Davlat ta'lim standarti asosida 3-4-sinf o'quvchilari egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar" haqida fikr yuritiladi.

3 -sinfda fonetika, grammatika, imlo va nutq o'stirishga 166 soat ajratilgan, shundan 28 soati bog'lanishli nutqni o'stirishga berilgan. O'quvchilarga quyidagi mazmunda bilim beriladi:

Yozma nutq va matn shaklida namoyon bo'lishi. Matn va mavzu. Matnni mazmunan tugallangan qismlarga bo'lish.

Matn qismlariga sarlavha tanlash. Matn qismlarini va har bir qismdagi gaplarni o'zaro bogliqligi. Matnning tuzilishi: *kirish qismi, asosiy fikr, oxirgi xullosa qismi* va ularni belgilash.

Xabar (hikoya) xarakteridagi matnni berilgan yoki o'quvchi o'zi tuzgan reja asosida qayta bayon qilish. Bir mavzudagi bir necha rasm, mazmunli rasm asosida, shuningdek, o'quvchilarning hayotiga yaqin bo'lgan voqelik (*o'yinlar, tabiatni kuzatish, sayohatlar*) birgalikda oldindan tayyorgarlik bilan og'zaki yoki yozma nutq tuzish. Bayon va inshoga asta-sekin tasvirlash va munozaraning bayoni sifatida 2-3 gapni qo'shib borish, malakasini shakllantirish. O'z ishlari haqida qisqa xat yozish.

Nutq madaniyati. Og'zaki va yozma nutqda taklif, tabrik, iltimos kabilarni ifodalaydigan so'zlardan foydalanish. Bog'lanishli nutqqa oid mashqlar dastur materiallarini o'rganish jarayonida unga bog'liq holda o'tkaziladi.

Lug'aviy mashqlar dastur materillarini o'rganish bilan bog'liq holda o'tkaziladi.

4-sinfda fonetika, grammatika, imlo va nutq o'stirishga 166 soat ajratilgan, shundan 28 soati bog'lanishli nutqni o'stirishga berilgan. O'quvchilarga quyidagi mazmunda bilim beriladi:

Nutq, matn va gapni farqlash. Og'zaki va yozma nutqni to'g'ri shakllantirish. Matn mazmunini qayta hikoyalatish. Matndagi asosiy fikrni aniqlay olish. Matnning tuzilishini

aniqlash, uni qismlarga ajratish, ular orasidagi bog‘lanishni izohlay olish. Matnga sarlavha topish.

Ta’limiy bayon. Berilgan matn asosida hikoya yozish; muhokama va tasvir janri elementlari qatnashgan bayon yozish. Matnni qisqartirib, ijodiy qayta hikoyalash asosida bayon yozish. Tanlab qayta hikoyalash asosida bayon yozish.

Ta’limiy insho. Qismli (qismlarga ajratib berilgan) rasmlar va mavzular bitta rasmda ifoda etilgan ko‘rinish asosida, shuningdek, o‘qilgan, kuzatilgan, eshitilgan, ko‘rilgan voqea va hodisalar asosida material to‘plash, reja va shu asosida insho yozish. Bayon va insho rejalarini tuzishda o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga yo‘llash.

O‘quv yili davomida o‘rganiladigan imlosi qiyin so‘zlar: agronom, akvarium, antenna, artist, astoydil, atele, avtomobil, avtonazoratchi, bashariyat, binafsha, boychechak, brigada, daromad, dastyor, dastlab, dehqon, depo, dirijyor, dollar, domino, do‘kon, ehtiyoj, ehtiyot, ekskavator, eskalator, e‘zozlamoq, fabrika, faoliyat, faxrlanmoq, ferma, festival, firma, fonarcha, futbol gavjum, giyoh, gramm, go‘sht, hadya etmoq, handalak, haqiqat, harbiy, hayvonot, hasharot hikoya, hofiz, hudud (chegara), hunarmand, hunarmandchilik, hurriyat, ikkita, ilm-ma‘rifat, iste’dodli, ishonch jarroh

III BOB. O‘quvchilarni yozma nutqini va grammatikaga oid bilimlarini o‘stirishga oid mashqlarga bag‘ishlangan/

O‘quvchilarni yozma nutqini va grammatikaga oid bilimlarini o‘stirishga oid mashqlar.

O‘qitish tamoyillari	Mazmuni	Masalan
1. Til materialiga, nutq organlarining o‘rishiga, nutq malakalarining to‘g‘ri rivojlanishiga e‘tibor berish tamoyili	Eshituv va ko‘ruv ko‘rsatmaliligini ta‘minlashni va nutq organlarini mashq qildirishni talab etadi.	Gapirib berish, ifodali o‘qish, ichida gapirish
2. Til ma‘nolarini tushunish tamoyili	So‘zni, morfemani, so‘z birikmasini, gapni tushunish borliqdagi ma‘lum voqea-hodisalar o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlash demakdir. Bu tamoyilga amal qilishning sharti tilning hamma tomonlarini, tilga oid barcha bo‘limlarni o‘zaro bog‘langan holda o‘rganish.	Morfologiyani sintaksisga tayangan holda o‘rganish (so‘z turkumlarining gapdagi vazifasi), so‘zni morfemik tahlil qilish orqali uning ma‘nosiga tushunish.
3. Tilga sezgirlikni o‘stirish tamoyili	Tilning tuzilishi, izchil tizimini fahmlab olmay turib uni yodda saqlab bo‘lmaydi.	Gaplashish, o‘qish, eshitish.
4. Nutqning ifodaliligiga baho berish tamoyili	Til hodisalarini tushunmay turib savodli yozish, nutq madaniyati vositalarining xabar berish vazifasini tushunish bilab bir qatorda uning ifodaliligini tushunishni, mazmuninigina emas, balki so‘z va nutq birliklarining, tilning boshqa badiiy-tasviriy vositalarining hissiy bo‘yqdorligini ham tushunishni ko‘zda tutadi.	Badiiy adabiyotlardan, tilning uslubiy xususiyatlari aniq ifodalangan boshqa matnlardan foydalanish mumkin.
5. Og‘zaki nutqni yozma	Kishi nutqining rivojlanishiga	Rasm asosida suhbat,

nutqdan oldin o'zlashtirish ta'sir etadi va til o'qitish savollarga javob, tamoyili metodikasini tuzishda xizmat og'zaki hikoyalar qiladi. tuzish.

III sinfda ham orfografik hushyorlikga o'rgatishni ona tili darsi bilan bog'liq holda olib boriladi, bu sinfda bir chiziqli daftarga kichik harflarni 3 mm balandlikda, bosh harflarni esa 7 mm balandlikda yozish malakasi hosil qilinadi. Bu sinfda o'qituvchi, harflarning yozilishini va o'lchamlarini tushuntirish bilan bir qatorda, quyidagi talablarni eslatib turishi lozim:

1. Partada to'g'ri o'tirish, ruchkani to'g'ri ushlash, daftarni to'g'ri tutish
2. O'quvchilarni mayda harflar bilan yanada tezroq yozishga o'rgatish.
3. Kichik harflarni bir xil balandlikda, bosh harflarni bir xil balandlikda bir tekis qilib yozishga o'rgatish.

4. Tez yozishga o'rgatuvchi mashqlarni muntazam o'rgatish.

5. Ayrim kichik va bosh harflarni tez yozish uchun moslashtirish.

Bu sinfda o'quvchilarning yozuv grafikalarini mustahkamlash uchun ularga ko'proq ko'chirib yozish mashqlarini berish va yozuv tezligini hisobga olib borish lozim. Tez yozish malakasini hosil qilish uchun qo'l va barmoq muskullari harakatini o'stiruvchi mashqlarni bajarish: ayrim kichik va bosh harflarning yozilish texnikasini ko'rsatish kerak bo'ladi.

III sinfda ham orfografik hushyorlikga o'rgatishni ona tili darsi bilan bog'liq holda olib boriladi, bu sinfda bir chiziqli daftarga kichik harflarni 3 mm balandlikda, bosh harflarni esa 7 mm balandlikda yozish malakasi hosil qilinadi. Bu sinfda o'qituvchi, harflarning yozilishini va o'lchamlarini tushuntirish bilan bir qatorda, quyidagi talablarni eslatib turishi lozim:

1. Partada to'g'ri o'tirish, ruchkani to'g'ri ushlash, daftarni to'g'ri tutish
2. O'quvchilarni mayda harflar bilan yanada tezroq yozishga o'rgatish.
3. Kichik harflarni bir xil balandlikda, bosh harflarni bir xil balandlikda bir tekis qilib yozishga o'rgatish.

4. Tez yozishga o'rgatuvchi mashqlarni muntazam o'rgatish.

5. Ayrim kichik va bosh harflarni tez yozish uchun moslashtirish.

Bu sinfda o'quvchilarning yozuv grafikalarini mustahkamlash uchun ularga ko'proq ko'chirib yozish mashqlarini berish va yozuv tezligini hisobga olib borish lozim. Tez yozish malakasini hosil qilish uchun qo'l va barmoq muskullari harakatini o'stiruvchi mashqlarni bajarish: ayrim kichik va bosh harflarning yozilish texnikasini ko'rsatish kerak bo'ladi.

O'quvchini orfografik hushyorliki va savodli yozishga o'rgatish albatta boshlang'ich sinflarda amalga oshiriladi. Bola bu davrda so'zlarni yozuv taxtasidan va kitobdan ko'chirib to'g'ri yozish malakasini egallaydi. Asta-sekin so'z birikmasi, gap tuzishni o'rganadi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni grammatikaga oid bilimlarini o'rgatish va ularni yozma nutqlarini shakllantirishda yozma ishlar alohida o'rin tutadi. Bular – ko'chirib yozish, diktant, bayon, insho tarzida amalga oshiriladi.

Bolalar savodxonligini oshirishda foydali bo'lgan mashqlardan biri – yozma ishlardir.

Uni o'tkazishda o'quvchilarning imkoniyatlarini hisobga olish, aniqlikka e'tibor berish soddadan murakkabga qarab borish muhim ahamiyatga egadir.

Yozma ishlar quyidagi shakllarda bo'ladi: mashqlar ko'chirib yozish, diktant, bayon, insho. Mashqlar o'quvchining ona tilidan olgan bilim va malakalarini mustahkamlash maqsadida qo'llaniladi.

Ko'chirib yozish. Ko'chirib yozishda o'quvchi yozuv taxtasidan, kitob lug'at yoki turli ko'rsatmali materiallardan ko'chiradi va so'zlarni imlosini u xotirasida saqlab qoladi.

Bu yozuv usuli o'quvchilarning to'g'ri yozish malakasini mustahkamlashga so'z boligini oshirishga orfografik hushyorlik o'rgatishga so'zlar imlosini esda olib qolishga xizmat qiladi.

Ko'chirib yozish 2 xil bo'ladi.

1. Matnni o'zgartirmasdan ko'chirib yozish.

2. Matnni o'zgartirib ko'chirib yozish.

Diktant. Diktant o'quvchilarning savodxonligini tekshirishni va olingan bilimlarni mustahkamlash maqsadida kundalik hamda ko'pgina oraliq nazorat shaklida o'tkaziladi.

Diktant o'tkazishda o'quvchilarning imkoniyatlarini hisobga olish ishda aniqlikka e'tibor berish soddadan murakkabga borish muhim ahamiyatga egadir. Shuningdek, o'quvchilarni o'z-o'zini tekshirishga o'rgatish kerak.

1–4–sinflarda ta'limiy bayonlarni muntazam o'tkazib turish o'quvchilarning so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishiga, matnni ongli, ifodali o'qish va so'zlab berishiga hamda ularning fikrlash qobiliyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning so'zlarni to'g'ri yozish malakalarini mukammallashtirishga imkoniyat tug'diradi.

Boshlang'ich ta'limda bayonlarning quyidagi turlari o'tkaziladi:

1. To'liq yoki mukammal bayon.
2. Tasvir elementlari bo'lgan bayon.
3. Grammatik topshiriqli bayon.
4. Matn mazmunini qisqartirib bayon qilish.
5. Ijodiy bayon.
6. Tekshirish bayoni.

III BOBning 2-bo'limi „Orfografik hushyorlikni shakllantirishda didaktik o'yinlar“ deb nomlangan.

O'qituvchi bir xil yoki bir-biriga o'xshash usullarda dars o'tish bilan chegaralanib qolmasligi kerak. Ayniqsa, muammoli darslarni har xil didaktik o'yinlar yordamida o'tish ularning qiziqishlarini oshirish bilan birgalikda, mantiqiy tafakkurini o'stirishga ham yordam beradi.

Didaktik o'yinlar o'tkazishdan oldin bolalarning yoshini, bilim saviyasini hisobga olishni unutmaslik kerak. Ularni oddiy, oson va vaqtni kam oladigan turlaridan boshlab, asta-sekin murakkablashtirib borish yaxshi natija beradi. Bunday ish tutish, bir tomondan bolalarning dunyoqarash va ongini kengaytirsang, boshqa tomondan, ularning bayon etish qobiliyatini kuchaytiradi, mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

O'qituvchi bunday didaktik o'yinlarni mavzu asosida ma'lum maqsaddan kelib chiqqan holda tanlay olishi zarur.

Quyida didaktik o'yinlardan namunalar keltiramiz.

4. “So'zning o'rnini topish” o'yini.

O'yinni o'tkazishdan oldin o'qituvchi yozuv taxtada yoki kartochkada she'riy parchalarni yozib tarqatadi. Kartochkadagi ayrim so'zlar tushirib qoldiriladi. O'qituvchi o'quvchilardan so'zlarning o'rnini topib yozishni talab etadi.


Bunday o'yinlarni o'tkazish o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga va lug'at boyligini oshirishga yordam beradi. Namuna:

Bog' yashnaydi,	Uy yashnaydi,
..... bilan.	 bilan.
Dala yashnar	Tog' yashnaydi
..... bilan.	 bilan.

O'quvchilar ochiq qolgan so'zlar o'rniga mos keladigan to'g'ri javobni topib yozishlari kerak (bog'bon, dehqon, bola, lola).

Tilimizga jon bergan aziz _____ bobo,
Vatan deya kurashgan sohibqiron _____ bobo.
Yulduzlar sirini ochgan _____ dek bobojon,
Tibbiyotga yo'l ochgan _____ bobojon.
Hadislarni to'plagan va bizgacha yetkazgan
_____ bobom sen.

Barchasiga jon bergan sen aziz, _____ jonim sen.



Har bir tamoyilning o'ziga xosliklarini ko'rib chiqsak:

1. Savod o'rgatishda analitik-sintetik tovush metodi **shaxsni shakllantirish maqsadiga ko'ra**:

- ta'limiy va o'stiruvchi xarakterda bo'ladi;
- nutqiy mashqlar orqali aqliy o'sishni ta'minlaydi;
- o'qishning ongli bo'lishini talab etadi.

2. Analitik-sintetik tovush metodi tashkiliy tomondan quyidagi ikki davrga bo'linadi:

a) alifbegacha tayyorlov davri;

b) alifbo davri.


Bunda yozuvga o'rgatish o'qishga o'rgatish bilan parallel holda olib boriladi.

3. Analitik-sintetik tovush metodida psixolingvistik nuqtai nazardan quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

- savod o'rgatish bolalarning jonli nutqiga, ular egallagan nutq malakasiga asoslanadi;
- savod o'rgatishga tovush asos qilib olinadi. Unda tovushni ajratishga, analiz va sintez qilishga, tovushlar artikulyatsiyasiga, bolalarda fonematik eshitishni rivojlantirishga katta e'tibor beriladi;
- o'qitish birligi sifatida bo'g'in olinadi. Bo'g'in ustida ishlashga katta ahamiyat beriladi.

Metodning shakllanish va tashkil topish jarayonidagi tamoyillari quyidagilardir:

Analitik-sintetik metodning shakllanish va tashkil topish jarayonidagi tamoyillari



asoslanadilar. Masalan, archa. Tovushlarni eshitish, talaffuz qilish, artikulyatsiyasi (nutq organlarining tovush chiqarishdagi ishi) mashq qilinadi.

Kichik va bosh harflar bilan tanishtiriladi. Bo'g'inlar o'qitiladi.

Asosiy davrning oxirlarida jarangsiz jufti talaffuz qilinadigan undoshli so'zlar: ko'rib (ko'rip), qaytdik (qayttik), aytib (aytip), ketayotib (ketayotip), tortib (tortip), terib (terip), olib (olip), obod (obot) borishdi (borishti); qisqa talaffuz qilinadigan i unli bor so'zlar: bilan (blan);

talaffuzda tushib qoladigan undoshli soʻzlar: baland (balan), doʻst (doʻs), Toshkent (Toshken), farzand (farzan), daraxt (darax). Bunday soʻzlarni yozilgandek oʻqish – imloni oʻrganishga tayyorlaydi. Bular avval orfoepik, soʻng orfoepik oʻqitiladi. SHu kabi soʻzlarni oʻqish bilan boʻgʻinlab oʻqish malakasi takomillashadi: oʻquvchilar talaffuzi va yozilishida farqlanadigan soʻzlarni oʻqishni oʻrganadilar.

Tovushlar va asosiy qismlarga oid bilimlar oʻquvchilarning savod oʻrgatish jarayonida oʻrgangan amaliy bilimlariga asoslangan holda 1– va 2–sinflarda beriladi, ular haqida koʻnikma va malakalar hosil qilinadi. Ularga tovushlar va harflar, unli, undosh tovushlar, ularning harfiy ifodasi, boʻgʻin, jarangli va jarangsiz undosh tovushlar haqida tushuncha beriladi. Bolalar shu bilimlar asosida aytilishi va yozilishida farq qiladigan soʻzlar, *a* va *o*, *u* va *i* tovushli soʻzlarni aytilishi va yozilishi, soʻz oxirida kelgan jarangli *b* va *d* undoshlarining jarangli *p* va *t* undoshi eshitilsa ham, *b* va *d* harfining yozilishi, ayrim soʻzlar oxirida kelgan *d* va *t* undoshlarining talaffuzda tushib qolishi, ammo yozuvda saqlanishi, yonma–yon kelgan ikki bir xil undoshli soʻzlarning aytilishi va yozilishini bilib oladilar.

3–4–sinflarda esa tovushlar va harflarga oid bilimlar chuqurlashtiriladi, mustahkamlanadi. Soʻzlarni tovush – harf tomonidan tahlil qilish takomillashadi, bolalarda nutqni eshita olish qobiliyatini oʻstirishga eʼtibor kuchaytiriladi. Bular oʻz navbatida, oʻquvchilar savodxonligini oshiradi. Xatosiz koʻchirib yozish, eshitib yozish, yozganlarini mustaqil tekshirish koʻnikmalarini oshiradi. Tovushlar va harflar yuzasidan olib borilgan ishlar kichik yoshdagi oʻquvchilarni ogʻzaki va yozma nutqni oʻstiradi va takomillashga yoʻnaltiradi.

Fonetika boʻlimi oʻquvchilarni savodxon boʻlishida muhim rol oʻynaydi. Fonetika orqali oʻquvchilarning ogʻzaki nutq madaniyati ham shakllanadi.

Shuning uchun biz oʻqituvchilar fonetika boʻlimini oʻquvchiga oʻrgatishda badiiy til qoidalariga rioya qilishimiz, ularni bir–biri bilan soʻzlashganda nutq qoidalari va ovoz fonlariga eʼtibor berib, ovozni past va balanda ishlata olishga oʻrgatishimiz zarur.

Quyida boshlangʻich sinflarda fonetik mashqlar ustida ishlash hamda fonetik tahlil qilish metodikasidan namunalari keltiramiz.

Fonetik tahlil tartibi:

1. Soʻzning ovoz chiqarib toʻgʻri talaffiz qilish.
2. Soʻzdagi tovushlar va harflar sonini aytish.
3. Unli tovushlarni, ularning qaysi harflar bilan ifodalanganini aytish.
4. Undosh tovushlar, ularni jarangli yoki jarangsizligi, qaysi harflar bilan ifodalanganligini aytish.
5. Soʻzdagi boʻgʻinlar sonini aytish, urgʻuli boʻgʻinni aniqlash, urgʻu tushgan unlini koʻrsatish.

Fonetik tahlil namunasi:

Quyosh soʻzida 5 ta tovush (q, u, y, o, sh), 5 ta harf (q, u, y, o, sh) bor.

Unli tovushlar: u, o.

Undosh tovushlar: q, y, sh; q va sh – jarangsiz undosh, y – jarangli undosh.

Quyosh soʻzi ikki boʻgʻinli, ikkinchi boʻgʻin urgʻuli: - urgʻu o unlisiga tushgan.

3–sinf. 63–mashq. Tushirib qoldirilgan harflarni qoʻyib koʻchiring.

muka...al	mi...atdor	tana...us
taa...ub	mi...ioner	tasha...ur
maha...a	chi...i	chi...ak
gra...	ji...a	shi...at
tasa...i	musa...o	ma...or
pa...ak	pa...a	pi...a
qu...at	qa...iq	sa...iz

54–mashq. Nuqtalar oʻrniga *d* va *t* undoshlardan mosini qoʻyib, soʻzlarni koʻchiring.

payvan. , darax. , dilban. , sus. , balan. , poytax. , g'ish. , Samarqan. , go'sh. .

Yangi imlo qoidasiga o'tish munosabati bilan ayrim bo'g'in ko'chirish qoidasiga o'zgarishlar kiritildi. Masalan: я–шил, ё–мон, е–лим, ё–ки, ё–љут, я–шин, е–мак, е–миш, я–мољ kabi so'zlarni bo'g'in ko'chirib bo'lmas edi. Yangi alifboga binoan qanday aytilsa shunday yoziladi va bo'g'in ko'chiriladi.

Namuna: ямољ – 5 ta tovush, 4 ta harf

ya–моқ – 5 ta tovush 5 ta harf.

Bu so'zlarda tovush va harf endi alohida sanaladi va bo'g'in ko'chiriladi. ya–shil, yo–mon, ye–mak, ye–mish, yo–qut.

Fonetik tahlil quyidagicha bajariladi:

Namuna: Tong – 3 ta tovush, 3 ta harf, unli tovush 1 ta, undosh tovush 2 ta, 1 ta jarangli 1 ta jarangsiz, 1 ta bo'g'in.

Mas'ul – 5 ta tovush, 5 ta harf, 1 belgi, 2 ta unli, 3 ta undosh, 2 ta jarangli, 1 ta jarangsiz, 2 ta bo'g'in.

4–sinf 104–mashq. Tovush – harf tahlili tarkibi.

Namuna: Zag'cha – 5 ta tovush, 4 ta harf, 1 harf, 1 harf birikmasi, unli tovushlar: *a, a*

Undosh tovushlar: *z, g', ch*

Jarangli tovushlar: *z, g'*

Jarangsiz tovushlar: *ch*.

Tekshirish diktanti. Tekshirish diktanti dasturning biror bo'limi o'rganilib, xilma–xil ta'limiy maqsadlar bilan mustahkamlangach, ular o'quvchilar tomonidan qay darajada o'zlashtirilganini sinash maqsadida o'tkaziladi.

Tekshirish diktanti uchun sintaktik tuzilishi jihatidan shu sinf o'quvchilar saviyasiga mos, o'rganilgan imlo qoidalari asosida yoziladigan so'zlar va tinish belgilari ko'proq qo'llanilgan matn tanlanadi.

Tekshirish diktanti uchun matnlardan emas, – balki o'rganilgan qoidalarga xos terma gaplardan ham foydalanish mumkin. Lekin ikki holda ham gaplardagi so'zlar soniga e'tibor berish lozim.

Tekshirish diktanti uchun tanlangan matnda so'zlar soni quyidagicha bo'lishi lozim:

	1–sinf	2–sinf	3–sinf	4–sinf
1–yarim yillik	–	25–30 so'z	45–55 so'z	65–70 so'z
2–yarim yillik	15 so'z	35–45 so'z	55–65 so'z	75–80 so'z

“So'zning o'rini topish” o'yini.

O'yinni o'tkazishdan oldin o'qituvchi yozuv taxtada yoki kartochkada she'riy parchalarni yozib tarqatadi. Kartochkadagi ayrim so'zlar tushirib qoldiriladi. O'qituvchi o'quvchilardan so'zlarning o'rini topib yozishni talab etadi.

Bunday o'yinlarni o'tkazish o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga va lug'at boyligini oshirishga yordam beradi. *Namuna:*

Bog' yashnaydi, Uy yashnaydi,

..... bilan. bilan.

Dala yashnar Tog' yashnaydi

..... bilan. bilan.

O'quvchilar ochiq qolgan so'zlar o'rniga mos keladigan to'g'ri javobni topib yozishlari kerak (bog'bon, dehqon, bola, lola).

Tilimizga jon bergan aziz_____bobo,

Vatan deya kurashgan sohibqiron_____bobo.

Yulduzlar sirini ochgan_____dek bobojon,

Tibbiyotga yo'l ochgan_____bobojon.

Hadislarni to‘plagan va bizgacha yetkazgan
_____ bobom sen.

Barchasiga jon bergan sen aziz, _____jonim sen.
«Kim savodxon» o‘yini.

O‘quvchilarga imlosi qiyin so‘zlarni to‘g‘ri yozib berish topshiriladi.

Masalan: dar____, ros____, Samarqan____, pas____, go‘sh____, es____lik, darax____, mar____.

So‘zlar guruhlarga pas____ hunday kartonga tayyorlab topshiriladi. Har bir guruhga berilgan so‘z bir xil bo‘lishi kerak.

Фанда орфографик малакаларни шакллантириш масалаларида психология, лингвистик ва методик асосларни кенг шарҳлаш, таълим жараёнидаги ХИЛМА-ХИЛ узгаришларни қиёслаш, системали утказилган тажрибалар давомида ўқувчилардаги индивидуал-психологик фарқлар ҳамда муайян кўрсаткичларни ўрганиш, шу соҳадаги статистик маълумотларни тизимга солиш ва, натижада, муқобил услубий хулосаларни чиқариш борасида катта мундарижадаги тадқиқотлар яратилган. Уларнинг айримларини биз тадқиқ этилаётган масалаларимизга боғлиқ ҳолда шарҳлашга ҳаракат қилдик. Шунингдек, мазкур бобда узбек орфографиясининг бошланғич таълим она тили дастурлари ва дарсликлари-да акс этиш жиҳатлари ҳам назарий томондан таҳлил этилди.

Х У Л О С А Л А Р :

Юқорида шарҳланган тадқиқотлар кўрсатиб турибдики,

1) орфографик жараён, айниқса бошланғич таълимда, ниҳоятда мураккаб жараёндир. бу мураккабликка мувофиқ келадиган самарали усуллари белгилаш ва уларни амалга оширишда ўқувчиларнинг индивидуал ва ўзига хос психологик хусусиятларини ҳисобга олиш ва таълим жараёнини муайян тизимда, муайян структурада ташкил қилиш талаб қилинади;

4) республикамызда бошланғич синф ўқувчилари билан ишлаш жараёнида ўтказилган психологик тадқиқотлар хулосалари асосида янада янги экспериментал таълим тизимини ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқдир;

5) она тили уқитиш методикаси тизимидаги методик ва психологик тадқиқот ҳамда кашфиётларни уйғунлаштириб, уларни амалда татбиқ этувчи махсус лаборатория марказини ташкил қилиш келажакда яхши самара беради.

ILOVALAR

1-ilova. UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARINING 1-SINFLARI UCHUN TEST TOPSHIRIQLARI

Berilgan matnda nechta gap bor?

Ajoyib qish fasli keldi. Havo toza. Osmon tiniq.

A) 4 B) 3 C) 2

2. Gap nimalardan tuziladi?

A) so‘zlardan B) bo‘g‘unlardan C) harflardan

3. Gapning birinchi so‘zi qanday harf bilan boshlanadi?

A) bosh B) kichik

C) unli

4. Gapning oxiriga qanday tinish belgisi qo‘yiladi?

A) nuqta (.) B) so‘roq belgisi (?)

C) undov belgisi (!) D) hammasi to‘g‘ri

5. So‘z nimalardan tuziladi?

A) harflardan B) bo‘g‘inlardan

C) gaplardan

6. Berilgan gap nechta so‘zdan iborat?

Mehnatsevar insonni hamma hurmat qiladi.

A) 4 B) 6 C) 5

7. Tovushlar yozuvda nima bilan ifodalanadi?

A) tovushlar B) harflar

8. Qanday tovush bo‘g‘in hosil qiladi?

A) unli B) undosh

9. O‘zbek tilida nechta unli tovush bor?

A) 23 ta B) 29 ta C) 6 ta D) 24 ta

10. Navbatchi so‘zida nechta tovush bor?

A) 9 ta B) 8 ta C) 10 ta D) 7 ta

11. Piyola so‘zida nechta harf bor?

A) 6 ta B) 5 ta C) 7 ta

D) 3 ta

12. Faqat bir unli harf bo'g'in hosil qilgan so'zlar qatorini aniqlang.

- A) aka, odob, uzum
- B) vazifa, Nigora, sinf
- C) piyoz, bulbul, un

13. O'zbek tilida nechta undosh tovush bor?

- A) 6 ta B) 23 ta
- C) 29 ta D) 24 ta

14. Uchta undosh harfli so'zlar qatorini toping:

- A) lavlagi, olxo'ri B) hasharot, Buxoro
- C) jahon, fasl

15. Ikkita unli harf qatnashgan so'zlar qatorini aniqlang.

- A) anor, soat B) do'st, uchuvchi
- C) behi, shifobaxsh

16. Uch bo'g'inli so'zlar qatorini belgilang.

- A) choynak, supurgi B) yong'oq, turp
- C) handalak, shaftoli

17. Bo'ginlarga to'g'ri ajratilgan so'zlar qatorini toping.

- A) si-ngil, ong-li B) jir-afa, is-siq
- C) hush-yor, mehn-at

18. Qaysi harf ikki tovushni bildiradi?

- A) i B) j C) z D) u

19. Nuqtalar o'rniga undosh harflardan mosini tanlang.

Do's..., avgus..., xa..., juf...

- A) d B) g C) t

20. Alifbodagi sakkizinchi harfning nomini belgilang.

- A) h B) i C) j D) g

2-ilova.Orfografik hushyorlikni shakllantiruvchi mashqlar

1. Anagrammani yeching va ortiqcha so'zni toping.

GATRILU

ARYQOB

AITNRSNA

YCHBKOCHEA

SHFBAINA

2. Nuqtalar o'rniga mos keluvchi so'zni topib yozing.

DAVRA (VAQT) TAROQ

SHAHAR (...) OQLOV

3. Qaysi qatordagi soʻz mevaning anagrammasi emas?

- F) AANNB
- G) SNNAAA
- H) IXOʻRLO
- I) ARKZI
- J) ATSHLOFI

4. Harflardan harflarga gorizontal, vertical, diagonal boʻyicha oʻtib, yashiringan iborani oʻqing.

O' I T
L T YE
CH A B
B K E
I R S

5. Qaysi qatordagi harflardan soʻz tuzib boʻlmaydi?

- F) ONKOIT
- G) ABRXA
- H) HFINRA
- I) MAKALAK

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullaeva Q., Yusupova M., Abdullaeva D. Diktantlar to‘plami, 1–sinf.
2. “Boshlang‘ch ta’lim konsepsiyasi” 1998 yil
3. “Boshlang‘ich ta’lim” jurnali. 1998 yil, 8-son.
4. ”Boshlang‘ich ta’lim” jurnali. 1998-yil, avgust soni.
5. ”Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”. 1997.
6. “Boshlang‘ich ta’lim” jurnali, 1994 yil, 2–son.
7. Fuzailov S. Xudoyberganova M. 3-sinf ona tili darsligi. Toshkent “O‘qituvchi” nashriyoti 2008 yil, 144 bet
8. G‘lomova X., Yo‘ldoshova Sh., Shermatova U. 4-sinfda ona tili darslari. -T.: “O‘qituvchi”, 2003. 160 b.
9. G‘ulomov A.Q. "Ona tili o‘qitish prinsiplari va metodlari", T.,1992–yil
10. Ikromova R. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva SH., Shodmonqulova D. Ona tili: 4-sinf.-T.: “O‘qituvchi”, 2009. 187 b.

11. Kubayeva K. "Mukammal bilimli bo'laylik" ilmiy-uslubiy maqola "Ziyokor" jurnali 5 –son 2003 yil.
12. Mirzayev M. Usmonov S. , Rasulov I. O'zbek tili Toshkent 1978 y.
13. Niyozmetova T. Bayonlar to'plami. (Boshlang'ich sinflar uchun) Toshkent, 1998 yil.
14. Qo'chqortayev I., Qo'chqortayeva. "Tilshunoslikka kirish", Toshkent, 1976 y.
15. Saidov A., Abduazizov A., Irisqulova M. "Tilshunoslikka kirish" Toshkent 1976-yil.
16. Saydahmedov N. Dilaktik jarayonlar nima?. "Ma'rifat" gazetasi, 17-fevral, 1999-yil.
17. Saydahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalarning mohiyati. Xalq ta'limi. T.: 1999-yil.
18. Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M. "Tilshunoslikka kirish". Toshkent, 1981
19. "Ta'lim taraqqiyoti" 7– maxsus son. "Sharq nashriyoti" 1999–yil.
20. Tolipov O'. Pedagogik texnologiyaning asosiy tamoyillari. "Xalq ta'limi". 5-son, 2001-yil.
- 21.
22. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. T.: Sharq, 3-maxsus soni, 1999.